


BAXTIYOR OMONOV

FAROVON JAMIYAT QURISH YO'LIDA



Zamondosh mulohazalari

Dir. 2
32
0-60

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI



BAXTIYOR OMONOV

FAROVON JAMIYAT QURISH YO'LIDA

Zamondosh mulohazalari

Toshkent
"Universitet"
2022

O'zMU
IJTIMOIY FANLAR
FAKULTETI
ARM

UO'K: 323 (575.1)

KBK: 66.3 (50')

O-56

Omonov B.A. Farovon jamiyat qurish yo'lida. Zamondosh mulohazalari. Ilmiy-ommabop nashr. -T.: "Universitet", 2022. 160 bet.

Taqrizchilar:

S. Otamurodov –falsafa fanlari doktori, professor

O'.Rahmatov – O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

A.O'tamurodov –falsafa fanlari nomzodi, professor

Siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Omonovning yangi kitobi "Farovon jamiyat qurish yo'lida" deb nomlanadi. Muallif birinchi faslda O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlarning natijalari va xorij tajribasini, G'arb va Sharq mamlakatlarining siyosiy modernizatsiyalash yo'lini qiyosiy o'rganadi. Ikkinchi faslda Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Turkiya, Germaniya, Fransiya, Singapur, Malayziya kabi davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy yuksalishi omillari va bugungi muvaffaqiyati sirlarini siyosiy-falsafiy tahlil qiladi.

Ilmiy-ommabop kitob ijtimoiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalarida "Ma'naviyatshunoslik", "Siyosatshunoslik", "Sotsiologiya" mutaxassisligida tahsil oluvchi talabalar, tadqiqotchi olimlar, faylasuflar, siyosatshunoslar, jurnalistlar, davlat boshqaruv tizimida faoliyat olib boradigan xodimlar va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Kitob O'zbekiston milliy universiteti ilmiy-uslubiy kengashining 2021-yil 29-noyabrda 3-son bayonnomasiga asosan, nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-7885-6-5

© "Universitet" nashriyoti,
Toshkent, 2022 y.

MUNDARIJA

Yangi O'zbekistonning imkoniyatlari haqida kitob4

Birinchi fasl

KICHIK FAROVONLIK YURTI ODIMLARI

Sharh	7
Sharq Renessansi va uning inqirozi	8
O'zbek olimlarining ixtirolari tadbqiqiga doir	21
Tomoshabinni o'z domiga tortayotgan seriallar	28
Globalashuv davrida shaxsning maydalashuvi	32
Millat va korrupsiya	41
Ta'lim va milliy taraqqiyot haqida mulohazalar	55
Til - millat ruhi demak	70
Alisher Navoiy - bizning idealimiz	82
Ichanqal'adan Tuproqqal'agacha - Jaloliddinlar yashaydigan yurt	90
Qunt, ilm va aql - barcha muammolar kaliti	102
Elektron hukumat -jamiyat erkinlashuvi omili	115
Bunyodkorlik falsafasi	120

Ikkinchi fasl

KATTA FAROVONLIK JAMIYATI TAJRIBALARI

Sharh	127
Yevropa davlatlari modernizatsiyasi: tajriba va saboqlar ..	128
Yaponiya rivojlanishi tarixiga bir nazar	137
Xitoy islohotlarida mutafakkirlar tashabbusi	142
Janubi-sharqiy Osiyo fenomeni siri	152
Asl muddaomni aytsam	156

YANGI O'ZBEKISTONNING IMKONIYATLARI HAQIDA KITOB

(So'zboshi o'rnida)

Ushbu kitob shundoq ko'z o'ngimizda, yurtimiz va jahon afkor ommasi uchun bag'oyat tahlikali, xavotirli kechgan pandemiya sharoitida yozildi va gazetamiz sahifalarida, Milliy axborot agentligi rasmiy kanalida peshma-pesh chop etib borildi. Dunyo tojdor virus xavfiga ro'baru kelgan o'sha kunlarda mashhur siyosatchilar, olimlar, davlat va jamoat arboblari, adiblar, publitsistlar bir tan-u bir jon bo'lib insoniyatni yillar mobaynida qiynab kelayotgan ko'plab ijtimoiy muammolarning ijobiy yechimlarini topish, inson, jamiyat va davlat yakdilligiga erishish, modernizatsiyalash – yangilanishni davom ettirish haqida fikrlay boshladilar. Siyosiy fanlar doktori, adib Baxtiyor Omonov ham gazetamiz tavsiyasiga binoan, ana shu ezgu maqsadda qo'lga qalam olib, jamiyatni birday o'ylantirib kelayotgan dolzarb mavzularda maqolalar va sharhlarni yozishga kirishdi.

Adolatli, farovon jamiyatni qurish oson ish emas. Buning uchun mutafakkir ota-bobolarimiz asrlar mobaynida kurashgan, mustamlakachilik yillarida ziyolilarimiz, yurtsevar kurashchilarimiz xalqimizning erki, g'ururi, nomusini mardona-vor himoya qilishgan. 1991 yilga kelib milliy istiqlol, erkinlik g'oyalari baralla bo'y ko'rsata boshladi va o'zbek millatining orzu-niyatlari ushaldi. Ammo mustaqillikning qo'lga kiritilishi hali uning to'la qaror topganligini anglatmas edi. Chunki oldinda uni asrash va mustaqil taraqqiyot yo'lga kirib borishdek murakkab vazifa turardi.

Kitobda jamiyatni isloh etish, inson dunyoqarashini o'zgartirish orqali farovonlikka erishishga intilayotgan xitoy, yapon, nemis, fransuz, rus, hind va boshqa xalqlarning ijtimoi-

iy-siyosiy hayotida keyingi o'n yilliklarda yuz bergan inqilobiy o'zgarishlar, O'zbekistonda mazkur o'ta murakkab vazifalarning yechimini topish jarayonlari tahlil etilgan.

Istiqlol – odamlarning baxti-saodatı, moddiy va ma'naviy yuksalishi uchun ulkan imkoniyat! Istiqlol – huquq, o'zini anglash va yurtga xizmat qilish demak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2020 yil 29 dekabrdağı Parlamentga Murojaatnomasida: "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renaissance poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'yan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak", degan edi. Siz qo'lga olgan kitob aynan shu maqsadni ko'zlab yozilgan. Unda jamiyatda ta'lim va yoshlar, davlat va nodavlat tashkilotlari muammolari, milliy taraqqiyotga to'siq bo'layotgan korrupsiya va og'machilik, loqaydlik va bilimsizlik, maddohlik va ikkiyuzlamachilik kabi salbiy illatlarni bartaraf etish imkoniyatlari chuqur tahlil qilinadi, takliflar va amaliy tavsiyalar ilgari suriladi.

Kitob boblarining "Kichik farovonlik" va "Katta farovonlik" deb nomlanishida ramziy ma'nolarni ko'ramiz. Ya'ni, ilg'or davlatlarga o'xshab, birinchi bosqichni tugallagandan keyin navbatdagi bosqichlarga kirishiladi. O'zbekiston ham jamiyat modernizatsiyasiga – yangilanish va farovonlikka intilmoqda. Modernizatsiya aslida, zamonaviylashish, ochiqlik, islohotchilik va zamonga hamohang yashash degani. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2017 yilda qabul qilingan Harakatlar strategiyasi va 2021 yilda ilgari surilgan Yangi O'zbekiston strategiyasi yurtimizda mana shu demokratik jarayonlarga turtki berdi.

Siz mutolaa qiladigan ilmiy ma'rifiy kitob bir olim zamon-doshimizning xolis mulohazalari bo'lib, fuqarolarimizni millat va xalq manfaatlarini himoya qilishga, Yurtboshimiz atrofida jipslashishga, hamfikir va hammaslak bo'lib ahil yashashga hamda farovon jamiyatni qurish yo'lida yangicha fikrlash va ishlashga da'vat qiladi. Bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan

zamon talabi bizdan shuni talab qiladi. Zero, Amir Temur, Alisher Navoiy, Naqshbandiydek buyuk bobolarimiz hazrati insonni o'zidan yaxshi nom, yaxshi amal qoldirishga o'rgatishgan.

Yangi O'zbekistonning cheksiz imkoniyatlari haqida yozilib, yaxshi g'oyalar, ilg'or fikrlar ilgari surilgan ushbu kitob qalbimiz va ruhiyatimizga ko'tarinkilik, kuch-quvvat bag'ishlaydi.

**O'tkir RAHMATOV,
"Xalq so'zi" va "Narodnoe slovo"
gazetalari bosh muharriri.**

"Ilm egallang! – deydilar Muhammad (s.a.v.) payg'ambarimiz o'z izdoshlariga. – Ilm – sahroda do'st, hayot yo'llarida – tayanch, yolg'izlik damlarida – yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda – rahbar, qayg'uli onlarda – madadkor, odamlar orasida – zebu ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda – quroldir".

Bilqiz Aladdin. Muhammad payg'ambar alayhissalom qissasi

Birinchi fasl

KICHIK FAROVONLIK YURTI ODIMLARI

SHARH

Kichik farovonlik jamiyati – inson erkin, ozod, o'z xohishidek yashashi va o'zligini namoyon etishining birinchi pog'onasi. Modernizatsiyalash – an'anaviy turmush tarzidan zamonaviy jamiyatga o'tish, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishda yuqoriroq bosqichga erishish. Inson – jamiyatning ustuni, davlatning tayanchi, hokimiyatning bosh manbai. Davlat ilm va aql bilan ishlagan, ishbilarmon, ma'rifatli, iste'dodli insonlarga suyangan taqdiridagina, jamiyatdagi muammolarga yechim topiladi. G'arb jamiyati XVII asrdayoq, shu aqlli yo'lni tanlab, avvalo, insonni ulug'lash, orzu-umidiga erishuvi uchun shart-sharoitni yaratish orqali ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi.

Birinchi faslda biz O'zbekistonda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamlı islohotlarning xalqimiz hayotida aks etishi jarayonlari bilan bog'liq masalalarga javob izlashga harakat qildik.

SHARQ RENESSANSI VA UNING INQIROZI¹



Matbuotimizda Renessans haqida juda ko'p yozilmoqda. "Renessans" so'zi lug'aviy ma'noda fransuzcha renaissance – "qayta yuzaga kelish", "uyg'onish" ma'nolarini bildiradi. Renessansning asosiy belgilari: tafakkurda va ilmu ijodda dogmatizm, jaholat va mutaassiblikni yorib o'tib, insonni ulug'lash, uning iste'dodi, aqliy, fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarish!

Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (IX–XII-asr) Renessansni keng tarqatgan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot rivojlangan edi. Bu davr dunyo ilm-fanida "Islomiy Renessans" (A. Mes) yoki "Sharq Renessansi" (N.Konrad) nomi bilan ataladi. Nazarimizda, Markaziy Osiyoda muqaddas Qur'oni Karim kitobining mo'jizakor siru sinoatlarini anglashdan boshlangan fikriy Renessans Islom tamadduni nomi bilan rivojlanib, XVI asrgacha jahon ilm-fani va g'oyalari markaziga aylandi, desak to'g'ri bo'ladi.

Islom bilan yaqindan oziqlangan Osiyo jamiyatlari o'zlarini ilgaridan ega bo'lgan madaniy boyliklarni islomiy g'oyalar bilan uyg'unlashtirgan holda, o'zgacha bir yuksak madaniyatni yaratdilar. Xususan, diniy e'tiqod, yashash tarzi va milliy qadriyatlarini baland bo'lgan Movarounnahr xalqlari IX–XII

¹ [https:// uza.uz/uz /posts/ qorqoq-va-tobe-olomon-osonaldangan-xalqlar- hokimiyatga-yaqinlashtirilmagan-aqlli-odamlar-sharq-renessansi-va-uning-inqirozi_226345](https://uza.uz/uz/posts/qorqoq-va-tobe-olomon-osonaldangan-xalqlar-hokimiyatga-yaqinlashtirilmagan-aqlli-odamlar-sharq-renessansi-va-uning-inqirozi_226345) uza.uz 04.01.2021.

(Манбалар номи тўлиқ келтирилди).

asrlarda birinchi Renessans davrini boshlab berdilar. "Ilm" so'zi Qur'oni karimning 850 joyida turli ko'rinishlarda kelgan, demakki, ilmiy ko'tarilishning ildizida islom dini turardi. Shu bois, islomni qabul qilgan jamiyatlar o'qish-o'rganish va ta'limga katta ahamiyat berishi baravarida, ta'lim-tarbiya tuzilmalarini go'zal tarzda shakllantirishga erishgan edilar.

1004 yildan boshlab Gurganjda "Dorul hikma va maorif" ("Majlisi ulamo") nomini olgan ilmiy muassasa shakllandi. Bu ilmiy muassasada Afinadagi "Platon", Bag'doddagi "Bayt ul-hikma" akademiyasi faoliyatiga o'xshagan ilmning barcha sohalari da tadqiqot va izlanishlar olib borildi, behisob manbalar to'plan-di, tarjimonlik ishlari bajarildi, xususan, hind, yunon, arab olim-larining ishlari bir joyga jamlandi. Ma'rifatparvar shaxs Ma'mun ibn Ma'mun tashabbusi va sa'y-harakati bilan Renesansga asos bo'lgan Ma'mun akademiyasi **atigi o'n uch yil (1004-1017) fa-oliyat olib borgan** bo'lishiga qaramay, u XI asrda Markaziy Os-iyoning ilm markaziga aylanishini ta'minlagan!

Shunday qilib, Movarounnahr mintaqasida dunyo e'tirof etgan Muhammad al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oni, Abu Ray-hon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Za-maxshariy singari buyuk allomalarimiz o'zlarining ilmiy-ijo-diy kashfiyotlari bilan umumjahon taraqqiyoti va ilm-fani rivojiga munosib hissalarini qo'shdilar.

XIII asr boshidagi mo'g'ul istilosi tufayli ilmiy jarayon bir muddat to'xtab qoldi, ammo bu holat uzoqqa cho'zilma-di. XIV asrning ikkinchi yarmida sohibqiron Amir Temur (1336-1405) tarix sahnasiga chiqqanidan keyin mintaqada qaytadan yuksalish boshlandi va Temuriylar davlatining qa-ror topishi bilan o'lka yangidan madaniyat, ilm-fan, san'at va adabiyotning markaziga aylandi. "Butun tarixlarda istakli yo istaksiz o'laroq yozilgani- dek, Temurning maqsadi, fikri-zikri turklar birligiga xizmatdan iborat edi"².

² Alp Dundar. Sharqning eng buyuk hukmdori Temur. Roman. -T.: O'zbekiston, 2018.- B. 4.

Ilmning avloddan-avlodga meros o'tkazilishi bois, ummat o'zini adashishdan saqladi, milliy qadriyat va muqaddas qadamjolarini dushman bosqinidan himoya qildi. Yevropa o'rta asr johiliyat botqog'ida botib yotganida musulmon madrasalari tabiiy fanlarni o'rganish markazi bo'lgandi. Renessans davrida kuchli diniy bilimlar huquqshunoslikka, kalomdan falsafaga, adabiyotdan psixologiyaga, matematikadan astronomiyagacha bo'lgan sohalarda buyuk asarlarni vujudga keltirishga xizmat qildi. Bu bilimlarning paydo bo'lishiga ko'maklashgan tashkiliy tuzilma – madrasalar o'rta asrdagi islomiy madaniyat va ilm-fanning haqiqiy markazi, mustahkam poydevori vazifasini o'tadi (uning Shaxsni shakllantirgan jamiki samarador jihatlarini alohida tadqiq qilish payti keldi – B.O.). Madrasalar islomiy ilmlardan tashqari, uzoq vaqtgacha tibbiyot, astronomiya, jamiyatshunoslik va iqtisodiyotni o'rganish vazifasini bajardi. Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent, Qo'qon shaharlaridagi madrasalar tizimi dunyoviy va diniy bilimlar, tibbiyot, astronomiya, aniq fanlar hamda huquq-falsafa yo'nalishlaridagi ta'limda tengi yo'q muassasaga aylandi, deyish mumkin. Mirzo Ulug'bek ochgan Samarqanddagi oliy madrasa nafaqat ilm-fan arboblari, balki diniy ulamolar uchun o'ziga xos akademiya bo'lgan. Qutlug' dargohda Turon-u Erondan ikki yuzdan ziyod olim faoliyat olib borgan. Samarqand madrasasi 1420 yilda qurib bitkazilgan edi. Ikki qavatli, burchaklaridagi to'rtta darsxonaning ustida to'rtta gumbaz va to'rtta minora qad rostlagan. Madrasaning birinchi qavatida 25 ta, ikkinchi qavatida 25 ta hujra joylashgan bo'lib, uning har birida ikki nafardan talaba yashagan. Madrasa Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Jamshid Koshiy, Ali Qushchi kabi yetuk olimlar rahnamoligida madaniyat, ilm-fan sohasida Sharqda ikkinchi Renessansga asos solgan.

Mirzo Ulug'bek 1447 yilda vahshiylarcha qatl etilganidan so'ng, Samarqand madrasalaridagi olimlar asta-sekin boshqa mintaqalarga tarqaldi. Ammo shunda ham madrasalar yuz

yillaracha Turk-islom ilmi rivoji yo'lidagi xizmatini vijdonan ado etdi.

Musulmonlar sivilizatsiyasi gullab-yashnagan davrlarda tolibi ilmlar Qur'oni karim ma'nolarini o'rganar, o'n yoshiga kelib, ham diniy, ham dunyoviy ilmlarni yaxshi o'zlashtirar edi. Nozil bo'lgan kunidan Oxirat kunigacha bu oxirgi Muqaddas kitob insoniyat uchun yagona yo'riqnoma bo'lib qoladi. Zotan, Allohning kitobida "068 Qalam surasi, 52 oyatida: "Holbuki, u (Qur'on) barcha olamlar uchun faqat bir (buyuk) Eslatmadir"³, deb xabar qilinadi.

Yana bir muhim gap...

Olimlarning tahlilicha, inson miyasi tabiatiga ko'ra, moyilik xarakteriga ega va uning bir qismidagi yaxshi aloqalar atrofdagilarning hayotdagi vazifalariga bilvosita ta'sir qiladi. Yoshligidan Qur'oni karimni o'rgangan bola til o'rganish, yodda saqlash, eshitganlarini tahlil qilish, diqqatli bo'lish, qobiliyatini kuchaytirish, asl maqsadga yetishishni miyasida mashq qildirar oladi. Bunday iqtidorga ega bo'lgan bola boshqa fanlarni o'rgana boshlasa, nimalarga erishmog'ini endi tasavvur qilavering! Masalan, imom Muhammad G'azzoliy (1058-1112) faqat ilm olishdan bo'sh vaqtlarida ikki yil ichida yunon falsafasini puxta o'rgangan. Musulmonlarning ilm-fanga chanqoqligiga Qur'oni karim sabab bo'lgan, deydi g'arblik olimlar. Afsus, ana shu islomiy ta'lim tizimi pasayganida Sharq olami bilimdonlikda peshqadamlikni qo'ldan boy berib qo'ydi. Bu jarayonni G'arbning istilochilik siyosati tezlashtirdi. XVIII asr oxiri va XIX asrning boshlarida madrasalardagi ta'lim sifati tushib ketdi. Din va ilm-fanni o'z shaxsiy manfaati yo'lida foydaluvchilar ta'sirida diniy hukmlar bilan dunyoviy ilmlarni xato tushunuvchi va tushuntirib beruvchi, bilim va adabiyotga umuman qiziqmaydigan avlod paydo bo'ldi.

³ <https://www.islamonline.uz/index.php/alouddin-mansur/276-qalam>

Qalbni anglash

Qalb – insonni latifligi, tozaligini bildiruvchi ko'zgu. "Qalb" lug'atda bir narsani ag'darishni anglatadi. U bir xil turmay, u yoq-bu yoqqa ag'darilib turgani uchun ham "qalb" deb atalgan. Islom tushunchasi bo'yicha qalb ikki xil: zohiriy va botiniy bo'ladi. Zohiriysi ko'krakning chap tomonida joylashgan konus shaklidagi go'sht parchasi, botiniysi esa nuroniy, latif, biluvchi, insonni inson qiluvchi narsadir⁴.

Tasavvuf adabiyotida bu borada ajoyib fikrlar, tashbihlar, g'azallar keltirilgan. Sharqni mashhur qilgan ana shu so'fiy adabiyot namunalari edi. albatta.

Barchaga ma'lumki, XVII asrdan istilochilar Sharq mamlakatlarini birma-bir bo'ysundirgach, birinchi navbatda Qur'onning nufuzi, maqomini pasaytirishga urinishdi. Bu inson yuragiga xanjar sanchish va chalajon qilish bilan barobar edi. Endi botin ilmi, qalb fikrlari yohud komillik, donolik, to'g'ri-lik tomon intilishlar ikkinchi darajaga tushib, Nafs texnologiyalari birinchi o'ringa chiqib ketdi. Qanday qilib deysizmi? "Sening biring ikki bo'lmaydi, ma'naviy boy bo'lishing kimga kerak: ertaga bolalaring och qoladi. Sen dastlab moddiy boy bo'lgin, qalbing tarbiyasini yig'ishtir va moddiyunchilikka intil, yagona yo'l shudir", degan g'oyani singdirish jarayoni kuchaygandan kuchaydi. Shunda Qur'ondan asta-sekin chekinish boshlanib, Sharqning tanazzuli chuqurlasha bordi.

Qur'on qalbni tarbiyalaydi, insonni ilmi, iymonli bo'lishga hozirlaydi. Qalb eng kuchli shunday qurilmaki, unga butun dunyoni sig'dirish mumkin. Dunyo bunday rivojlanish cho'qqisiga qay yo'l bilan erishdi va qanday muammolar orasida tentirab yuribdi – buni faqat yurak sezadi, his qiladi va kerakli ohangini topib, O'zi hal qilish chorasini topadi. Ha, faqat o'zi, boshqa hech kim emas. Axir, jamiyat ham, davlat ham shaxslarning umumlashmasi emasmi va unga suyanib

⁴ <https://azon.uz/content/views/qalb-nima-degani> 29.12.2018

ish ko'rmaydimi? Biz ta'limda ham, jamiyat hayotida ham, davlatni boshqarishda ham qalbgga yo'l topa bilmaganimiz, insonning mo'jizaviy kuch-imkoniyatga egaligini mensimasligimiz, behad nohaqliklarga yo'l qo'yganimiz, yana gunohlarimiz oshayotgani hisobiga jamiyatimizda olg'a siljishni ko'rmayapmiz.

"Nafs texnologiyasi odam va davlatni o'limga yetaklovchi kuchga qodirdir. Nafs domiga tushgandan keyin, kishi hech narsadan tap tortmaydi, harom-xarishdan hazar etmay, boshqalar hisobiga bo'lsa ham yaxshi yashashni o'ylaydi. Oqibatda u zolim, berahm riyokor bo'lib qoladi"⁵, deb yozgan edi taniqli olim, professor Najmiddin Komilov "Tasavvuf" (1999) nomli kitobida. "Shuning uchun tasavvuf talab etgan tiyilish, qanoat, sabru faqirlik tariqida gap ko'p. "Dunyoga bir marta kelasan, oladiganingni olib qol" – bu ilgaridan ma'lum bo'lgan falsafa. Kommunistlar buni: "Men insonman, demak menga hamma narsa ravo" deb o'zgartirdilar, ammo maqsad o'sha: "ilojini topgin-da, yaxshi yasha, boshqalar bilan ishing bo'lmasin". Ana shunday g'aliz harakatlarni ayrim yoshlarning xatti-harakatida yaqqol ko'rmoqdamiz. **"Hamma narsa ravo" falsafasi odamni iymonu e'tiqoddan ayirib, yulg'ichlik va talon-torojga fatvo beradi, vahshiylik instinkтини kuchaytiradi**", deydi ustozimiz Najmiddin Komilov (1937-2012).

Biz mustaqil davlat qurganimizdan keyin sun'iy yaratilgan qoliplarni sindirib tashlash, tasavvufga oid asarlarning qaymog'ini, durlarini yig'ib, maktab, institutlarning gumanitar fanlar predmetlariga bosqichma-bosqich kiritish, **"Tasavvuf falsafasi"ni ta'lim tizimiga fan sifatida kiritish yo'lini tanlashimiz kerak.**

Aqliy mehnatga o'rgatish

Aql – insonni boshqaruvchi, komillikka boshlovchi qurol. Insonni boshqa jonzotlardan ajratib turuvchi va uning aso-

⁵ Komilov N. Tasavvuf. –Toshkent, Yozuvchi, 1999. –B. 39.

siy xususiyatini belgilovchi "fahm-farosat, o'ylash, anglash va tafakkur malakasi"ni anglatuvchi atama "aql" deyiladi. Aql orqali ilmu ma'rifat sirlari ochiladi, jamiyatning murakkab muammolari hal etiladi, turli-tuman hayotiy voqealar, nozik masalalar o'z yechimini topadi. Chunki, inson faqat aql bilan narsaning mohiyatini ravshan anglashi mumkin. U aql bilan fikrlaydi, aql bilan harakat qiladi.

Qadim zamonlardan xalqimiz o'ta mehnatkash, sabr-irodali bo'lgan, jismoniy mehnat qilish esa shaxs shakllanishining asosiy omili deyilgan. Hayot sinovidan o'tgan ushbu tamoyilni muomaladan chiqargan davlatlar iqtisodiyot va jamiyat hayotida ko'p narsani yo'qotishdi. Hatto XXI asrga kelib, jamiyatda mehnat qilmasdan orzuga yetish, osongina mablag' topish illatlari paydo bo'lganini kuzatmoqdamiz. Nima qilish kerak? Abadiy jumboqli savolga aqlli javob topish lozim. Biz yoshlarni aqliy mehnatga o'rgatish, kitob mutolasini doimiy mashg'ulotga aylantirish tamoyillari ustuvor bo'lishi tarafdorimiz. Chindan ham sho'rolar hokimiyati aqlli va o'rtacha odamning nufuzini tenglashtirdi, boy odamning imkoniyatidan unumli foydalanishni emas, balki uni jisman yo'q qilishni, avlodlarini jazolashni, mansabga qo'ymaslikni, ular o'rniga ishchilar sinfini rahbarlikka ko'tarishni amalga oshirdi. Buning natijasida o'zbek jamiyatida ham 1960-1990 yillarda qo'rqqoq, tobe olomon shakllandi, haq-huquqini bilmagan fuqarolar davlatning behisob o'g'irligi va qing'irona ishlaridan butunlay ko'z yumdilar. Aqlli odamlar esa hokimiyatga yaqinlashtirilmadi.

Davlat hokimiyatining asosiy vazifasi – o'z fuqarolarining mehnat qilishi, iqtisodiy turmushini o'nglab olishi uchun yetarli shart-sharoitni ta'minlab berishdir. Toza muhit yaratilmasa, xalq yengil-yelpi hayotni, yolg'onchilik ko'chasini tanlaydi, hatto harom luqma bilan farzandlarini boqishga (davlatdan najot qolmasa, boshqa chorasi qolmaydi) ko'nadi. Eng yomoni, zurriyod davomchilari – bolalari luqma qaerdan

kirib kelayotganini ko'ra bila turib yashashga majbur bo'ladi. Islom ta'limoti qoidalari hukm surgan vaqtlarda bu zalolat yo'li, jaholatga teng baholangan.

Ha, XVI asrlardan Sharq nomaqbul yashash yo'lini tanladi. Bu g'arbona yo'l Islom olamini ko'p adashtirdi. Qaysi vosita bo'lishidan qat'i nazar, pulingni ko'paytir, odamlarning ichiga nifoq sol, foyda kelishini bilsang, yolg'on so'zla, lafzingni buz, deyildi ta'limotlarda.

Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq xalqlari oson aldandi, ammo Xitoy, Yaponiya singari mamlakatlar Nafs texnologiyasini umuman qabul qilmadi. Kunchiqar yurt "Yapon ruhiyati va g'arb texnologiyasi" nomli "vakon yosay" g'oyasini qabul qildi. Sobiq samuray va hukumat amaldori S. Sudzuki (1579–1655) dzen-buddaviylikka suyangan etikasida **"Mehnat– sa-br-qanoatga teng, u xudojo'ylik darajasidagi ish, mehnat qilish – iymon-e'tiqod yo'li", degan umrboqiy g'oya fuqaro ongiga singdirildi.**

Asli shu ta'limot buyuk bobomiz Bahouddin Naqshbandiyning doimo qo'ling mehnatda band bo'lishi, nemis faylasufi Maks Veberning protestantcha etika g'oyalariga yaqin tura-di. Alamli jihati shuki, Sudzuki va Veber ta'limoti Yaponiya va Yevropa mamlakatlari ijtimoiy hayotini yaxshilab, fuqarolar turmushini yuqori pog'onaga ko'tardi, undan-da kuchli Naqshbandiy ta'limoti esa o'lkamiz hukmdorlari tomonidan bir chetga surib qo'yildi. Demak, yapon, nemis, ingliz, fransuzlar o'z xalqining boy-badavlat va farovon hayot kechirishini ko'proq xohladi.

Sayyid Muhammad Bahouddin ibn Sayyid Jaloliddin Naqshband (1318-1389) ta'limoti ixcham ifodasini "Dil ba yoru dast ba kor – Diling Allohda, qo'ling ishda bo'lsin" hikmatida go'zal ifodalagan. Bunday oltin qoida dunyoda biron bir millatda uchramaydi. Ta'limot soddaligi va qulay qabul qilinganligi tufayli mintaqadagi o'ttizga yaqin mamlakatga tarqalgan edi.

Mavlono Yahub Charxiyning "Risolai unsiya", Abul Muhsin Muhammad Boqirning "Mahomoti Xoja Bahouddin Nahshband", Faxruddin Ali Safiyning "Rashahotu ayni-l-hayot" kabi risolalarida Xoja Bahouddinning hayoti, tariqati, ta'limoti, ta'siri va suluki haqida yaxshi ma'lumotlar keltirilgan. Ul zot aytar edilar: **"Amti-l-aza ani-t-tariqi"** (**"Aziyat beradigan narsalarni yo'ldan yo'qoting"**)dan **murod shuki, nafsingizni Haq yo'lida yo'qoting**. Bu gapda yuzlab kitoblarga jo bo'lgulik hikmat, ma'no yashiringan.

Sobiq ittifoq davrida odamlarda davlat hamma tashvishlarimni amallab qilib beradi, degan boqimandalik kayfiyati va ruhiyat psixologiyasi paydo bo'lgani rost. Boqimandalik psixologiyasi ajdodlar va bizning genlarimizda, boshqaruv madaniyatida, jamiyat hayotida hanuz yo'qolmagan. Uchinchi Renessansga tayyorgarlik jarayonlarida (u 20-30 yilga cho'zilib mumkin) milliy dasturlarni tuzish paytida Naqshbandiy bobomiz olg'a surgan oltin qoidalar asosida mukammal ta'limotni yaratish, ayniqsa, yoshlar uchun mehnatga o'rgatish zamonaviy usul va mexanizmlarini ishlab chiqishga zarurat kuchaydi. Sababi, jamiyat a'zolarida goho boqimandalik kayfiyati g'olib kelmoqda. Fuqarolarimizga mehnat insonni ulug'lashi va boy-badavlat qilishi tamoyillarini singdirishda muammolar mavjud. Jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy sohalarida, ta'lim tizimida **yoshlarning mehnatga munosabati salbiy tomonga o'zgarib, yengil yo'llar bilan pul topishga intilish vujudga kelmoqda**. Naqshbandiy ta'limotidagi ta'lim va tarbiyaga oid o'lmas g'oyalarni ilgari surishimiz boisi shuki, u chetdan ta'lim texnologiyalarini, o'qitish usullarini, odam resurslarini talab qilmaydi, hukumat va davlatdan ham ortiqcha mablag' so'ralmaydi. **Muammoning yechimi insonning o'ziga taqaladi va birgalikda yechimini topadi!**

Davlat va fuqaro o'rtasida konsensus, ahdlashuvga erishilsa, bir-birini qo'llab-quvvatlasa, og'ir tosh joyidan qo'zg'ala-di. Buning uchun davlat hokimiyati fuqaroga ish joyini tayin


etishi va unga yetarli shart-sharoit yaratishi, fuqaro esa siddiqdildan halol mehnat qilishi, moddiy va nomoddiy mahsulot chiqarib, o'z korxonasi, jamoasiga foyda keltirishi lozim. Fikrimizga jonli misol 1980-1985 yillarda Xitoyda boshlanib katta samara keltirgan Den Syaopin islohotlari. "Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik", degan xalqimiz maqolining mag'zini gap ko'p.

E'tiqodni tarbiyalash

E'tiqod – qat'iy ishonch demak. O'z turmushini ong'li tashkil etish, turli rejalar tuzish, orzu-havaslariga, ko'ng'li va tafakkuriga mos yashash, komillikka intilish insonning xos belgisi hisoblanadi. Insonning nafaqat moddiy-iqtisodiy, shuningdek, ma'naviy ehtiyojlari ham bo'ladi. Inson ma'naviyatining o'zagini e'tiqod tashkil qiladi. **Ma'naviyat e'tiqod tevaragida shakllanadi. E'tiqodning mazmunini birinchi galda ilm tashkil etadi.** Chunki kishi nimaga ishonayotganini, intilayotganini, o'z xulq-atvorini, yaratuvchilik faoliyatini, ijodini moslashtirishi zarurligini teran anglashi lozim. E'tiqod har qanday bilim (ilm) emas, balki qat'iy ishonchga aylangan, inson dunyoqarashining tamal toshini hosil qilgan bilim (ilm)lardir. Bu ilm diniy yoki dunyoviy yoxud ularning ma'lum darajadagi qorishuvi bo'ladimi, qat'i nazar, e'tiqodning mazmunini belgilaydi. Ilmsiz e'tiqod yo'q, bo'lishi mumkin ham emas⁶.

Yurtimizda islom diniga e'tiqod qo'yg'an dindorlar miqdori, nufuzi, jamiyat hayotidagi o'rni oshib borayotganligi tufayli mazkur e'tiqodni rivojlantirish texnologiyasiga ehtiyoj o'sib boradi. Din azaldan tartibni, halollikni yoqtiradi, demak, mamlakatimizda milliy taraqqiyotni ta'minlash yo'lida to'siq bo'lgan korrupsiyani jilovlash, temir intizomni o'rnatish va adolatning tantana qilishida (sohibqiron Amir Temur bobomiz

⁶ <https://islaminstitut.uz/11020> E'tiqod erkinligi –dunyoviy davlat asosi. 11.12.2019.



shu yo'l orqali adolat bayrog'ini ushlab, tarixga o'zining nomini muhrladi) Islom tartib-qoidalari nihoyatda katta rol o'ynaydi.

Bugungi yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasi holatiga ob'ektiv baho berib, **Naqshbandiyning mehnat etikasi ta'limotini jamiyat hayotiga, davlat va nodavlat tuzilmalariga joriy qilish mexanizmi mukammal ishlansa**, ota-bobolarimiz boshlab bergan Renessans, uyg'onish jarayonini davom ettirish sharoitini qo'lga kiritamiz! Agar G'arb texnologiyalariga ko'r-ko'rona ergashsak, vaziyat qo'ldan chiqib ketadi. Biz yana begona ta'lim va tarbiyaga qaram bo'lib, o'zimiz o'zbek, qarashlarimiz g'arbniki, tilimiz baynalmilal, yashash tarzimiz qorishmadan iborat jo'n odamga aylanishimiz mumkin.

Din – jamiyat va inson hayotida katta o'rinni egallaydi. **Din – e'tiqodli, vijdonli bo'lishni, to'g'ri yashash yo'llarini o'rgatadi. Din – haq yo'li, u korrupsiyaga, aldash va aldinishga, birovning molini o'g'irlashga, maddohlik va mutahamgarchilikka yo'l bermaydi.**

Amir Temur hukmronligi davrida boshlangan Ikkinchi Renessans (15-16 asrlar)dan so'ng, nega bayroqni qo'ldan chiqardik, degan haqli savol tug'iladi. Tarixning guvohlik berishicha, Islom dini rivoji, fuqarolarning o'zaro ahilligi, jamiyatdagi tinchlik va osoyishtalik, boriga qanoat qilishi, sabr-irodaliligi G'arb olamiga u qadar yoqmasdi (bu masalada shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning 2019 yilda chop etilgan "Olam va odam, ilm va din" nomli kitobida o'nlab dalillar keltiriladi –B.O.). Misol uchun Shayxning yozishlaricha, XVI asrgacha Yevropada na maktab-madrasa, na tibbiyot, na boshqaruv, na iqtisodiyot tizimi yaxshi ishlagan. Sharq ancha peshqadam bo'lgan! Shunda alamzada g'arblıklar sharq odami psixologiyasini o'zgartiradigan maxsus texnologiyani o'ylab topish harakatiga tushadilar. Ko'rganida inson ko'zi quvonadigan texnika va texnologiyalarni ko'paytirib (aslida bunga muhtojlik va zaruriyat bo'lmagan), axborot texnologiyalari bozorini rivojlantirdilar.

Arab, fors tilida bitilgan nodir qo'lyozmalarni bosqinchilik va ayg'oqchilik yo'llari bilan o'g'irlab ketishdi-da, "nozik" joylarini o'zgartirib, ilm-fan laboratoriyalarida qayta to'ldirib, yana o'zimizga qaytarib berishdi. XIX-XX asrlarga kelib, televizor, kompyuter, mobil aloqani ishlab chiqarib "sovg'a" qildilar. Ammo integral sxema, matematik modellarda Muhammad al-Xorazmiy, Abu Ali ibn Sino, al-Farg'oniy, Mirzo Ulug'bek, Qozizoda Rumiy kabi Sharq allomalari g'oyalari asos bo'lib xizmat qilganini unutayozdik..

Sharq odami fikrlashdan, rivojlanishdan to'xtadi, uning uchun texnika o'ylay boshladi. Misol uchun, birgina texnika -1990 yillarda estrada san'atimizga kiritilgan fonograma (og'iz kuchaytirgich) asbobi ovozi yo'q, ona tilini bilmagan havaskorni taniqli xonandaga aylantirdi, alal-oqibat, qo'shiqchilik san'atida iste'dodli bilan iste'dodsizning farqi qolmadi.

Biz e'tiqodni, ilmni qadrlashni madaniyat, san'at, maktab va institut ahliga, jamiki yoshlarga singdirgandagina, uchinchi Renessansni qurishga osonroq erishamiz. Negaki, **din qalb bilan ishlaydi, qalbni tarbiyalaydi**, u ta'limda ham, televizionda ham, davlat boshqaruvida ham, islohotlar jarayonida ham inson ruhini, qalbini uyg'otadi va olovlantiradi. Qalbning prizmalari chertilsa, yoshlar ma'nan va ruhan yuksalsa, davlat islohotlari bardavom va samarali kechadi. Dunyo tajribasida ko'rilganidek, fuqaro kecha-yu kunduz mehnat qilsa, vazifasini halol ado etsa-yu, yaxshi hayot kechirmasa, qo'lini siltab, davlatni aldashga o'tadi. Davlatning siyosiy, iqtisodiy va ma'rifiy jabhada boshlagan islohotida xalq bevosita bosh figura bo'lib qoladi. Ha, uchinchi Renessansning bosh ijodkori, ham ijrochisi Inson ekanligidan kelib chiqsak, milliy rivojlanish omillarini G'arb tamoyilidan izlab o'tirmasdan, shaxsning tarbiyasidan boshlashimiz kerak.

Sharq va G'arb chorrahasida joylashgan mintaqamiz ko'p asrlar davomida madaniyatlar, ilmiy g'oyalar, tillar va dinlar muloqoti, o'zaro ta'siriga katta turtki bergan. Biz kichik

badiamizda birinchi va ikkinchi Renessans tarixi ildizlariga murojaat qildik. “Ilmni qadrlang, ilmga intiling! Bir soniya vaqtingiz ham bekor o’tmasin! Yoshlik – umrning eng bebaho davri. Ilm va bilim – o’tda yonmaydigan, suvda cho’kmaydigan, hech kim sizdan tortib ololmaydigan boylik ekanini aslo unutmang”, dedi Yurtboshimiz 2020 yil 25 dekabrda O’zbekiston Yoshlari forumida so’zlagan nutqida. – Barchangiz yaxshi bilasiz, biz bugun o’z oldimizga ulkan marralarni qo’yganmiz. **Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik.** Biz oila, maktabgacha ta’lim, maktab va oliy ta’limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo’lg’usi Renessansning eng muhim bo’g’inlari, deb hisoblaymiz. Shu sababli, ushbu sohalarda tub islohotlarni izchil amalga oshirmoqdamiz”⁷.

Demak, ilmi, irodali, tarbiya ko’rgan yoshlarni milliy taraqqiyot maqsadlariga safarbar eta bilish – bosh maqsadimiz bo’lishi kerak. Xulosa shuki, **inson qalbini anglash, aqliy mehnatga o’rgatish va e’tiqodini tarbiyalash, ya’ni Renessansni ta’minlaydigan tizimni yaratish** birinchi galdagi vazifamizga aylansin!

⁷ https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-ozbekiston-yoshlari-forumida-sozlagan-nutqi_197662. 26.12.2020.

O'ZBEK OLIMLARINING IXTIROLARI TADBIQIGA DOIR⁸



Iqtidorli olimlar tadqiqotining amaliy natijasi ixtirolar, foydali modellarga patent olinishi bilan o'zining yakuniga yetadi. Intellektual mulk (IM) ko'ptarmoqli, ko'p mezonli tushuncha bo'lib, Yevropa va rivojlangan davlatlarda bu sohani boshqarish bir korxonaga va patent egasi doirasida emas, balki iqtisod rivojiga olib keladigan davlat qarorlari va davlat dasturlarini qabul qilish asosida yuritiladi. Jahon ilg'or mamlakatlari ikki asrdirki, patent va biznes hamkorligini yo'lga qo'yib, inson hayoti va turmush tarzini yaxshilashga erishdi.

Quyida ushbu dolzarb sohada bir necha yillar rahbarlik lavozimida ishlagan **Baxtiyor OMONOV**ning IM tizimi buguni va kelajagi haqidagi fikrlari bilan tanishamiz:

“Ixtirolar, texnologiya va tijorat sirlari, kompyuter dasturlari, dizaynerlik ishlanmalari, tovar belgilari – IMning ob'ektlari dunyoda moddiy aktivlardan kam baholanmaydi, balki ayrim hollarda ulardan anchagina yuqori turadi. Umumjahon sanoat ishlab chiqarishining yillik o'sish sur'atlari 2,5-3 foizdan oshmaydi, IMGa bo'lgan huquqlar bilan savdo qilish hajmi esa yiliga 12-14 foizga o'smoqda. Ushbu holat yangi

⁸ <http://uza.uz/oz/society/vazirlik-mutasaddilari-tushunishni-istamayetgan-a-i-at-oliga-04-02-2020>

g'oyalar, kashfiyotlar va ixtirolar nafaqat ularning yaratuvchilariga, balki butun jamiyatga naf keltirayotganini bildiradi.

Davlat tomonidan beriladigan yagona monopoliy huquq, bu – IM ob'ekti egasining undan foydalanish va tasarruf etishga bo'lgan mutlaq huquqi! Mohiyati jihatidan patent – yangilik sirini to'liq ochib berilishi va belgilangan miqdordagi patent boji to'lanishi evaziga davlat tomonidan uning muallifiga ixtiroga bo'lgan huquqlarini muhofaza qilish kafolati beriladigan shartnoma hisoblanadi. Bunda jamiyat yangilik yaratuvchi huquqini qonuniy rasmiylashtirish evaziga ijodiy mahsulidan foydalanish to'la huquqini qo'lga kiritadi. Patent faolligi ko'rsatkichi davlat iqtisodiy qudratining bilvosita ko'rsatkichi ham sanaladi. Rivojlangan davlatlar, jumladan, AQSh, Yevropa ittifoqi (Yel) qariyb ikki asrdiki, ixtirochilar, olimlar va ishlab chiqaruvchilarning o'zaro hamkorligini tizimli yo'lga qo'yishgan. Bunda iqtidorli ixtirochilar bilan davlat o'rtasida ikki tomonlama manfaatli aloqaning mavjudligi kishida o'zaro ishonch va umidni uyg'otadi.

Bizning respublikamizda garchi ancha kech bo'lsa-da, bilim va innovatsiyaga shart-sharoit yaratish sari harakatlar boshlangan. Respublikamizda 2008 yildan beri O'zbekspomarkazda Innovatsion g'oyalar, texnologiyalar ko'rgazmasi o'tkaziladi. Shunisi aniqki, mamlakatda fan bilan ishlab chiqarish uyg'unligi mexanizmi yaxshi ishlamas, boshqa mamlakatlar ilg'or g'oya va texnologiyalariga tobe bo'lib qolish xavfi tug'iladi.

Arziydigan ixtirolar bo'lsa...

Innovatsion iqtisodga o'tib olgan AQSh, Shvesiya, Fransiya, Italiya, Germaniya, Yaponiya, Buyuk Britaniyada bu jarayonga kirishish uzoq davom etganini bilamiz. IM huquqi xalqaro maydonda 1883 yilda imzolangan Parij konvensiyasi hujjati orqali tartibga solindi. Konvensiyaga 140 davlat, jumladan O'zbekiston ham a'zo bo'lib kirdi.

Shuni qayd etish lozimki, innovatsion biznes davlat, investorlar tomonidan qo'llab-quvvatlanib, davlat dasturisiz ham rivojlanishi mumkin. Olimlar, ixtirochilar bilan biznes ahli dunyoqarashi turlicha bo'lgani uchun narx-navolarda, shartnomaviy kelishuvlarda yuzlab vaj-bahonalar vujudga kelishi mumkin. Mabodo arziydigan ixtirolar bo'lsa, unga boshqalardan, hatto chet mamlakatdan ham buyurtmalar kelib tushadi. Ma'lumki, 1976 yillardan boshlab Toshkentdagi **akademik Shavkat Vohidov rahbarligidagi "Koinot" ilmiy-ishlab chiqarish birlashmasining LB-09 nomli Lunani o'rganish apparatiga Rossiya koinot fazogirlari shaharchasidan buyurtmalar berilgan.** Parkentdagi "Fizika-Quyosh" ilmiy-texnologik majmuasi, "Kibernetika" yo "Avtomatika" ilmiy-tadqiqot institutlarining ba'zi ixtirolari va nou-xaulariga chet ellardan xaridorla doimo qiziqish bildirgan.

Mamlakatimiz istiqloлга erishgach, ilmiy va ijodiy faoliyat, jumladan, ixtirochilik faoliyati ancha faollashdi. Bugungi kunga kelib IMA tomonidan 22 mingdan ortiq tovar belgilari, 5 ming ixtiro, 3,5 ming EHM uchun dasturlar va ma'lumotlar bazalari, 2,4 mingta sanoat namunasi, 1000 foydali model davlat ro'yxatidan o'tkazilgan. Ixtirolar haqida gapiradigan bo'lsak, so'nggi yillardagi yirik innovatsiyalardan tiniq suyuq tibbiy-biologik ob'ektlarning rangli tasvirdagi mikroskopik tadqiq qilish usulini ko'rsatib o'tish mumkin. Bu ish uchun FANing Elektronika institutiga patent berilgan. Natijada murakkab va muhim tahlillarni oddiy tibbiy muassasalarda o'tkazish imkoni yuzaga keladi, probalarni olib, ularni bosib chiqarish uchun sanoqli daqiqalar o'tadi.

Sog'liqni saqlash vazirligi Patologik anatomiya respublika markazi rahbari, akademik Malika Abdullaxo'jaeva rahbarligida 2011 yili ixtiroga 20 yilga olingan patentda yozilishicha, agar mikroskop uchun predmet oynasiga saraton hujayralari joylansa, mikroskop okulyarida ular yorishib turgani ko'rinadi. Bu saraton hujayralarining vizual markeri bo'lib qoldi.

Ixtironing qimmatini shundaki, saraton kasalliklarini eng dastlabki bosqichida, shish hali hosil bo'lmay, faqat uni keltirib chiqaradigan hujayralarning o'zi paydo bo'lgandayoq tash-hislash imkoniyati tug'iladi.

O'zbek olimlarining ixtirolari

O'zbek olimlari va muhandislarining eng yaxshi ixtirolari AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Shveysariya, Fransiya, Rossiya, Kanada, Yaponiya, Xitoy, Turkiya va boshqa mamlakatlarda patentlangani bizni mamnun qiladi. Masalan, Ichki ishlar vazirligi Oliy o't o'chirish-texnik maktabi qoshidagi Yong'in xavfsizligi ilmiy-tadqiqot markazining boshlig'i Mirjalil Usmonov 17 davlatda ixtirolarini patentlagan. U ishlab chiqqan yong'inga qarshi ekranlar issiqlik oqimi sur'atini yuz va undan ko'proq martaga susaytiradi. Ushbu ixtironing ahamiyati shundaki, ayrim mamlakatlarda yong'indan ko'rilayotgan zarar va ularga qarshi kurashga ishlatilgan mablag'lar har yili yalpi milliy mahsulotning taxminan bir foizini tashkil qilmoqda.

O'zbekistonda **innovatsiya milliy iqtisodni rivojlantirish uchun suv va havoday zarur**. Taklifimiz shuki, keyingi besh yilda matematika, kimyo, biologiya, farmasevtika, axborot texnologiyasi kabi yo'nalishlarda patent olingan ixtirolar, foydali modellar inventarizatsiyadan o'tkazilishi lozim. Ularning amaliyotda tadbir etilishi aniqlangandan keyin Davlat dasturlariga kiritilib, maqsadli moliyalanishi kerak. Chunki ixtirolarni ishlab chiqarishga joriy etishga olimlarning mablag'i yetmaydi. Bir fakt: vazirlik va kompaniyalar, yirik ishlab chiqaruvchilarning e'tiborini tortish niyatida **2009 yildan** boshlab Davlat patent idorasi (hozirgi Intellektual mulk agentligi – IMA)da **"Istiqbolli ixtirolar" to'plamini chop etishga kirishildi**. O'sha yillarda idoraga rahbarlik qilardim. Agentlik tuzilgunga qadar, 2011 yilgacha 200 dan ziyod ixtirolarning ta'rif va tavsiflarini to'plamimizda e'lon

qilib borganmiz. Ammo IMA tuzilib, men boshqa sohaga o'tib ketganimdan keyin istiqbolli ixtirolarning taqdiridan bexabar qoldim.

Ilm-fan, innovatsiya va ishlab chiqarish tandemida IM imkoniyatiga alohida yondashuv bo'lishi lozim. **IM – asli, bu ko'p sonli yaratuvchilar bilan tovarlar, xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar o'rtasida to'plangan katta mablag'ni adolatli taqsimlash instrumenti.** Turgan gapki, u ikki tomonni, birinchi navbatda davlatni iqtisodiy boy qiladigan mexanizm-dir. Biroq jamiyatda oligarxlar, boy-badavlat kishilar IM rolini rad etishga harakat qiladilar. Bu noto'g'ri yo'l. Yevropada buning aksini ko'ramiz. Sababi, bunday tizim va infratuzilma ishga tushsa, "biznesmen"larning bojxona, soliqchilar ko'zini shamg'alat qilish hisobiga boyishiga, yengil-yelpi yo'l bilan daromad olishiga chek qo'yiladi. **Siyosiy hayot – manfaatlar kurashidan iborat.** Biznesmenlar, korrupsionerlar IM sohasida kutilayotgan islohotlarga, demakki milliy iqtisodning rivojiga turli darajada to'sqinlik qilishga urinadilar. Misol uchun, mamlakatimizda yiliga 10 mlrd. so'mlab daromad oloyotgan CD, DVD diskleri bozori fikrimizning isboti bo'ladi.

IM – bu, yuqori texnologiya va o'ta iqtidorlilar biznesiga kiradigan o'n minglab intellektuallarning fundamental instrumenti dedik. AQSh, Shvesiya, Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Malayziya va boshqa iqtisodi rivojlangan mamlakatlar bu instrumentdan jahon pul oqimini qayta taqsimlash maqsadida foydalanadi. O'zbekistonda Moliya vazirligi, Iqtisodiy rivojlanish va kambag'allikni qisqartirish vazirligi mutasaddilari ana shu haqiqatni tushunishni istashmaydi. Bizningcha, ushbu vazirlik rahbarlari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan birgalikda bozor iqtisodi sharoitida navbatma-navbat bilimlar iqtisodi tizimini barpo etishga doir strategik dasturlarini tayyorlab borishi zarur. Shunday istiqbolli dasturlar ishga tushmasa, vaqt va imkoniyatdan yutqazamiz. Respublikada aniq fanlarda ilmiy mak-

tablar davomchilari hozircha borligi eng muhim yutug'imizdir. Ammo o'n yillardan so'ng yaxshi imkoniyat qo'ldan boy berilishi mumkin.

IM, bu – aqlli biznesmen va yetuk mutaxassislar boyib qoladigan instrument emas, u bozorda raqobatbardosh mahsulot vujudga kelishining bosh omili hamdir. Kimki ilmiy ishlarni aniq, pishiq-puxta o'zlashtirsa, o'shanda ustunlik qoladi. Ilg'or davlatlar biznesmenlari bu oltin qoidani yaxshi bilishadi. Ular IM va ilm-fan taraqqiyotiga suyanmay turib, rivojlanish dasturlarini tuzmaydilar.

Gapning indallosi shuki, biz **birinchidan**, dunyo yurgan iqtisodiy yo'ldan qadam tashlab, ilm-fan, bilim, innovatsiyaga taalluqli mavjud muammolarni aniqlab, uni yechishimiz kerak. **Ikkinchidan**, mamlakatimiz Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishni mo'ljallagan, masala hal etilgudek bo'lsa, yetakchi ishlab chiqarish korxonalarida, iqtisodning xom ashyosiz sektorida murakkab vaziyat yuzaga keladi.

Ahvdan qutulishning yo'li bormi?

Buning yo'li, **birinchidan**, sanoat korxonalari rahbarlari IMni ommaviy rad etish, uni chetlab o'tib ketish psixologiyasidan qutulishi, **ikkinchidan**, IM asosiga qurilgan biznes g'oyalarni joriy etish jarayoni boshidan oxirigacha rag'batlantirib borilishi, **uchinchidan**, "Nomaterial aktivlar hisobi" ro'yxati kengaytirilishi, unga nou-xau – "ishlab chiqarish sirlari" ham kiritilishi, **to'rtinchidan**, yetakchi davlatlar tajribasiga ko'ra, innovatsion loyihalar uchun uzoq muddat jalb etiladigan mablag'larga soliq imtiyozlari berilishi maqsadga muvofiq.

Uzoq yillar mobaynida iqtisodchilar nega ayrim davlatlar boy-badavlat, boshqalari kambag'al ekanligini tahlil qilishga vaqtlarini sarf etishadi. Ilmiy jamoatchilik biladiki, har qanday davlatning iqtisodiy oyoqqa turishida bilimlar va ixtirolar yetakchi rol o'ynaydi. Mashhur iqtisodchi Pol Romerning ta'kidicha, bilimlarni to'plash iqtisodiy o'sishni harakatga

keltiruvchi kuchdir. Uning nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy siyosatda o'sishni osonlashtirmoqchi bo'lsangiz, mamlakat yangi tadqiqotlar va ishlanmalarga investitsiyalarni ko'paytirishi lozim. Buning uchun avvalo, ilg'or mamlakatlar tajribasini maxsus borib o'rganish, ularni qanday qo'llash va yaxshi natijaga erishish mexanizmlarini ishlab chiqish kerak.

Innovatsion yo'lni tanlagan davlatimiz ushbu asoslarga suyanishi lozim: **birinchidan**, intellektual donorlar (olimlar, ixtirochilar, madaniyat va san'at arboblari); **ikkinchidan**, istiqboli g'oyalarni hayotga tatbiq etuvchi moliyachilar (mahsulotni tashqi bozorga sotib, iqtisodga chet el investitsiyasini kiritadigan va kapitalni qaytarishni amalga oshiradigan biznesmenlar); **uchinchidan**, uddaburro menejerlar; **to'rtinchidan**, o'qituvchilar va shifokorlar. O'sha vaziyatda bilimga suyanadigan iqtisodiyot formulasi bunday sxemada joylashadi: **IM asosiga quriladigan ustuvor tarmoqlar – dasturlar – amalga oshirish uchun mablag'lar – natijalar.**

O'zbekiston Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi arafasida davlat boshqaruvi tizimi bilan iqtidorli olimlar, ishlab chiqaruvchilar, tovarlar va xizmat ko'rsatuvchi tizimlar birqator tashkiliy-psixologik chora-tadbirlarni amalga oshirishi, axborot almashib turishini zarur, deb hisoblaymiz. Ha, yaqin yillarda O'zbekistonda ham IMning o'rni, vakolatlari va imkoniyatlari oshib boradi. Vaholanki, kuchli iqtidor va aqliy salohiyatga ega ixtirochilar g'oyalarining ijrosiga keng imkon yaratilsa, mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan yanada taraqqiy qilgan bo'lardi.

Suhbatdosh
Asliddin Suynov (O'ZA)

TOMOSHABINNI O'Z DOMIGA TORTAYOTGAN SERIALLAR⁹

1963 yil 22 noyabrda Dallasda AQShning 35-Prezidenti Jon Kennedi (1917-1963) shafqatsizlarcha o'ldirilganidan keyin, 1970 yillarga kelib, mamlakatda yangi elitaning hukmronligi o'rnatildi. Bu davrda televidenie, san'at, tomoshalar industriyasi, ta'lim tizimi kishilar ongiga g'oyalar, timsollar, qarashlar va qadriyatlarni singdirib, tamoman yangi millatni shakllantirishga intildi. Buning oqibatida millionlab odamlar o'z yurtida o'zini begonadek his eta boshladi. Hayvoniy mayl va gedonistik (hayotning mazmun-mohiyati aysh-ishrat va lazzatlanishdan iborat, deb hisoblaydigan qarashlar tizimi) qadriyatlar kuchayib, qadimiy bayramlar yo'qoldi, ilgari qahramonlar timsoli so'nib, madaniy maydonni kuch, zo'ra-vonlik, behayolikni targ'ib etayotgan super qahramonlar egalladi. Odamlar ajdodlardan meros azaliy ma'naviy qadriyatlar tag tomiri bilan yulib tashlangani; o'sib-ulg'aygan mamlakat nobud bo'layotganini kuzatishsa-da, hech ilojsiz qolishdi. "Nima ham derdik, bugun bu kuy voqelikka aylan-di: kechagi haqiqat bugungi yolg'on bilan o'rin almashdi, deb yozadi Byukenen "G'arbning halokati" asarida. – Ilgari sharm-hayo, uyat deb sanalgan illatlar: zino, abort, evtanza-ziya, suiqasd butun insoniyat erishgan yutuq sifatida baholanmoqda. Bir vaqtlar Nitshe qadriyatlarining qadrsizlanishi haqida fikr yuritgan edik, darhaqiqat, ilgari fazilatlar bugun gunoh, gunohlar esa fazilatga aylanmoqda"¹⁰.

⁹ <https://uza.uz/oz/world/kechagi-a-i-at-bugungi-yel-on-domiga-tortayotgan-seriallar-t-15-05-2020>

¹⁰ Patrik Jozef Byukenen. G'arbning halokati: o'limga mahkum millat. Ruschadan B.Zokir tarj., Jahon adabiyoti jurn., 2007, 1-son. – B. 14-16.

Bir so'z bilan aytganda, Kipling tasvirlagan "bozor hukmdorlari" jinsiy mayl, shuhrat, boylik, hokimiyat bilan yangi Amerikaning yangi hukmdorlariga aylandi. Naqadar ayan-chli holat, shunday emasmi? Bu voqealar boshlanganiga yarim asrdan oshdi. Globallashuv yopirilib kelayotgan ayni kunlarda Sharq mamlakatlarida, xususan, O'zbekistonda ham ma'naviy yo'qotishlar bo'lmasligiga kim kafolat beradi? Xorijning kinoseriallar industriyasi magiyasi televidenie ulkan auditoriyasini asta-sekin o'z domiga tortayotgani sir emas-ku?!

Endi Yevropadagi demografik vaziyatga nazar tashlaylik. Hozirgi vaqtda Yer o'n yetti davlati: Belgiya, Bolgariya, Vengriya, Germaniya, Daniya, Ispaniya, Italiya, Latviya, Litva, Portugaliya, Rossiya, Ruminiya, Slovakiya, Sloveniya, Xorvatiya, Chexiya, Estoniyada o'lim ko'rsatkichi tug'ilishga qaraganda, ancha yuqorilab ketibdi. Nimaga bunday ahvol yuz bermoqda? Turmush tarzi, qolaversa, turli reklama, targ'ibot usullari shu darajaga borib yetdiki, G'arb aholisi, ayniqsa, yoshlar o'zidan zurriyod qoldirish, avlodni davom ettirishni emas, balki yengil-yelpi, erkin yashashni istashmoqda.

Bizga ma'lumki, 2000 yilda Yer aholisi 728 million kishini tashkil etgan. BMT demografiya bo'limining "Dunyo aholisi istiqbollari: 2000 yildagi vaziyat" ma'ruzasida aytilishicha, immigratsiyani hisobga olmaganda tug'ilish holati hozirgi darajasi saqlansa, 2050 yilga borib aholi soni 128 millionga kamayib, 600 million kishiga yetadi. Aholining so'nggi marta bunchalik kamayishi umumiy **aholining uchdan bir qismi qirilgan 1347-1352 yildagi "Qora o'lat" epidemiyasi vaqtida kuzatilgan.** Tug'ilish o'rtacha darajasi 1,4 gacha tushdi, vaholanki, aholining hozirgi sonini saqlab qolish uchun u kamida 2,1 koeffitsientga teng bo'lishi darkor.

Olimlar bunday ayan-chli demografik vaziyat vujudga kelishining sabablarini topishga qiziqishmoqda. Bizningcha, buning boisi quyidagilar: a) "jozibali" sotsializm g'oyasiga


o'xshash barcha yumushni davlat o'z zimmasiga oladigan sharoit yaratildi; b) har bir odamga davlat nafaqasi kafolatlanganidan qariyalarga suyanch bo'lgulik farzandga hojat qolmadi; v) yaxshi daromad topadigan ayollarning o'zini iqtisodiy erkin his qilishi ularni turmush qurishga chorlamadi. Buning natijasida Yevropada **1980 yillardan oila instituti yemirila boshladi**, bu esa ma'naviy tanazzulga yetakladi. Germaniyada tug'ilish darajasi 1,3 koeffitsientga tushdi, aholi uchdan bir qismini esa 65 yoshdagilar tashkil etadi. Rim imperiyasini, ya'ni buyuk Rimni, Avliyo Pyotr ibodatxonasini bunyod etgan, Dante va Mikelanjelo, Kolumb va Galileyni voyaga yetkazgan Italiyada bir ayolga o'rtacha 1,2 ta bola to'g'ri kelmoqda. Fransisko Franko (1892-1975) hukmronligi davrida ko'p bolali oilalari bilan o'rnak bo'lgan Ispaniya bugungi kunda tug'ilish darajasi bo'yicha qit'ada eng quyi pog'onani egallab turibdi. Xo'sh, oldin nega vaziyat yaxshi bo'lgan? Ko'p bolalik ildizini ispanlar ikki asr arablar istilosi ostida yashagan zamonlardan izlash lozim. Nimaga yer yuzidan qirilib ketishini qandaydir tushunib bo'lmas itoatkorlik bilan tan olishgacha borgan yevropalik ayollar bola tug'ishdan voz kechmoqda? Bizning tahlilimizcha, javobimiz quyidagicha: **birinchidan**, kontrasepsiya usuli qo'llanilishi G'arb aholisining ikki barobar kamayishiga olib keldi, **ikkinchidan**, abortlar kutilmagan bolalarga qarshi o'ziga xos "ikkinchi himoya chegarasi" bo'ldi, **uchinchidan**, abortdan vahshyroq usul – homiladorlikka qarshi preparat kashf etildi. Tarixchilar uni "**Amerikani halokat yoqasiga olib kelgan og'u**", deb baholadi. Ushbu preparat 1960 yilda sotuvga chiqarildi, Amerika ayollarining 6 foizi 1963 yilda doktor Rok kashf etgan doridan foydalandi. ammo 1970 yilda bu miqdor 43 foizga, 2000 yilda 60 foizga yetdi. Albatta. katolik cherkovi dorining qo'llanilishiga qarshi chiqdi, papa Pavel VI ning maxsus fatvosi bilan tug'ishni sun'iy ravishda to'xtatish orqali nazorat qilish, homiladorlikka qarshi dorilarni qo'llash katta gunoh ekani yozildi. Biroq

afsuslar bo'lsinkim, **sudya** Blekman ayollarning abort qilish huquqi mamlakat Konstitutsiyasida kafolatlanganini 1973 yilgi sud jarayonida isbotladi. O'sha mash'um sud qaroridan keyin hozirgi kungacha AQShda hammasi bo'lib 45 million ayol bolasini abort qilib olib tashladi?! Naqadar dahshatli qadam... Hozirgi vaqtda G'arb mamlakatlari ayollarining 35 foizi abortni tanlagan.

Bizningcha, AQSh va Yevropada oila instituti nurab borishida inson va din o'rtasidagi munosabatlar susaygani, shubhasiz, rol o'ynadi. Inson o'zini o'zi anglashida, ma'naviyatli va ma'rifatli bo'lishida dinning o'rni beqiyos. **Yevropaliklarning dindan begonalashishi barcha kulfatlarining boshi bo'ldi**, deyishga asoslarimiz bor. Amerika jamoatchilik fikri instituti (Gallup)ning 2009 yilda 114 ta mamlakatda o'tkazgan natijalariga ko'ra, "Din sizning kundalik hayotingizda muhim o'rin tutadimi?" degan savolga musulmon davlatlarining ko'pchiligi "ha", deb javob bersa, Yevropada ko'rsatkich boryo'g'i 25 foizga yetdi. Demak, **70-75 foiz g'arb aholisi dinga umuman ishonmaydi, e'tiqod qilmaydi, oilani muqaddas, deb bilmaydi**. Muqaddas islom dinimizning qoidalariga binonan, dinga chinakamiga e'tiqod qiluvchi mo'min kishilar har qanday og'ir, mashaqqatli sinovlarga bardosh beradi, zuriyodini davom ettiradi, bolani tarbiyalashni ota-onalik burchi, insoniylik vazifasi, deb biladi.

Axborot texnologiya va murakkab globallashuv sharoitida oila institutini omon saqlash – millatimizning hayot-mamoti, qismati masalasiga aylanishini juda istaymiz. Mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yuqori darajaga olib chiqish maqsadida 2020 yilning fevralida Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tashkil etilgani bejiz emas. Mahallabay tizimi ishga tushgani, davlat va nodavlat tashkilotlarining shu tizimga bo'ysundirilishi tarbiyaviy ishlarimizni yangi bosqichga ko'tarish darkor.

GLOBALLASHUV DAVRIDA SHAXSNING MAYDALASHUVI¹



Komillikka erishgan shaxs ko'p narsaga qodir, u buyuk islohotchi, o'zgartiruvchi, hatto davrni ortidan ergashtiruvchi iqtidorga ega. Millatning bilim, ma'rifat dargohlarini kuchaytirish tufayli ushbu maqsadga erishiladi. Ammo shuni qayd etish lozimki, so'nggi o'ttiz yilda ta'lim tizimimiz ko'p marta isloh bo'ldi. Tumanlarda zamonaviy kollejlari qurilgan bo'lsa-da, bolalarimizni kasb-hunarga o'rgata olmadik. Internet, avtomat o'yinlar barini o'z izmiga bo'ysundirdi. Bugungi murakkab globallashuv davriga yetib kelgach, jamiyatda shaxsning yiriklashishi emas, balki maydalashishi jarayoni kuchaymoqda. Shu kabi masalalar bo'yicha **siyosiy fanlar doktori Baxtiyor Omonovning fikrlariga qiziqdik.**

-Globallashuv va millat taqdiri uchun tinimsiz kurash kechayotgan davrda o'zbek o'quvchisi, talabasi, qo'ying-ki, fuqarolar nimaga suyanishi kerak, deb o'ylaysiz?

¹<http://uza.uz/oz/society/globallashuv-davrida-zhamiyatda-shaxsning-yiriklashishi-ema-31-07-2020>

–Ilmga! Idrokli bo'lishga. Ilmli odam aslo xor bo'lmaydi. Bilimsizlik barcha yomonliklarning manbai, chunki bilimsiz inson o'ziga eng katta yomonlikni ravo ko'rgan bo'ladi. Johil kishining tik tura olmaydigan qopdan farqi yo'q. Sa'diy Sheroziy bilimsizlikni urush dovuliga o'xshatadi, ovozi baland, ichi bo'sh odamga!

–Shaxs tarbiyasida oila institutining o'rni haqida to'xtalsangiz...

–Globallashuvda asosiy og'irlik oilaning zimmasiga tushadi. Sababi, internet, televidenie bilan mashg'ul bo'lish, axborot olish ishdan keyin uyda jadal davom etadi. **Serial va internet qarshisida ota-onaning ojiz bo'lib qolishi fojia-ning boshi.** Ota-ona farzandlari bilan jonli muloqot, do'stona suhbat qurish o'rniga, kechalari televizordagi turk seriallaridan boshini ko'tarmasa, bunga nima deysiz?! Axir, turk, xitoy, koreys mafkurasi allaqachon yurtimizga balo-qazoday kirib keldi-ku. Yuz yillik mustamlakachilik siyosati kezgan davr haqida-ku gapirmasa ham bo'ladi, musulmonchilik an'analari qariyb yo'qolib, ateist, dinsiz, iymonsiz ikki avlod yetishganiga hammamiz guvohmiz.

Oila – jamiyat asosi, millatimiz qo'rg'oni. Oilada ota-ona ko'magida did, farosat, aql, mushohada, fikrlash tarzi shakllanadi. Ammo hozirgi kunda globallashuv, ommaviy madaniyat, boringki, g'arbona shakl-shamoyilda yashashga moslashish, g'arbona fikrlash urfga aylanib bormoqda. Milliy urf-odat, an'ana, qadriyatlar (bayram, to'y, ta'ziya, mehmondorchilik, oqibat ko'rsatish, keksalarning holidan xabar olish va boshqalar)ni bilmagan, bu qoidalarni pisand qilmagan ovrupocha yigit va qizlar hayotda yengil yo'llarni tanlab, o'z muddasiga tezroq erishish, "Green Card"ni yutib, Amriqoda yashashni orzu qilishmoqda.

Jadid bobomiz **Abdulla Avloniy** "Kim nimani yaxshi ko'rar?" nomli badiasida bundan yuz yil muqaddam jamiyatdagi holatni xolis baholagan: "Ehtimol, bizning xalq

ilmu ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rar, deb o'ylaydurg'ondursiz? Yo'q, bu fikringiz yanglish", deydi alloma. –Do'kondorlarimiz ishlarini tartibga solmay, zamonaga muvofiq ish yuritmay, Mallaxon zamonidan qolg'on eski do'kon, eski tos, eski tartiblarini yaxshi ko'rurlar. Onalarimiz bilim va tarbiya o'rniga erlari ila urushub-talashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar. Otalarimiz bolalarini o'qutmak va ta'lim bermak o'rniga "o'g'lim, emdi kattakon yigit bo'lding, shuncha o'quganing yetar, pul top!", deb "tashishka" – hammollik qildirishni yaxshi ko'rurlar. Yoshlarimiz ilm va ma'rifatli bo'lishni, hunar, san'at o'rgonishni o'rniga o'zlariga zeb berub tor shim ila kalta kamzul, qotirma yoqalarga bino qo'yishni yaxshi ko'rurlar"¹². Qizig'i shuki, o'sha zamonlardayoq, ozgina chala-savodligimiz tufayli, maydalashish jarayoni boshlangan!

Fursat g'animatni bilgan ovropoliklar bilim, tenglik, ma'rifatparvarlikni yoqlab va unga amal qilib, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy, Termiziy, Samarqandiy, Nasafiy singari allomalari bisyor bo'lgan Sharq xalqlarini g'aflatda qoldirgan holda, taraqqiyotda ildamlab ketdilar.

Yaqinda bir tahliliy maqola qo'limga tushib qoldi. Qisqa va aniq ifoda usuli, yozilgan ochiq gaplarni o'qib: "Biz o'zimizga ko'p ishonib yurgan ekanmiz-da", degan xulosaga keldim. Siz biror marta savol berib ko'rdingizmi, musulmonlar nima uchun taraqqiyotdan orqada qolib ketdi? **Muammo ta'limda ekan.** Xalqaro Islom Hamkorlik tashkilotiga a'zo bo'lgan 57 ta davlatda jami 500 ta universitet mavjud bo'lib, uch million musulmonga bitta universitet to'g'ri kelar ekan. Amerika Qo'shma Shtatlarining o'zida 5578 ta universitet ishlaydi va 57,0 ming amerikalikka bitta universitet to'g'ri keladi. Bunchalik ojiz bo'lib qolganimiz sababi shuki, **biz bilim ishlab chiqara olmayapmiz, musulmon ilm dunyosini yarata**

¹² <http://ziyouz.uz/jadid/adabiyoti/> A. Avloniy. Kim nimani yaxshi ko'rar? 26.05.2021.

olmayapmiz¹³. Aholining asosiy qismi musulmon bo'lgan davlatlarda 230 nafar olim (bir millionga nisbatan), AQShda 4000, Yaponiyada 5000 olim yashaydi. Butun arab dunyosida bir million arabga 50 texnik-muhandis, xristian mamlakatlarida 1000 muhandis to'g'ri keladi. G'arb davlatlari yalpi ichki mahsulotning 5 foizini, musulmon dunyosi 0,2 foizini ilm-fanga sarflaydi. Buyuk Britaniyada bir million kishiga yiliga 2000 ta yangi kitob, Misrda esa bor-yo'g'i 20 ta kitob chop etiladi. O'rtadagi farq mamlakat aholisining madaniy va siyosiy darajasini aniq-tiniq ko'rsatib turibdi, azizlar.

Har bir mamlakatda ilm-fan rivojlanganligini eksport qiladigan yuqori texnologiya mahsulotlari miqdoridan bilib olsa bo'ladi. Misol uchun, Pokiston bir yillik eksport tovarlarining faqat 1 foizi yuqori texnologiyada ishlab chiqarilsa, Singapurda ushbu ko'rsatkich 58 foizga teng. Bulardan achchiq xulosa shuki, biz ilm-fanni amaliyotda qo'llay olmayapmiz.

Fikrimizni yakuniy qismiga kelsak, Islom Hamkorlik tashkiloti 57 a'zo davlatining bir yillik yalpi ichki mahsuloti 3 trillion dollarga bormagani holda, AQShda bir yillik YaIM 18 trillion, Xitoyda 16 trillion, Yaponiyada 4,2 trillion, Germaniyada 3.4 trillion dollarga teng mahsulot ishlab chiqariladi. Biz jami 57 musulmon davlatlar hatto Germaniyaning YaIMini ishlab chiqarolmas ekanmiz. Neftga boy arablarning uchta boy mamlakati – Saudiya Arabistoni (643 mlrd), Qatar (200 mlrd), BAA (359 mlrd)ning birgalikdagi umumiy yalpi ichki mahsuloti hajmi (neftni ham hisobga olganda) 1 trillion 200 milliard dollarga teng ekan. Demak, jahondagi umumiy mahsulot hajmiga nisbatan musulmon dunyosi juda kam mahsulot ishlab chiqarishi tagida ilm-fanning qoloqligi masalasi yo'tibdi. Yuqoridagi axborot Islomobodagi ilmiy tadqiqot markazi professori, doktor Farrux Salim sharhida keltirilgan¹⁴.

Bunday rad etib bo'lmaydigan dalillar har bir o'zbekni ham

¹³ http://kun.uz/kashfiyot.blogspot.com/2017/03/blog-post_22.html

¹⁴ O'sha manba

o'ylar to'ldiradi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2020 yilni "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili", deb bejiz nomlamadi. Buyuk kelajakning mustahkam poydevori faqat ilm, ta'lim orqali quriladi. 2021 yilning 31 yanvar kuni olimlar va yosh tadqiqotchilar bilan uchrashuvda Yurtboshimiz iste'dodli olimlarga xohlagan mablag', grantlarni berishga tayyor ekanligini bildirdi. Bunday imkoniyatni olimlarimiz ellik yildan beri kutardi. O'tgan yillarda qancha ilmiy maktablar yopildi, endi ularni tiklash vaqti yetib kelgandi. Ammo nazarimda, jamiyatning eng katta boyligi bo'lgan inson g'ururini tiklash, madaniy va siyosiy saviyasini ko'tarish, deb o'ylaymiz. **Buning uchun maktabda, oliy o'quv yurtlarida ijtimoiy fanlarning nufuzi va o'rnini ancha ko'tarish vaqti keldi.**

Ilmni maktabdan olmoq ham farz, ham qarzdur. Yurtboshimiz so'nggi yillarda ta'lim va tarbiya tizimida ulkan o'zgarishlarni amalga oshirmoqda. Chunki maktab – ma'rifat va ma'naviyat o'chog'i!

–Ta'limning jahon tajribasini o'rganish, zarurat tug'ilsa, eng ilg'or jihatlarini o'zlashtirish zarur. Nima dedingiz?

–Jadid ma'rifatparvarlari bundan yuz yil oldin yoshlarni o'qitishni Germaniyadan boshlagani sababi shuki, nemislar barchaga o'rnak, andoza bo'lishga arziydigan tartibotni o'rnatgan millat. Deylik, Germaniya uzoq asrlik ilmiy maktablari, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Eynshteyn, Gumboldt singari olim va ijodkorlari bilan tilga tushgan. Xalqaro maydonida e'tirof etilgan nemis ta'lim dargohlarida mustaqil fikrlash, keng dunyoqarashni shakllantirishga ko'proq e'tibor beriladi. Bolalarda nemislarga xos temir intizom, birso'zlilik xislatlari ham ta'lim dargohlarida shakllantiriladi. Bizga ma'lumki, Germaniyada maktabgacha ta'lim muassasalari davlat tizimiga kirmaydi – fuqarolar millatni tarbiyalash masalasini o'z zimmasiga olgan. Bolalar bog'chasi xayriya jamg'armalari,

mahalliy hokimiyat hamda cherkov vasiyligida faoliyat yuritadi. Korxonalar va tashkilotlarda ham o'zining bog'chasi bor. Shu bois, **nemislar bog'chalarni "tafakkur ustaxonasi" deb atashadi.**

O'zbek jamiyatini ilm-ma'rifat va tadbirkorlikni qanday qilib uyg'un holda olib borsa bo'ladi, degan savol mudom qiynaydi. Afsuski, bu borada bir-birini to'ldiradigan izchil tizim shakllanmagan (Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur, Malayziya va boshqalarda tizim mavjud – B.O.). Tadbirkorlarda ma'naviyat, ma'rifatchilarda biznes uquvi yetishmaydi. Xalq ta'limi vaziri Sherzod Shermatov: "Bolalarni pul topish madaniyatini o'rgatishdan hayiqmaslik kerak. Puldan qochib, kambag'allashib, o'z g'oya va fikrlarini amalga oshirishga qiynalmoqdamiz. Endi zamonga qarab pulning ham moddiylik, ham bozor iqtisodida qadriyat ekanligini maktab o'quvchilariga to'g'ri tushuntiraylik", degan fikrlarni o'rta tashladi. Vazirning bu chiqishida masalaga yangicha qarashni va yondashuvni ko'ramiz. Mashhur kishilar bu borada ajoyib fikrlarni aytishgan. Amerikalik mashhur investor Uorren Baffet biznes maktabining talabalari bilan uchrashganda, shunday hayotiy maslahatlarni beradi: "O'zingizga sarmoya qiling, o'z iste'dodingizni rivojlantiring va kuchsiz tomonlaringiz ustida ishleng. Avvalo, o'z ishtiyoqingizni aniqlang, o'z prinsipingizga to'g'ri keladigan sohani tanlang. Unda pul uchun ishlamang. Faxrlanish hissini uyg'otadigan insonlar bilan ishleng". Demak, bu ham o'zbek bolasi intiladigan bir yo'l, uslubdir.

–Ayting-chi, bu jarayonni kim shakllantiradi? Shaxsning ichki quvvati (detonatori)ni kim ishga solib yuboradi?

–O'qituvchi, tarbiyachi! O'qituvchi o'quvchining barcha qiziqishlarini, undagi salohiyatni ko'ra bilishi va rivojlanishi uchun bor kuchini ayamassligi darkor. Buni shunday bajarishi lozimki, toki bola o'qishni istab, buni eplay olsin. O'qituvchi, albatta, o'ta sezgir bo'lishi, har bir bolaning o'ziga xos xislati-

ni tushunishi va individual yondashishi kerak. Muallimning vazifasi – bilim bilan to'ldirish, ammo o'quvchilarini individuallikdan mahrum etmaslik va shaxsiy fikrga ega bo'lishini cheklamaslikdir.

Dunyodagi noyob kasb egalari shu haqida yaxshi fikrlarni bildirishgan. "Men hech qachon o'z o'quvchilarimni o'qitmayman, bor-yo'g'i ular o'qib-o'rganishi uchun sharoitni ta'minlashga harakat qilaman" (Albert Eynshteyn, fizik, Nobel mukofoti sovrindori). "Biz bilim bolani quvib yurishini emas, bola bilim ortidan yugurayotganini ko'rishni istaymiz" (Bernard Shou, dramaturg, faylasuf, Nobel mukofoti sovrindori) ¹⁵.

Men o'n yildan buyon universitetda dars beraman. Bu dunyodagi mashaqqatli va sharaflı kasblardan biri. Hamma yaxshi biladiki, darsni qiziqarli o'tish – san'at! Pedagog buni bajara olishga majbur. O'quvchi, talabani mavzuga qiziqitirmay turib, unga biror narsani o'rgatib bo'lmaydi. O'qituvchi zimmasidagi murakkab vazifalardan biri bilimni miyaga cheksiz oqimdek quyish emas, balki bilimga intilish hissini uyg'otishdir. Qadimgi yunon faylasufi Suqrot (mil. av. 469-399 y): "Men hech kimga hech narsa o'rgata olmayman, bor-yo'g'i ularni o'ylashga majbur qila olaman"¹⁶, deganida haq edi. Bolani yodlashga majbur qilish o'rniga unga tushunishda yordam berish kerak. Fanga ongli ravishda yondashuv yodlashdan samaraliroq, chunki bola o'ylaydi, muammoni tushunib yetadi, anglaydi va bilimni amaliyotda qo'llay oladi. **"O'rtacha o'qituvchi hikoya qiladi. Yaxshi o'qituvchi tushuntiradi. A'lo darajadagi o'qituvchi ilhom beradi"** (Uilyam Artur Uord, amerikalik yozuvchi). Juda topib aytilgan fikr. "O'qituvchi bo'lish, bu – taqdir",- deb bejiz aytishmagan. Agar o'zing ishing bilan "yonmasang", boshqalarga ilhom, ruh va orzular

¹⁵ <http://xabardor.uz/articles/mashxurlar> Mashhurlarning yaxshi o'qituvchi bo'lishga yordam beradigan dono fikrlari 24.10.2018.

¹⁶ Haqiqat manzaralari. 99 mumtoz faylasuf. Tarjimon: S.Jo'raeva. –T.: Yangi asr avlodi, 2002. –B. 38.

sari uchishga qanot berolmaysan. Bir yapon hikmatida yozilganidek: "Buyuk o'qituvchi bilan o'tkazilgan bir kun ming kun davomidagi mashaqqatli darslardan yaxshiroq!"¹⁷.

-Millatning suyangan kishilari davlat rahbari va siyosiy yetakchilari hisoblanadi. Siz siyosiy yetakchi va jamiyatni modernizatsiyalash borasida bir qator kitoblarni yozgansiz. Shu o'rinda, shaxs, millat tarbiyasida yetakchining tutgan o'rniga ham to'xtalsangiz...

-Bu o'ta muhim, dolzarb, ham abadiy mavzu. Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur yurtini o'zining ortidan ergash-tiruvchi, yetaklovchi mard, jasur, bilimdon kishilar bo'lishgan. Aslida yoshligida hamma qatori ular ham oddiy hayot kechirgan. Ammo kutilmagan tarixiy vaziyat tufayli siyosat maydonga chiqdilar va butun vaziyatni qo'lga olib, mamlakatni boshqardilar. G'arbda Ronald Reygan, Sharl de Goll, Gelmut Koll, Vastlav Gavel, Margaret Tetcher, Sharqda Kamol Otaturk, Moxandas Gandi, Den Syaopin, Maxatxir Muhammad singari siyosiy yetakchilar milliy rivojlanishni belgilagan strategik dastur, g'oyalarni ilgari surib, mamlakatini olg'a boshladilar. Ularning har biri amalga oshirgan buyuk islohotlar haqida uzoq gapirish mumkin.

Bir jonli misol: temir irodali bu ayol o'n yil davomida jahondagi eng mashhur rahbar ayolga aylandi. Buyuk Britaniya bosh vaziri Margaret Tetcherning minbardagi nutqlaridan birida shunday otashin so'zlar yangradi¹⁸: **"Men boshqaruvga bitta aniq o'ylab chiqilgan maqsad bilan kirishdim: ingliz jamiyatini to'liq davlat qaramog'idagi boqimandalik holatidan o'z kelajagiga to'liq ishongan tadbirkor holatigacha; "o'tiramiz" - va - "kutamiz" Angliyasi o'rniga "uyg'on" - va - "yur" Angliyasi o'rnatilishi uchun an'ana-**

¹⁷ <http://xabardor.uz/articles/mashxurlar> Mashhurlarning yaxshi o'qituvchi bo'lishga yordam beradigan dono fikrlari 24.10.2018.

¹⁸ Ergashev Sh., Bobomatov T. XX asr: taqdirlarda aks etgan tarix. -T.: O'zbekiston, 2015. - B. 392.

viy "marhamat qilib menga bering"dan "hammasini o'zimiz qilamiz" millatigacha o'zgartirish!"

Qo'yilgan ulug' vazifalarni tasavvur qilyapsizmi?! O'zbekistonda tarixiy burilish pallasida davlatimiz rahbari ham millatimizning yuksalishi, uygonishi va o'z "men"ini namoyon qilishi uchun to'g'ri, oqilona yo'lni tanlab, ulkan vazifalarni qo'ygani ibratga molik ishdir.

Suhbatdosh **Asliddin Suynov (O'ZA)**

MILLAT VA KORRUPSIYA¹⁹

Korrupsiya bir necha ming yillik tarixga ega. Yozma manbalarda korrupsiya haqida eramizdan avvalgi Shumer podsholigi davrida eslatib o'tilgan. Korrupsiyaning shu kunlargacha yetib kelganligi shundan dalolatki, uni ham boshqa illatlarga o'xshab tag-tugi bilan yo'qotib bo'lmaydi. Hatto rivojlangan G'arb davlatlari ham bu kasallikdan butunlay xalos bo'lolmagan. Biroq jamiyat rivojiga xavf soluvchi korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish Yer yuzidagi barcha davlatlarda hamisha va hamma zamonda davom etgan.

Qur'oni karimda poraxo'rlik taqiqlanadi: "Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo'l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun uni hokimlarga gunohkorona tashlamang...(Imom Qurtubiy deganlarki: "Oyatdagi "botil yo'l bilan yemaslik"ka haromning barcha turlari kiradi. Qimor, aldamchilik, harom narsalarni sotib mol topishlik, harom kasblarni qilib mol topishlik va boshqalar")²⁰. Lekin shunga qaramay, poraxo'rlik Usmoniylar xalifaligida ham mavjud bo'lgan. Avvaliga xalifa turli idoralar faoliyatini shaxsan o'zi nazorat qilgan, lekin vaqt o'tishi bilan bu ishni o'ziga yaqin odam – xalifaning turli ishlar bo'yicha shaxsiy yordamchisi bo'lgan vazirga topshirib qo'ygan. Vaqt o'tishi bilan vazirlar keng tarmoqli davlat apparatini shakllantirgan. X asrning o'rtalariga kelib, u yoki bu lavozimga tayinlanish uchun amaldorlar tomonidan vazirlarga pora berish amaliyoti shakllana boshladi.

¹⁹ <https://xs.uz/uzkr/post/korrupsiya-va-millij-taraqqiyot-muammo-va-echim> Xalq so'zi, 07.08.2020.

²⁰ <https://www.islamonline.uz/index.php/msmy/93-baqara>.

Bundan xalifa Muqtadirning vaziri bo'lgan Ubaydulloh Hoqoniy (926 yil vafot etgan) amaldorlarni turli lavozimlarga tayinlash va olib tashlashda faol foydalandi. Pulga qattiq muhtojlik sezayotgan davlat soliqlar to'plashni xususiy shaxslarga topshirgani bois, bu turli suiiste'molliklarni yuzaga keltirdi. Shu tariqa poraxo'rlik xalifalik tanazzulga yuz tutishining sabablaridan biriga aylandi.

Bu holat Usmoniylar saltanatida istisno bo'lmagan. Xususan, dehqonlardan turli soliqlarni to'plashda harbiy xizmatchilar qing'irliklar sodir etardi. Hatto bunday suiiste'mollik holatlarini Usmoniylar saltanati shayxulislomi chiqargan maxsus fatvolar ham bartaraf qila olmadi. Sipohilar nimadir "uzatish" evaziga asta-sekinlik bilan harbiy yurishlarga bormay qo'yдилar, o'zlariga taqdim etilgan yerlarda muqim qolib, amalda davlat mulkini shaxsiy mulk qilib oldilar. Davlat esa, o'z navbatida, vazirlar timsolida ko'ngilsiz reaksiyadan xavfsiragan holda, harbiylar bilan to'qnashuvga borishdan hadiksiradi.

Usmoniylar saltanatida poraxo'rlik oqibati shu darajaga yetdiki, qo'shinlar harbiy tayyorgarligini yo'qotdi, natijada XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida qator mag'lubiyatlarga uchrab, davlatning qudratiga putur yetkazishdi.

Xullas, qadim zamonlardayoq ushbu illatga qarshi qattiq jazolar belgilanganiga qaramasdan, bu hamisha ham ko'ngildagidek natija bermagan.

Mohiyati

Alloma Abu Nasr Forobiy "Fozil odamlar shahri" asarida fuqarolik jamiyatini qurishda to'g'anoq bo'ladigan muam-molardan biri tamagirlikdir, deb qayd etadi. Bugungi kunga kelib, eng yuqori o'sish nuqtasiga yetgan korrupsiya bozor iqtisodiyoti tizimi kushandasi, davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlik, biznes hamda investitsiyalar rivojida shafqatsiz to'siq bo'lmoqda. Har yili o'nlab qo'shma korxonalarining ochili-

shi va "sun'iy" ravishda yopilishi zamirida kuchli "ko'rinmas qo'llar" yotibdi. Korrupsiya darajasi yuqorilashgan davlatlarga chet el investitsiyasini kiritish kamayib borayotgani asl sabablarini ham shu xavfli illatdan qidirgan ma'qul.

Oldin G'arbda, keyin Osiyo davlatlarida korrupsiya chuqurlashib, "kasallik" hududi, ko'lami va darajasi jamiyatda kuchayib borayotgan pallada: "Nima qilmoq kerak", degan savol paydo bo'ladi. Nima choralar ko'rilsa, dunyo iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy tizimlarini egallab, milliy iqtisodiyotga to'g'anoq bo'layotgan balo-qazoning ta'sir doirasi kamayadi? Avvalo, keng qamrovli tushuncha bo'lgan korrupsiya jamiyatning ayrim qatlamlari, toifalari, guruhlarining kundalik mashg'ulotiga aylanib, o'zaro bog'lanib, chirmashib ketganligi dahshatli hodisa! "Nozikroq", "chigalroq", murakkab ushbu masalada davlatning huquq-tartibot idoralari hushyor, ziyrak bo'lishi, nodavlat tashkilotlari, jamoatchilik nazorati, maxsus komissiyalar, jurnalistlar, mustaqil sudlar tizimi yanada faolroq ishlashi haqida olimlar ko'p yillardan beri yozib kelishadi. Siyosatchilar, sotsiologlar, psixologlar, tarixchilar, davlat hamda jamoat organlari, siyosiy partiyalar, eng muhimi, amaliyotchilar masalani tahlil etish va yechimini topish ustida bosh qotirishmoqda. Ammo natijaga kelganda...

Keyingi yillarda xorij, jumladan, MDH mamlakatlari matbuotida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llari haqida tahliliy maqolalar paydo bo'la boshladi. MDHga a'zo mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar tahlili shundan dalolat beradiki, biz sho'rolar tuzumidan qutulganimizga o'ttiz yil bo'lganiga qaramasdan, sud-huquq organlari hamon davlat hokimiyatining itoatkor organiga aylanganicha qolmoqda. Jamiyat taraqqiyoti kushandasi haqida davlatimiz rahbari har bir chiqishida ta'kidlaydi. Viloyatlar sessiyalarida tashkiliy masala ko'rilganda, birinchi navbatda, mazkur muammoga ro'baro' kelamiz.

Poraxo'rlik va korrupsiya o'zbek jamiyatining rivojlanishi-

ga, xususan, demokratik yangilanish hamda modernizatsiyalash jarayoniga xalaqit bermoqda. Garchi bu masala minbarlarda va televideniya bot-bot takrorlanib, "qo'lga tushgan" amaldorlar namoyish etilayotgan bo'lsa-da, sud, prokuratura xodimlari, davlat idorasi rahbarlari, oddiy fuqarolarning qon-qoniga singib ketgan feodalizm sarqitlari, tamagirlik, byurokratiya muammoni kamaytirishga imkon bermayapti.

Korrupsiya jamiyatda **birinchidan**, adolatsizlik, tengsizlik va aholining noroziligiga olib keladi, bu esa barcha sohadagi islohotlarning natijasiga salbiy ta'sir etmay qolmaydi; **ikkinchidan**, fuqarolarimizda huquqiy ong hamda huquqiy madaniyatning yetarli darajada emasligi, o'z haq-huquqini himoya qila olmasligi adolat mezonining buzilishini ko'paytiradi; **uchinchidan**, siyosiy institutlar, jamoat tashkilotlari shaklan demokratik mezon, G'arb andozasiga o'xshasa-da, mazmun-mohiyatiga ko'ra, zamon talabidan orqada qolayotganligi olg'a siljishimizga katta to'siq bo'ladi.

Bizningcha, bu borada bitta tashkilot – adliya organlari roli kuchayishi, imtiyozlari oshib borishi kerak. Yangi tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi ham Adliya vazirligi bilan birgalikda qonun ustuvorligini to'liq ta'minlashga xizmat qilish– davrning talabidir.

Holati

Davlat va jamiyatda inson ongi, dunyoqarashi shakllanishi darajasi muammolari tahlilidan kelib chiqqanda, sobiq itti-foqdan meros bo'lib kelayotgan korrupsiya illatiga qarshi kurashda ancha aziyat chekishimizga to'g'ri keladi. Sababi, Xitoy va Singapurnikiga o'xshagan **yuqoridan quyigacha qat'iy ishlaydigan ierarxiya tizimi bizda to'liq ishga tushmagan.** Lekin tabiiy jarayonni sun'iy ravishda sekinlashtirmaslik yoki ayrim kuchlarning tazyiqi ostida "to'xtatmaslik", bu borada rivojlangan davlatlarning boy tajribasidan foydalanish zarur. Masalan, AQShda reportyor-jurnalistlar korrupsiyaga qarshi

kurashda eng samarali jamoat nazoratini o'rnatgan. Bizda bunday tizim mavjud emas. MDHda, xususan O'zbekistonda surishtiruv jurnalistikasi juda sayoz holatda bo'lib, bugungi kun ehtiyojidan orqada qolmoqda. Aniqroq aytadigan bo'lsak, jinoyatchilar "kirdikor"larini fosh etishga urinib, mustaqil surishtiruv olib boradigan fidoyi jurnalistlar himoyasi ishlamaydi. Bundan ham achinarlisi, hozirgi kunda biron-bir rahbarning yashirin boylik orttirishini isbotlagan maqola matbuotda chop qilinsa-da, unga qat'iy choralar ko'rilmaydi, ahvol ham o'zgar olmaydi. Masalan, bir vaqtlar rahbar haqida feleton chiqsa, partiyadan o'chirilar, qamalar, shuning uchun amaldorlar "to'rtinchi hokimiyat"dan hayiqar edilar. Demak, "Mushtum"ga o'xshagan ikki-uchta kuchli vaqtli matbuot nashri faoliyati qo'llab-quvvatlansa va televideniya maxsus ko'rsatuvlar deyarli har kuni (xoh katta, xoh kichik tamagirlik holati bo'lsin) berib borilsa, ko'pchilik hushyor tortib qoladi. Tanqidsiz taraqqiyot bo'lmasligini fuqarolar ongiga singdirib borishimiz kerak, nazarimizda.

Jamiyatda ustuvor soha - ta'lim tizimida tahsil oladigan o'smirlar, yoshlar ongida tolerantlikni uyg'otish muammosi ham oldimizda ko'ndalang turibdi. "Jamiyatda poraxo'rlik illatini yengib bo'lmaydi", degan fikr yoshlar ongida shakllanib qolgani (Yaponiya yoki Xitoy fuqarosi ongida shakllanmaganligi alohida mavzu) eng katta kamchiligimiz. Bu borada o'nglanish, siljish qilmasak, millatimiz obro'si, nufuziga korruptsiya illati soya solib turaveradi. Toki, biz oilada, bog'chada, maktabdagi o'g'il-qizlarimiz ongiga, ruhiyatiga tamagirlik, poraxo'rlik yomon illatgina emas, balki u jamiyatimiz tanazuli, iqtisodiyotimiz orqaga ketishi aybdori ekanligi haqida tarbiyaviy va targ'ibot ishlarini olib bormasak, maqsad-muddaoga erisha olmaymiz.

So'nggi yillarda Yurtboshimiz tomonidan ilgari surilgan "davlat xalqqa xizmat qilishi kerak", degan g'oya fuqarolik jamiyati institutlariga yangi tizim va dasturlarni ishlab chiqish

imkoniyatini bergandi. Ammo nodavlat notijorat tashkilotlari, siyosiy partiyalar bu borada tashabbus hamda tashkiliy ishlarni amalga oshirishni negadir paysalga solishmoqda.

Keyingi vaqtlarda, xususan, 2017 yildan boshlab, mamlakatimizda “parlament nazorati”, “jamoatchilik nazorati”, degan atamalar taomilga kirdi va shunday qonunlar qabul qilindi. Endilikda biz sohada ishlaydigan kuchli tizimni tezlikda yaratishimiz, milliy mentalitetni hisobga olib, Janubi-sharqiy Osiyo mamlakatlari ilg‘or tajribasini qo‘llashga o‘tishimiz lozim. Menimcha, O‘zbekistonda siyosiy tizimdagi islohotlarni jamoatchilik nazoratisiz amalga oshirishning imkoni yo‘q. Ayniqsa, modernizatsiya, yangilanish, xalqona islohotlar bilan korrupsiyaning “qoni qo‘shilmaydi”, yangilik bilan eskilik tarafdorlari, fan, innovatsiya, kreativ fikrlovchilar bilan eski byurokratiya avlodi o‘rtasida kurash timsiz davom etaveradi.

Sxemalari va indeksi

Korrupsiya – chegara bilmas “ajdaho”, u aldanchilik, poraxo‘rlik va pulni “yuvish”ning aniq “chizma” (sxema) laridan tashkil topgan. Deylik, Rossiyada kechroq bo‘lsa-da, unga qarshi yangi mexanizm choralari qidirilmoqda. Sababi Boris Yelsin (1931-2007) hokimiyati yillarida mamlakatda iqtisodiyotni rejali va maqsadli boshqarish tizimi butunlay izdan chiqib, ko‘proq G‘arbning ta‘siriga tushgan, parallel ravishda rejasiz (miyasiz) hamda jinoiy iqtisodiyot baravar olib borilgan edi.

Rossiya Ichki ishlar vazirligi Iqtisodiy xavfsizlik akademiyasining ma‘lumotiga ko‘ra, 2015 yil oxirida mamlakatda iqtisodiyotning jinoyatlashganligi darajasi juda “tang” ahvolda bo‘lib, “xufiyona iqtisodiyot” yalpi ichki mahsulot (YaIM) ning 40 foiziga yetgan, 1991 yilda u bor-yo‘g‘i 11 foiz bo‘lgandi. “Transparency Int” (TI) korrupsiyaga qarshi tadqiqot markazi (<http://www.transparency.org/cpi>)ning 2019 yilda-

gi ma'lumotiga ko'ra²¹, Rossiya 180 davlat ichida 137-o'ringa tushib qoldi... Xalqaro tashkilotning 100 ballik indeksidan O'zbekiston 25 ball olib, umumiy reytingda 153-o'rinni egaladi. Korrupsiyani idrok etish indeksini – davlat sektoridagi korrupsiya darajasini ekspert va biznes vakillari xolis baholaydi. Avvalgi yillarda bo'lgani kabi, dunyo mamlakatlarning uchdan ikki qismidan ko'prog'ining o'rtacha bali 43 dan 50 gacha ko'rsatkichda turibdi. Indeks tuzuvchilarning fikricha, bu aksar mamlakatlarning korrupsiyani jiddiy nazorat qila olmaganligi va demokratiyaning inqirozidan darak bermoqda.

Kuchli yettilikka Daniya, Yangi Zelandiya, Finlandiya, Singapur, Shvesiya, Shveysariya, Norvegiya kirgan. Eng yomon ko'rsatkich Yaman, Suriya, Sudan, Somalida (177-180 o'rinlar). 2019 yilda Korrupsiyani anglash indeksi bo'yicha sobiq ittifoq davlatlari ichida Estoniya 18, Gruziya 44, Belarus 66, Armaniston 77, Qozog'iston 113, Qirg'iziston 126, Tojikiston va O'zbekiston 153-o'rinda qolmoqda.

Ta'kidlash joizki, korrupsiya manfaatlar to'qnashuvining jiddiyroq ko'rinishi bo'lib, u manfaatlar to'qnashuvining barcha turlarini bartaraf etish zaruratini talab etadi. Shu bois, xorijiy mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi kurashishdan **(Gruziyada Saakashvili mafiyani qamash, ularga sherik bo'lgan IIV tarkibini tozalashga kirishdgan)** boshladi. Natijada mamlakatda nazorat to'liq davlatning qo'liga o'tdi.

“Bizning tadqiqotlarimiz sog'lom demokratiya bilan **davlat sektoridagi korrupsiyaga qarshi kurash** o'rtasida aniq bog'liqlikni ko'rsatib berdi”, deydi mazkur xalqaro tashkilot raisi Delia Ferreyra Rubio. Tashkilot quyidagilarni tavsiya qiladi: katta pul aylanmasining oldini olish uchun siyosiy moliyalashtirishni boshqarish; siyosatga ta'sir qilishning oldini olish; qiziqish mojaroslarini boshqarish va “aylanadigan es-

²¹ <https://zen.yandex.ru/media/id/5aa8d5d9a86731ea4d5fd077/rossiia-zaniala-137-mesto-v-indekse-vospriiatiiia-korruptcii-transparency-international-5e29cef99515>. 23.01.2020.

hiklar" muammosini hal qilish; qaror qabul qilish va sezilarli foydalanishga hissa qo'shadigan lobbi faoliyatini tartibga solish; fuqarolarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, jurnalistlarni himoya qilish; tekshiruvchilar va qarshi kurash tizimini kuchaytirish.

Agentlikning vazifasi

Prezidentimizning 2020 yil 29 iyunda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga ko'ra, tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bu borada davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish bilan birga, **dunyo reytingida mamlakatimiz ko'rsatkichini yaxshilash ustida ishlashi kerak.** Vazifalar ko'lamini va qamrovi juda keng. Bunda bir muhim omilga ahamiyat berilishi, avvalo, ko'chmas mulk sotib olinayotganda pullarning kelib chiqishi qonuniyligi tekshirilishi zarur, degan fikrdamiz. Vaholanki, bizda qimmat uylar egalari ularni sotib olish yoki qurish uchun mablag'ni qaerdan olishgani surishtirilmaydi (ammo 2022 yil boshida rahbarlar deklaratsiya to'ldirgunicha xususiy mulklar imkon qadar "boshqa"ning nomiga o'tkazilishi mumkin).

Qonunchilik tizimida ham kamchiliklar mavjud. Misol uchun, xonandalar yoki boshqa ayrim toifa kishilarining xohlagan qasr uylarni qurishiga, televideniya xonadonini ko'z-ko'z qilinishiga bemalol yo'l qo'yilishi qonunlarning yaxshi ishlamayotganidan dalolat beradi. Masalaning ma'naviy tarafi borki, yengil yo'llar bilan pul topib, bunday shohona joylarda yashash bir vaqtlar prokuror yoki DAN xodimi tayyorlaydigan o'qishlarga kirishni xohlovchi yoshlarning ko'payishiga olib keladi. Demak, iste'dodi bo'lmasa-da, oddiygina texnika, fonogrammaga suyanib, mo'may daromad topadigan xonandalar soni 10 baravar ko'payishiga mumkin. Fikrimizga ko'pchilik qarshi chiqishi mumkin. Ammo

biz jamiyatda barcha sohalarda teng muvozanatni saqlagan "oltin qoida"ning buzilmasligi tarafdorimiz. Fonogrammada aytilgan qo'shiqning CD disklarini yozib olish, ko'paytirish va sotish bilan shug'ullanuvchilarga ko'p "imtiyoz"lar berilishi, ayrimlari soliq to'lamasligidan Davlat budjeti katta iqtisodiy zarar ko'rishiga toqat qilib bo'lmaydi. Afsuski, bunday korrupsiogen holatlarning ildiz otishiga, bir guruh kishilarning boyib ketishiga yillar davomida sharoit yaratilgan. **Axir, savodi haminqadar xonanda yo disk ko'paytiruvchi unga ta'lim bergan maktab muallimi yoki uzoq yillar ilm bilan shug'ullangan olimdan ko'proq mablag' topishiga imkoniyat yaratilishi** adolatsizlik va korrupsiyaning ochiq ko'rinishi emasmi?!

Aholi tabaqalari daromadlarining farqlanish miqdori keskin o'zgargani iqtisodchilarni ham tashvishga solmoqda. Sobiq ittifoq Statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 1956 yilda bu farqlar 3,28, 1986 yilda 3,38 ga yetgan – qariyb yaqin bo'lsa, mustaqillik yillarida boy va kambag'allar daromadidagi farq ancha ko'paydi. Rasmiy ma'lumotlarda 10 foiz eng badavlat boylarning daromadi eng kambag'al fuqarolarning daromadlaridan 10–15 marta oshib ketganligi ko'rsatiladi. Ammo ko'plab ekspertlar "yashirin iqtisodiyot" chuqur tahlil qilinganda, o'rtadagi haqiqiy tafovut 25–40 marotaba ekanligini ochiq aytishmoqda. Hozirgi kunda yashash minimumidan past darajada kun kechirayotgan kambag'al aholimiz 15 foizni tashkil qiladi. Mamlakatimizda 2019 yildan boshlab siljish kuzatilgan, hatto shu sohani tadqiq qilish uchun butun boshli vazirlik ishlayotgan bo'lsa-da, o'rtadagi farqning kuchayib borishi jamiyat qatlamlarida turli fikrlarni paydo qilishi mumkin.

2020-2021 yillarda barcha davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat")ni bosqichma-bosqich joriy etish choralari ko'rilishi sohada o'zgarishlarga turtki berishi mumkin. Maq-

sad – sohada pora olish uchun mutlaqo imkon qoldirmaslik. Shu sababli, O‘zbekistonda dunyoning yetakchi KPMG kompaniyasi bilan hamkorlikda maxsus loyiha ishga tushirildi. Adliya organlari va muassasalaridagi korrupsiyaga oid huquqbuzarlik holatlari haqidagi xabarlarni o‘z vaqtida yetkazilishini ta‘minlashga qo‘shimcha imkoniyat yaratish maqsadida telegram ijtimoiy tarmog‘ida “@antikorbot” nomli maxsus bot yaratildi. Maxsus bot orqali shu kunga qadar 2 mingdan oshiq tezkor xabarlar kelib tushdi²². Agentlikka xalqaro konvensiya talablarini bajarish maqsadida ushbu yo‘nalishdagi faoliyatni muvofiqlashtirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi milliy koordinatori vazifa va vakolatlari yuklatilishi, mamlakatimizning xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilishi adliyaning maqomi va nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ha, milliy taraqqiyotimizga jiddiy to‘siq bo‘layotgan korrupsiyani bartaraf etish yo‘lida qadamlar tashlanmoqda. Eng muhimi shuki, korrupsiyaga qarshi kurashda huquqni muhofaza etuvchi idoralar qanchalik harakat qilmasin, xalqimiz bu jirkanch illatga murosasiz bo‘lib, ta‘sirchan jamoatchilik nazoratini o‘rnatmas ekan, bu balo-qazoga qarshi samarali kurashni tashkil eta olmaymiz.

Illatga qarshi kurashishni nimadan boshlash kerak?

Eng avvalo, korrupsiyaga qarshi kurashishni oiladan boshlash darkor. Bu borada ayollarning roli nihoyatda ulug‘ deb hisoblaymiz. Agar o‘g‘rilik yoki pora hisobiga kelgan luqmaning tag-ildizini ayollarimiz surishtirib bilsa, ochiq fikrini aytolsa, erlar halol rizqni izlashga tushib, ishi va oilasida fayz-baraka, sokinlik hamda xotirjamlik qaror topishi, shubhasiz.

²² <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/98788> Adliya korrupsiyaga qarshi qanday kurashmoqda? <https://www.minjust.uz/uz/press-center/news/98788>

Korrupsiya – tamagirlikning yuqori miqtosiga qarshi kurashish uchun amaldorlardan siyosiy irada talab qilinadi. Vaziyatdan chiqishning usuli shuki, avvalo, davlat byurokratik apparatining miqdori imkon qadar kamayishi, fuqarolarning shaxsiy hayotiga va iqtisodiy faoliyatiga davlatning minimal aralashuviga va monopoliyaga barham berilishi zarur.

Korrupsiyaga qarshi kurashish turli mamlakatlarda turlicha namoyon bo'ldi. Ammo tahlilimizcha, davlat xizmatida o'g'rilamaslik uchun dunyoda faqat ikkita retsept tan olinadi: birinchisi, Shveysariyacha vaqtni qisqartirish, ikkinchisi, Xitoycha hayotni qisqartirishdan birini tanlash.

Bizningcha, yaramas illatga qarshi kurashishni quyidagi muammolarning yechimidan boshlash tavsiya etiladi: agentlik tomonidan korrupsiya tarkibiy qismiga kiradigan qonun hujjatlari qayta ko'rib chiqilishi; davlat muassasalari ustidan jamoatchilik nazorati (ochiqlik indeksi) o'rnatilishi; hokimlar va vazirlar parlament hamda mahalliy Kengashlar tomonidan tasdiqlanishi; barcha davlat xizmatlari "Yagona oyna" markazlariga o'tkazilishi, sud tizimi mustaqilligi mustahkamlanishi; davlat xizmatchilarining ijtimoiy himoyasi, mansabdor shaxslarning ish haqini biznesdagiga o'xshash 2-3 baravar ko'p bo'lishiga erishish talab etiladi. Buning uchun **mustaqil komissiya va markazlarni tuzish**, haqiqiy ahvolni jiddiy o'rganish, barcha tadqiqotlar hamda axborotlarni muntazam yig'ib boradigan yagona markazni tezda tashkil qilish kerak. Chunki qiladigan ish va vazifalarimiz o'n yillarga yetgulik.

Tan olish joizki, davlat xaridlari, investitsiya, bank, soliq, bojxona, bozorlar, qurilish tizimida korrupsiyaga aloqador shaxslar yaxshigina daromad ko'radi. Qonunchilik amaliyoti, huquq-tartibot organlarining ularga qarshi turish borasida o'ta "ojizligi", "zaifligi", hatto zayrixohligi holatlari ishlimiga xalaqit berib, buning oqibatida xalq va davlatning yer osti hamda yer usti boyligini o'zlashtirish evaziga chet ellarda dang'illama villalarga egalik qilish holatlari ko'payib bormoqda.

Xorijdan olingan achchiq saboqlar

Jamiyat a'zolarini birday qiynab kelayotgan baloi ofatga qarshi kurashish uchun biz qo'shni davlatlar tajribasini o'rganib, **Rossiyadagi ahvolni ko'zdan kechirsak:** 2000-yillar avvalida ulkan mamlakatning milliy xavfsizligiga korrupsiya xavf sola boshlagach (asosan, yer osti boyliklari va mudofaa sohasi mablag'larini talon-toroj qilish), maxsus idora ochilib, mavjud muammolar xalqaro tajriba bilan taqqoslandi va "homiy" vazifasini bajargan huquq-tartibot organlari, soliq, bojxona xizmati tizimi rahbarlariga nisbatan keskin choralar ko'rildi. Ichki ishlar organi tizimi butunlay isloh etildi. Kriminal tarmoqlardagi uzoq yillik korrupsiya holatlari ishonchli dalillar bilan fosh qilinib, yirik jinoiy ishlar ochilib ketdi.

To'g'ri, oldingi rahbariyat davrida masalaga panja orasidan qarab kelingan edi. Rossiya Federatsiyasi Prezidenti V. Putin nazoratiga o'tgan ko'plab maxsus ilmiy markazlar, jamoat tashkilotlari qisqa muddatda vazirliklar va mintaqalardagi korrupsiya darajasini aniqlab berdilar. Masalan, Moskva hamda markaziy shaharlarda korrupsiya darajasi yuqori, uzoq o'lkalarda kamroq rivojlangan. Ayniqsa, sud, prokuratura, ichki ishlar organlarida, oliy o'quv yurtlarida korrupsion tizim "samarali" ishlaganligi aniqlanib, minglab mansabdor shaxslar lavozimidan ozod qilindi. Bundan xulosa chiqargan tamagir rahbarlar siyosiy vaziyatdan ancha cho'chib, o'zlarini "panaga tortdilar".

O'zbek siyosatchilari, davlat arboblari, olimlari korrupsiyani o'rganaman desa dunyo mamlakatlari tajribasida ijobiy jihatlar ko'p. Misol uchun, **Singapurda pora olishdan bosh tortgan amaldorlarga mukofotlar tarqatiladi.** Yaponiya davlat sektori xodimlarining vijdonliligi xolis baholanadi. Biz o'ziga xos bunday islohotlar tag-zaminidagi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishimiz lozim. Bulardan tashqari, **"konfutsiycha kapitalizm", suxartocha siyosat, Maxatxira**

(ruxu nigara) g'oyalarining mazmun-mohiyati ham bizda o'rganilmagan.

Xullas, davlat organlarida korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlarni joriy etish, aholining korrupsiyaga qarshi qarashlarini shakllantirish bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish foydadan xoli bo'lmaydi.

Xulosa o'rnida

O'zbekistonda ushbu sohada to'plangan muammolar Ros-siyanikiga yaqin turadi, demak, dastlabki tashkiliy tadbirlar-ni shu sxema asosida amalga oshirish mumkin. Korrupsiya ildiziga bolta urishda jinoyat ishlari bo'yicha sudlar ustuvor mavqeni egallashi lozim, degan fikrdamiz. Lekin afsuski, MDH davlatlarida kimningdir tazyiqi, ko'rsatmasi yoki tama-girligi, mansabdorning sotib olinishi evaziga sudlarning ado-latsiz hukmlar chiqarishi hollari ko'p uchraydi (yurtimiz ham bundan mustasno emas). **Sud tizimi siyosiy hokimiyatning itoatg'o'y, tobe organiga aylanishi** kasallikning battar gazak olishiga olib kelmoqda.

Jonli misol, mahalliy hokimlarning fuqarolar va yuridik shaxslarga yerni ajratishi ko'p yildirki, biznesga, kimoshdi savdosiga aylanib, korrupsiyalashganligi bois, ular chiqargan qarorlarning teng yarmi, qariyb 2000 tasi sudlar tomonidan bekor qilingani, so'ng deputatlar qistovi bilan mazkur vazifa-ning geokadastr tashkilotiga o'tkazilgani shu sohada tashlan-gan dadil qadam bo'ldi. Bularidan tashqari, o'nlab vakolatlar jamoat tashkilotlari ixtiyoriga topshirildi. Ishonamizki, bun-day demokratik jarayon davom etadi.

Chindan ham, mamlakatimizda ham siyosiy, ham iqtisodiy islohotlarni hayotga tatbiq etishda korrupsiya to'siq bo'layot-gani bois jamiyatni modernizatsiyalash jarayonlari qiyin ke-chmoqda. Iqtisodiyotning investitsiya kiritilgan, "**pul ishlay-digan**", birmuncha "**yog'li**" tarmoqlariga o'rnashib olgan "**korrupsiya halqasi**" milliy taraqqiyotimizning dushmani,

jamoa nazorati esa ularga qarshi kurashda o'zlik qilayotgani ham ayni haqiqat. O'zbekistonda korrupsiya sxemalari, mehnat qilmasdan tezda boyib qolish mexanizmlari, ishlangan usullari "zanjiri" **uzib tashlanmas ekan, davlatimizning har qanday siyosiy, iqtisodiy islohotini hayotga olib kirish, xalqni farovon qilish vazifasi qog'ozda qolaveradi.**

Shu o'rinda yana bir "muhim" toifa haqida to'xtalib o'tsak. Ma'lumki, 1990-yillar boshida mustaqillik yo'liga o'tgan yosh davlatlarda modernizatsiyalash tabiiy bo'lmagan jarayonni boshidan kechirdi. Barcha ko'rsatkichlar gazetalarda yozilganday "silliq" emas, balki notekis kechayotgani ko'pchilikka ma'lum edi. Chunki davlat bosh islohotchilikni bo'yniga olgan bo'lsa-da, uni amalga oshiruvchi institut byurokatiya ("byuro"-idora, "kratos"- kuch, hokimiyat degani) qo'lida hamon qolayotgan edi. **Apparatchi byurokratlar sinfi sotsializm hukm surgan eski davrlarni ko'p qo'msaydi, yangilikni unchalik xohlamaydi.** Masalani shu jihatdan xolis tahlil qilganimizda, byurokatiyaning hokimiyatga "ta'siri" korrupsionerlardan kam emasligi ma'lum bo'ladi.

O'zbekistonda **korrupsiya va milliy taraqqiyot masalasi - yurt taqdiri, mamlakat kelajagi uchun har qachongidan muhim va dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.** Sababi, yurtimiz aholisi bir asrlik mustamlakachilik davrida yo'qotilgan moddiy va ma'naviy boylik-lar o'rnini qayta tiklash, iqtisodiyotni rivojlantirish, milliy o'zlikni asrash yo'lida kecha-yu kunduz mehnat qiladigan davr keldi.

Yaponlar ham, xitoyliklar ham, singapurliklar ham xalq ruhiyatini to'la saqlab qolish, diniy qadriyatlarini mustahkamlash, vatanparvarlik mafkurasini xalqning ongiga singdirish orqali milliy taraqqiyotga erishdilar. Biz ham shu nurli, ezgu yo'ldan yurishga munosib xalqimiz.

TA'LIM VA MILLIY TARAQQIYOT HAQIDA MULOHAZALAR²³

O'zbekiston ta'lim tizimining o'ziga xosligi nimada? Shaxs shakllanishida maktab, oila va jamiyatning o'rni qanday? Mamlakatimizda ta'lim sohasini rivojlantirish yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning tub mohiyatida qanday ezgu maqsadlar yotibdi? Tahlillarimiz shular haqida bo'ladi.

Ichki og'riqlar

Ta'lim jamiyatga shaxsni shakllantirib beradi. Bu shaxs davlat olib borayotgan islohotlar jarayonlaridan xabardor, hamqadam va faol bo'lishi lozim. Shuni bilish kerakki, **fuqaro** dunyoqarashi jamiyat va mamlakatda kechadigan **jarayonlardan orqada qoladigan bo'lsa**, davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan qonunlar "ishlamaydi", har qanday nazorat ham kutilgan natijani bermaydi. Qachonki fuqaroning dunyoqarashi va intilishi amaldagi davlat hokimiyati faoliyatidan oldinda bo'lsagina, millat va mamlakat rivojlanadi, aks holda, taraqqiyot bo'lmaydi, jamiyat hayotida bitta joyda depinish, turg'unlik sodir bo'laveradi.

Esimda, 1998 yilda Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasida tahsil olganimizda, yaponlarning JIKA agentligi ikki oylik seminar o'tkazib bo'lgach, mehmonlardan: "Bizda yer osti va yer usti boylklari serob, xalqimiz aqlli, tirishqoq va mehnatkash bo'la turib, nega sizlarday yutuqlarga erisha

²³ <https://xs.uz/uzkr/post/20-masalani-bir-jol-bilan-ishlagandan-kora-bir-masalani-20-jol-bilan-ishlagan-afzalroqdir-yokhud-talim-va-millij-taraqqiyot-haqida> Xalq so'zi, 13.10.2020.

olmayapmiz”, deb so‘raganimda, “Muallimning maoshini uch baravar ko‘tarsangiz, hammasi izga tushib ketadi, hatto kor-rupsiya ham kamayadi”, degan javobni olgan edim. Oradan shuncha vaqt o‘tib, bu gaplar zamirida naqadar ulkan haqiqat mujassam ekanini ko‘rmoqdamiz. Prezidentimiz Sh. Mirziyoev tashabbusiga ko‘ra, maktab, litsey va institut muallimlari maoshi oshirilib, jamiyatda o‘qituvchining obro‘- nufuzini yuksaltirishga e‘tibor qaratilayotgani naqadar to‘g‘ri qaror ekanligini anglab yetmoqdamiz.

Har bir mamlakatning taqdiri muallimga, ta‘lim tizimining sifatiga bog‘liq. Zero, Yurtboshimiz ta‘kidlaganidek, o‘qituvchi –kelajak bunyodkori! Ilm va ma‘rifatsiz odam yo‘lini yo‘qotishi, orzularini ro‘yobga chiqarishiga aqli va tajribasi yetishmasligini jadid bobolarimiz juda yaxshi anglashgan edi.

Jadidlar ichidan bilgan ichki og‘riqlar oradan yuz yil o‘tgan bo‘lsa hamki, milliy rivojlanishga to‘siq bo‘lib turibdi.

Shaxsning jamiyatdagi o‘rni

Shaxs jamiyatda yetakchi kuch, ammo fikr lay boshlasagina, u davlatga suyanchiq bo‘ladi. Sobiq sho‘ro tuzumida ta‘limda fan predmetlari miqdori va o‘qituvchi saviyasi talabga javob bersa-da, maktabning mafkuralashganligi davlatning o‘zi kabi jadal o‘zgarayotgan taraqqiyotdan ortda qoldi. Mustaqillikni qo‘lga kiritganimizdan keyin davlat tomonidan ta‘limni rivojlantirish, dunyoda o‘sib kelayotgan ehtiyojlarga javob berishiga qaratilgan bir qator hujjatlar qabul qilindi, amaliy harakatlar bo‘ldi. Ammo bu sohada ham milliy davlatchiligimizning shakllanish jarayonida amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalarga uyg‘un holda, ko‘zlangan iqtisodiy natijalarga erishish murakkab kechganligi bois, shaxsning har jihatdan yuksalishiga olib kelmadi. Albatta, bu moddiy-texnika bazasi nochorligi va sobiq tuzumdan meros qolgan psixologik muhit, maktabda o‘qitish usullarining eskirganligi bilan bog‘liq jarayonlar edi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach,

keyingi 20 yil eski boshqaruv andoza va shakllaridan voz kechish, demokratik qadriyatlarga o'rganish davri bo'ldi, desak xato bo'lmaydi. Xususiy mulkchilik va shaxs erkinligiga berilgan keng imkoniyatlar istiqbolning eng asosiy ne'mati bo'lsa-da, bu huquqdan ham faqat so'nggi yillarda foydalanilmoqda.

2016 yil oxirida Shavkat Mirziyoev erkin saylovlar asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib saylanib, hokimiyat tepasiga kelganidan so'ng, andoza va shakllar bugungi zamonga moslashdi. 2017 yilning fevral oyida tarixiy hujjat – Harakatlar strategiyasi qabul qilindi, bu – mamlakatni rivojlantirishning takomillashgan modeli bo'ldi. Yurtboshimiz fuqaro, shaxsning haq-huquqlarini kengaytirish yo'lida dadil qadamlarni tashladi. **“Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak!”** degan g'oya ko'pchilikning ko'nglidagi uzoq yillik orzular edi. “Shaxs kim?” degan savolga javob topilgandek edi.

Ha, **shaxs – buyuk islohotchi, jamiyatni orqasidan er-gashtiruvchi, qudratli kuch.** Agar shaxsga raqobat muhiti yaratilsa, huquq va erkinliklari himoya qilinsa, tadbirkorlik ishlarining rivoji uchun yerlar, kreditlar ajratilib, u o'zini-o'zi moddiy va ma'naviy ta'minlashga o'ta boshlasa, bundan jamiyat ham, davlat ham katta naf ko'radi. To'q yashashni istagan tadbirkor, fermer, muhandis, quruvchi ham, aslini olganda, ilm va ma'rifat ziyosidan oziqlangan, o'qimishli, fikrlovchi shaxsdir.

Xitoy, Yaponiya, Singapur kabi davlatlar ilm-fanni tizimli rivojlantirish, intellektual mulk bilan ishlab chiqarish aloqasini mustahkamlash, samarador ishlaydigan siyosiy tizimni yaratish, ochiq jamiyatni qura boshlashga o'tganidan so'ng, investitsiya oqimi mamlakatga oqib kiraverdi, qarabsizki, 30–40 yilda ular jahonning ilg'or mamlakatlari qatoridan o'rin oldilar.

Yangilanayotgan O'zbekiston ham hozirda shu oqilona yo'lni tanlagan...

Bilimsizlik – yomonliklar manbai

Maktab – bilim maskani. Bolalik va o'smirlikda olingan bilim umr bo'yi insonga do'st, hamroh bo'lib xizmat qiladi. Ilim – shaxs takomili, taraqqiyot yo'li demak. Allomalarimiz yozishadiki, bilimsizlik – barcha yomonliklar manbai, bilimsiz inson o'ziga eng katta yomonlikni tilagan bo'ladi. Bugungi o'quvchi yoki talaba, katta yoshdagi kishi siyosiy ongi etishgan, bilimdon bo'lsagina, mamlakatda va jahonda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga xolis baho bera oladi, to'g'ri xulosa chiqaradi va o'z hayotini o'zgartirishga qodir bo'ladi.

Bilimli, ma'rifatli, keng fikrli bo'lishning asosiy omili **kitob – baland cho'qqini egallashga qo'yilgan narvondir**. Badiiy, o'quv, ilmiy kitob o'qish nafaqat dunyoqarashni kengaytiradi, balki dunyoviy, diniy savodxonligimizni oshirib, yozma va og'zaki nutqimizning boyishiga sababchi bo'ladi. Mutilaani yaxshi ko'radigan, madaniyatli kishi bilan suhbat qurish, o'zaro fikr almashish barchaga zavq, huzur bag'ishlaydi. Kitob o'qimaydigan odam o'zining emas, atrofdagilar, ko'chani fikri bilan yashaydi, boshqalar ko'rsatmasiga asosan hayoti qanday o'tib ketganini bilmay qoladi. Yomon ko'chalarga kirib qolishi oson kechadi.

Mustaqillik yillarida bilim olish, kitobxonlik bobida ayrim muammolarga duch kelganimiz haqiqat. Xususan, mamlakatda yuzaga kelgan iqtisodiy muammolarning mavjudligi; odamlarning mablag'i kundalik hayot ehtiyojidan ortmaganligi; ta'lim (maktab, kollej, institut) moddiy bazasining zaiflashganligi; bilimli, tajribali o'qituvchilarning tizimdan butunlay ketib qolganligi; ta'limning nufuzi ancha tushib ketishi oqibatida o'smir-yoshlarning unga ehtiyoji so'nib, qiziqishi kamayganligi; ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi aloqalarning rivojlanmaganligi; bozor munosabatlariga o'tish jarayonida bu qiyinchiliklar oldida yoshlarimizning bilim olishga qiziqishi so'nganligi hamda kundalik hayot kechirish muam-

molariga o'ralashib qolayotganligi kabi omillar o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

Bugun mamlakatimizda yana kitob mutolaasi madaniyati, nashr etish va tarqatish ishiga e'tibor kuchayganligi zamirida ham har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash masalasi yotibdi. Ammo bizda kitob savdosi tizimining izdan chiqqanligi, mustaqil qog'oz sanoatining mavjud emasligi **omillari** jadidlar ta'kidlaganidek, noshirlik, kitobat tizimini zaiflashtirdi, ayniqsa, shoirlar, yozuvchilar, tanqidchilar, tarjimonlar ajoyib g'oyalarining kitob holda omma qo'liga yetib bormayotganligi yoshlar qalbida ona yurtini Navoiy, Boburday chin yurakdan sevish, ardoqlash, jonini fido qilish tuyg'ularini shakllantirish jarayonini ancha kechiktirib yubordi.

Bugun ta'limga qo'yiladigan talablar

Olimlarning ta'kidlashicha, kishida beshta qobiliyat: ko'rish, gapirish va eshitish, sezish, diqqat qilish, fikrlash yaxshi shakllangan bo'lishi lozim. Bunda **fikrlash aqliy mehnatning beshinchi omili bo'lsa-da, u oldingi to'rtta omilning birga ishlashini ta'minlaydi**. Bizningcha, maktab muallimining asosiy vazifasi o'quvchilarda ana shu fikrlash san'atini o'rgatish, uni tezroq shakllantirish bo'lmog'i darkor. A Eynshteyn aytganidek, **yigirma masalani bir yo'l bilan ishlagandan ko'ra, bir masalani yigirma yo'l bilan ishlagan afzalroq**. Fikrlamaydigan bola ulg'aysa, o'z yo'li va maqsadiga erishmog'i qiyin kechadi, chunki **fikr – inson botiniy (ichki) qiyofasi aks etadigan ko'zgu!**

Fikrsizlik – ma'naviy o'lim! Fikri yo'q odamning qiyofasi bo'lmaydi. Fikr yo'q joyda olomonlik va johillik ko'pchiydi. Bu fikrimizga dunyoda bo'lib o'tayotgan favqulodda holatlar guvohlik berib turibdi. Eng yomoni shuki, o'qimagan, fikrlashni xohlamagan kishining farzandlari va avlodlari ham shunday holga tushishi mumkin. O'zbek maktab tizimining eng muhim kamchiligi kundalik hayotimizda yoshlar o'rtasida mustaqil

fikriga ega bo'lmaganlarning paydo bo'layotgani hodisasi. Bu holatdan qutulish uchun bog'cha – maktab – universitetda "Tafakkur ustaxonalari" tizimi ishlashining tarafdorimiz.

Jamiyatda fikr bo'lsagina, u yangilanadi. Qotib qolgan yoki bir xil qolipdagi qarashlar va fikrlar bilan yashash bir kuni jamiyatni ham iqtisodiy, ham ma'naviy tanazzulga yetaklaydi. Yevropa taraqqiy etishdan oldin uning fikri va san'ati, falsafasi taraqqiy etgan, u ijtimoiy fikrga turtki va quvvat bergan, xilma-xil "o'zlik"lar orqali xilma-xil g'oyalarga yo'l ochilgan. Bu g'oyalar ichida iqtisodiy, texnikaviy, ilmiy g'oyalar, jumladan buyuk ixtirolar anchagina bo'lib, Yevropa uni amalga oshirishga imkoniyat tug'dirdi.

Yevropaliklar bilim, ma'rifat, tenglik, fidoyilikni hayotda ustuvor bilgan va unga amal qilgan holda, Sharq xalqlari ilm-fani bilan yaxshi oziqlanib, XVI asrlardan keyin taraqqiy eta boshladilar. Biz esa ilm maktablari yaratgan o'lkadan xom ashyo yetishtiradigan kambag'al mamlakatga aylanib qoldik. Nega bunday bo'ldi, degan haqli savol tug'iladi. Javoblar had-dan ziyod ko'p, ammo...

Muammo soha tizimida ekan

Bizning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishimizga asosiy sabab ta'lim tizimidagi kamchilikdir. Buning ustiga, globalashuv sharoitida yana bir ma'naviy xavf-xatar iskanjasiga tushib qolmoqdamiz. Taxminan XXI asr boshiga kelib, o'lkamizga internet yordamida "ommaviy madaniyat" va ommaviy tafakkurning yopirilib kelishi milliy ta'lim va tarbiya ishini tub mohiyatidan yaxshigina chalg'itdi. **Haqiqiy ma'naviyat, adabiyot, san'at, ilm o'rnini shou-biznes tafakkur tarzi egallay boshladi.** Televidenie, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi yengil-yelpi, saviyasiz olomonga mo'ljallangan, pul to'plashdan boshqa maqsadi bo'lmagan "soxta madaniyat" shu kungacha ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy g'urur, did va farosatimizni o'tmaslashtirib

ko'ydi. Bundan, ayniqsa, bilim va ma'rifati zaif yoshlarimiz ko'proq ma'naviy jabr ko'rishmoqda...

Globalashuv ota-onalarni ham o'z komiga tortmoqda. Professor S. Otamurodovning uqtirishicha, hayot sur'atlarining bekiyos darajada tezlashuvi bo'lgan globalashuv bir tomondan, insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lishi bilan ijobiy jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog'lanib qolishiga olib keladigan salbiy jarayondir. Milliy kino, milliy adabiyot, xususan, bog'cha, maktab tizimi u qadar rivojlanmaganligi bois G'arb mafkurasi turli yo'llar, usullar bilan bolalar-u yoshlarni, hatto kattalarni o'zining qiziqish doirasiga tortdi. Xorijiy filmlar mafkurasi milliy mafkura va fikrlash tarzimizga unchalik to'g'ri kelmasligini yaxshi bilsak-da, oilaviy mojarolardan iborat filmlar (shaxs dunyoqarashini boyitadigan badiiy baquvvat kinolentalarni Yevropaga, sayoz filmlarni esa bizga "tuhfa" etishadi) doimiy iste'molchisiga aylandik.

Maktab o'qituvchisi va onalar ham yengil-yelpi kinoseriallarni yillar davomida o'ta qiziqish bilan ko'rgach, o'quvchi va farzandining ko'ngliga, ra'yiga qarshi boradimi? **"Har bir oila o'z farzandlarini har qanday mafkuraviy tajovuzkorlikdan himoya qilishga tayyor bo'lib turishi kerak", degan edi buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov²⁴.** Demak, bu borada ham ma'naviy "bo'shliq" vujudga kelganligidan ko'z yuma olmaymiz.

Nobel mukofoti sohibi bo'lish uchun nima qilmoq kerak?

Jadid bobomiz Abdulla Avloniy bundan yuz yil muqaddam jamiyatdagi holatni shunday baholagan: "Ehtimol, biz-

²⁴ Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohizori (Asr adog'ida aytilgan istig'for). N.Boqiy, Yo.Xo'jamberdi tarj., - T.: Sharq, 1998. -B. 68.

fikriga ega bo'lmaganlarning paydo bo'layotgani hodisasi. Bu holatdan qutulish uchun bog'cha – maktab – universitetda "Tafakkur ustaxonalari" tizimi ishlashining tarafdorimiz.

Jamiyatda fikr bo'lsagina, u yangilanadi. Qotib qolgan yoki bir xil qolipdagi qarashlar va fikrlar bilan yashash bir kuni jamiyatni ham iqtisodiy, ham ma'naviy tanazzulga yetaklaydi. Yevropa taraqqiy etishdan oldin uning fikri va san'ati, falsafasi taraqqiy etgan, u ijtimoiy fikrga turtki va quvvat bergan, xilma-xil "o'zlik"lar orqali xilma-xil g'oyalarga yo'l ochilgan. Bu g'oyalar ichida iqtisodiy, texnikaviy, ilmiy g'oyalar, jumladan buyuk ixtirolar anchagina bo'lib, Yevropa uni amalga oshirishga imkoniyat tug'dirdi.

Yevropaliklar bilim, ma'rifat, tenglik, fidoyilikni hayotda ustuvor bilgan va unga amal qilgan holda, Sharq xalqlari ilm-fani bilan yaxshi oziqlanib, XVI asrlardan keyin taraqqiy eta boshladilar. Biz esa ilm maktablari yaratgan o'lkadan xom ashyo yetishtiradigan kambag'al mamlakatga aylanib qoldik. Nega bunday bo'ldi, degan haqli savol tug'iladi. Javoblar had-dan ziyod ko'p, ammo...

Muammo soha tizimida ekan

Bizning iqtisodiy taraqqiyotdan orqada qolishimizga asosiy sabab ta'lim tizimidagi kamchilikdir. Buning ustiga, globallashuv sharoitida yana bir ma'naviy xavf-xatar iskanjasiga tushib qolmoqdamiz. Taxminan XXI asr boshiga kelib, o'lkamizga internet yordamida "ommaviy madaniyat" va ommaviy tafakkurning yopirilib kelishi milliy ta'lim va tarbiya ishini tub mohiyatidan yaxshigina chalg'itdi. **Haqiqiy ma'naviyat, adabiyot, san'at, ilm o'rnini shou-biznes tafakkur tarzi egallay boshladi.** Televidenie, internet, ijtimoiy tarmoqlardagi yengil-yelpi, saviyasiz olomonga mo'ljalangan, pul to'plashdan boshqa maqsadi bo'lmagan "soxta madaniyat" shu kungacha ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan milliy g'urur, did va farosatimizni o'tmaslashtirib

qo'ydi. Bundan, ayniqsa, bilim va ma'rifati zaif yoshlarimiz ko'proq ma'naviy jabr ko'rishmoqda...

Globallashuv ota-onalarni ham o'z komiga tortmoqda. Professor S. Otamurodovning uqtirishicha, hayot sur'atlarining bekiyos darajada tezlashuvi bo'lgan globallashuv bir tomondan, insoniyat intellektual salohiyati taraqqiyotining yangi bosqichi bo'lishi bilan ijobiy jarayon bo'lsa, ikkinchi tomondan, rivojlanayotgan va kam taraqqiy qilgan millatlarning yuksak taraqqiyotga erishgan millatlarga bog'lanib qolishiga olib keladigan salbiy jarayondir. Milliy kino, milliy adabiyot, xususan, bog'cha, maktab tizimi u qadar rivojlanmaganligi bois G'arb mafkurasi turli yo'llar, usullar bilan bolalar-u yoshlarni, hatto kattalarni o'zining qiziqish doirasiga tortdi. Xorijiy filmlar mafkurasi milliy mafkura va fikrlash tarzimizga unchalik to'g'ri kelmasligini yaxshi bilsak-da, oilaviy majarolardan iborat filmlar (shaxs dunyoqarashini boyitadigan badiiy baquvvat kinolentalarni Yevropaga, sayoz filmlarni esa bizga "tuhfa" etishadi) doimiy iste'molchisiga aylandik.

Maktab o'qituvchisi va onalar ham yengil-yelpi kinoseriallarni yillar davomida o'ta qiziqish bilan ko'rgach, o'quvchi va farzandining ko'ngliga, ra'yiga qarshi boradimi? **"Har bir oila o'z farzandlarini har qanday mafkuraviy tajovuzkorlikdan himoya qilishga tayyor bo'lib turishi kerak", degan edi buyuk qirg'iz adibi Chingiz Aytmatov²⁴.** Demak, bu borada ham ma'naviy "bo'shliq" vujudga kelganligidan ko'z yuma olmaymiz.

Nobel mukofoti sohibi bo'lish uchun nima qilmoq kerak?

Jadid bobomiz Abdulla Avloniy bundan yuz yil muqaddam jamiyatdagi holatni shunday baholagan: "Ehtimol, biz-

²⁴ Aytmatov Ch., Shoxonov M. Cho'qqida qolgan ovchining ohizori (Asr adog'ida aytilgan istig'for). N.Boqiy, Yo.Xo'jamberdi tarj., - T.: Sharq, 1998. -B. 68.

ning xalq ilmu ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rar, deb o'ylaydurg'ondursiz? Yo'q, bu fikringiz yanglish... Onalarimiz bilim va tarbiya o'rniga erlari ila urushub-talashub qizlarig'a mol qilmakni yaxshi ko'rurlar".

Yaponlarda wa (uyg'unlik) tushunchasi bor. Mamlakatda 1868 yilda ilk siyosiy modernizatsiya (yangilinish) "yapon ruhiyati - G'arb texnikasi" (vakon-yosay) shiori ostida kechdi. Bunda "vakon" an'anaviy madaniyat, ma'naviy qadriyatga bog'lanib dunyoni idrok etish, "yosay" - zamonaviy madaniyat, sivilizatsiya ma'nosini anglatadi. Yapon pragmatizmining boshqalardan farqli jihati shuki, an'anaviy milliy qadriyatlarni saqlaydi, ehtimoliy halokatlarini ehtiyotkorlik bilan chetlab o'tgan holda, yangiliklarni qabul qilaveradi. Aholining yangicha sharoitga moslashish qobiliyati boshqa sivilizatsiya unsurlarini yaxshi o'zlashtirishi, ularni o'z milliy qadriyatlarining tarkibiy qismiga kiritishi bilan farqlanadi. Ular 1950 yillarda Yevropa va AQSh texnologiyalarini o'zlashtirish baravarida, milliy ruhiyatini saqlagan holda, G'arb mamlakatlarini iqtisodiyotda quvib o'tdi. Bunday ko'rsatkichlar ildizida ilm-fan va texnologiya uyg'unligi yotadi. Xitoylar ham, koreyslar, nemislar ham faqat ilm, ma'rifat yo'li bilan qoloq davlatdan boy davlatga aylandilar. Ta'lim tizimi ham ularni qutqarib, eng yuqori darajaga olib chiqdi. Ha, ertangi kun bilimni chuqur egallagan jamiyatlarniki! Biz o'zbeklar ham jamiki e'tiborimizni ilm-fan, ta'lim tizimining rivojlanishiga qaratishimiz kerak.

"O'zbeklardan ham Nobel mukofoti sovrindorlari chiqishi mumkinmi", degan savolga kelsak, buning uchun **ilmga, ilmlilarga, o'qituvchilarga kuchli rag'batlantirish tizimi yaratilishi** lozim. Yurtimizda ilk marta tashkil etilgan Prezident maktablari, ijod maktablari, xalqaro matematika va fizika maktablari bitiruvchilari ichidan bilimlilar, g'ayratlilar qo'llab-quvvatlansa, ushbu orzu-niyatlarimiz amalga oshadi, degan umiddamiz.

Rivojlanish zaminida ma'rifat yotadi

Millatimiz nimaga erishsa yoki qaysi jabhada oqsasa, uning ildizida ma'rifat va ta'limning taraqqiyoti yoki oqsashi yotadi, deb aytish mumkin. Shu boisdan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev hokimiyatga kelganidan so'ng, ta'lim va tarbiya borasida misli ko'rilmagan o'zgarishlarni amalga oshirishni boshladi. Buning sababi ma'lum: **maktab, universitet – jamiyat ustuni!**

Keyingi yillarda jahonda va O'zbekistonda ta'limni rivojlantirish, uni tubdan qayta o'zgartirishda aniq yo'nalishlar paydo bo'ldi. Ularning **birinchisi**, ta'limni tubdan demokratlashtirish; **ikkinchisi**, uzluksiz ta'lim g'oyasi, so'ng "ta'lim – bir umrga" g'oyasini "ta'lim – butun umr davomida" g'oyasiga almashtirish; **uchinchisi**, u nafaqat mutaxassis tayyorlash, balki jamiyatga ongli, fidoyi insonlarni yetkazib berish vositasi; **to'rtinchisi**, ta'limning globallashtirishga erishish; **beshinchisi**, ta'limni axborotlashtirish. Ana shu ezgu maqsadlarga qadamba-qadam erishib borilmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim sohasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan, shuningdek, u millatni asrash mas'uliyatini o'z zimmasiga olgan tizim. Bu borada yurtimizda sezilarli qadamlar tashlandi. Misol uchun, 2019 yil 1 sentabrda ochilgan Prezident maktablaridan ko'zlangan maqsad ta'lim jarayonida ilg'or texnologiyalarni qo'llash orqali iqtidorli bolalarni aniqlash va o'qitish tizimini shakllantirish, ma'naviy boy va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash kafolatlarini ta'minlashdan iborat. Respublikaning 14 hududida bittadan ochilayotgan ushbu maktablarga umumta'lim muassasalarining to'rtinchi sinf bitiruvchilari orasidan qobiliyatli va iqtidorli bolalar tanlov asosida qabul qilinadi. Prezident maktablariga qabul Kembrij universiteti imtihon kengashi (Buyuk Britaniya) tomonidan o'tkaziladi.

Dunyo tajribasini o'rgansak, Amerika, G'arbiy Yevropa va

Janubi-Sharqiy Osiyoning rivojlangan davlatlari o'z taraqqiyotida, bizdan farqli ravishda, fan va ishlab chiqarish uyg'unligi, transformatsiya jarayonlari o'zaro bog'liqlikda amalga oshiradi. Misol uchun Germaniya – uzoq asrlarga borib taqaluvchi ilmiy maktablari, Gyote, Gegel, Betxoven, Nitshe, Fransiya Balzak, Viktor Gyugo, Stendal singari olim va ijodkorlari bilan mashhur.

Yurtimizda ham dovrug' yoygan bilim, ma'rifat maskanlari anchagina. Buxoro viloyati Qorako'l tumanidagi matematika litsey-maktabi shular jumlasidan. Necha yildirki, mazkur maktabda tahsil olgan abituriენტlarning 90 foizi talabalikka qabul qilinmoqda. Shu o'rinda, "**Nega Qorako'l maktabidan 90 foizdan ortig'i oliy o'quv yurtlariga kiradi-yu, boshqa maktablarda bu ko'rsatkich 45 – 50 foizni tashkil qiladi**", degan o'rinli savol tug'iladi. Buning sabablari ko'p. **Birinchi-dan**, mazkur o'quv dargohiga adolat prinsipiga tayanib, o'quvchilar qabul qilinadi va tanish-bilishlikka yo'l qo'yilmaydi; **ikkinchidan**, darslar Buyuk Britaniya, Rossiya, Singapur kabi ilg'or mamlakatlarning ta'lim dasturlariga asosan ishlab chiqilgan aniq fanlar bo'yicha maxsus dasturlar asosida o'qitiladi; **uchinchidan**, respublika va xalqaro fan olimpiadalari g'oliblari bo'lgan malakali trener-o'qituvchilar faoliyat yuritadi. Ular umumta'lim maktablarining 5–11-sinf o'quvchilarini matematika, fizika va kimyo fanlaridan shahar, respublika hamda jahon miqyosidagi fan olimpiadalariga, Prezident maktablariga tayyorlashadi. Hozirgi kunga qadar maktab o'quvchilari nufuzli jahon fan olimpiadalarida 2 ta oltin, 8 ta kumush va 10 ta bronza medallarni qo'lga kiritishdi. Muhimi, mehnati va ko'rsatkichiga qarab, o'qituvchilarga katta mukofot topshiriladi; **to'rtinchidan**, yutuqlarning yana bir kaliti o'quv markazida o'quvchilar va abituriენტlarning bilimlarini nazorat qilish bo'yicha muntazam monitoring va tizimli tahlil yo'lga qo'yilgan bo'lib, baholashda korrupsiya holati yuz bermaydi.

Yaqinda **qutlug' dargohga Xalqaro matematika maktabi** maqomi berilganini eshitib, rosa quvondim. Endilikda tajribadan o'tgan, shakllanib ulgurgan shu tizimning tajribasini aniq fanlarga ixtisoslashtirilgan respublikadagi barcha maktablarga qo'llanilishini taklif etgan bo'lardim.

Zamonaviy darajaga ko'tarish imkoniyati

Badiamiz boshida aytganimiz – yaponiyalik mutaxassislar bundan 20 yil oldin Toshkentda orzu qilgan vazifa nihoyat ro'yobga chiqmoqda: muallimning iqtisodiy muammosi hal etilib, oylik maoshi birmuncha oshmoqda. O'qituvchi o'quvchining barcha qiziqishi, salohiyatini ko'ra biladigan va yuksalishi uchun bor kuchini beradigan jamiyatdagi yetakchi shaxsga aylanmoqda. Uning vazifasi –bolaga chuqur bilim berish, o'quvchilarni individuallikdan mahrum qilmaslik va shaxsiy fikrga ega bo'lishini man etmaslikdir.

To'g'ri, bugungi pandemiya sharoitida ta'lim sohasida keskin o'zgarish qilishning imkoniyati yo'q. Ammo bizningcha, vaziyat yumshagandan keyin oliy o'quv yurtlarida o'qitishning sifatini yuksaltirish uchun bir qator vazifalarni ado etish tarafdorimiz. Jumladan: o'zlashtirmagan talabani kursdan kursga qoldirish, imtihonni (ballni) topshirolmagan talabani har bir o'zlashtirmagan fani uchun rasmiy pul to'lashini ta'minlash; talabani ertalab soat 9 dan to soat 17 gacha oliy o'quv yurtida bo'lib, o'z ustida tinimsiz ishlashi uchun shart-sharoitni yaratish va boshqalar. Bular hammasi sohada korrupsiyaning keskin kamayishiga olib kelishi mumkin.

Tahlillar va tajribamizdan kelib chiqib, ta'lim tizimini takomillashtirishga oid quyidagi takliflarni bildirib o'tmoqchimiz: **birinchidan**, moddiy bazani kuchaytirish; **ikkinchidan**, o'qituvchining moddiy farovonligini ta'minlash, nufuzini yanada oshirish; **uchinchidan**, jamiyatda ziyoli ahlining obro'-e'tiborini ko'tarish, xususan, xorijga ketib qolishlarning oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amaliyotga

kiritish; **to'rtinchidan**, xususiy ta'limni rivojlantirish uchun imkoniyatlarni yaratish; **beshinchidan**, o'quvchi va talabaga bilim berish, o'qitishda asosiy mezon sifatida tizimni mustaqil fikr yuritishga yo'naltirish; **oltinchidan**, ta'lim tizimini zamonaviylashtirishda milliylikning barbod bo'lishiga olib kelmasligini ta'minlash strategik vazifamizga aylanishi lozim.

Xalqning, mamlakatning buyukligini tarannum etadi

Yurtboshimiz 2018 yilda "iqtisodiyot shiddat bilan rivojlanayotgan bir paytda, oliy ta'lim tizimi taraqqiyotning lokomotivi bo'lish o'rniga, zamon bilan hamqadam bo'lmayotgani achinarlidir", deb tizimni keskin tanqid qilgan edi. Shundan so'ng, ta'limda sezilarli islohotlar amalga oshirilganiga qaramasdan, **ilm-fan va ishlab chiqarishning integratsiyasi yo'nalishida ishlar oxiriga yetkazilmay qoldi**. Yangi ochilgan Innovatsion rivojlanish vazirligi yakka o'zi yirik sanoat, ishlab chiqarish, xizmatlar sohasiga ixtirolarni joriy etish bilan bog'liq bu og'ir masalani hal qilishga kuchi yetmaydi.

Mamlakatimizda Harakatlar strategiyasi, Ma'muriy islohotlar konsepsiyasi qabul qilingani, parlament ustuvorligiga erishish yo'lida qadamlar tashlangani, vazirlik, hokimlik tizimlarining funksiyalari nodavlat tashkilotlariga oshirib layotgani jahon jamoatchiligi tomonidan e'tirof etilmoqda. Shu o'rinda, mazkur siyosiy hujjatlarning asosiy ijrochisi bo'lgan xalqimizning demokratik asosiy tushunchalarni, bozor iqtisodi tamoyillarini qabul qilishga tayyorgarlik darajasi holati haqidagi chuqur tahliliy ma'lumotlarga katta ehtiyoj tug'ilmoqda. Aniq ma'lumotlar kelgusi islohotlar rejasini puxta ishlab chiqishda juda asqotadi, degan fikrdamiz. Bizningcha, uzoq yillardan buyon faoliyat olib borayotgan **"Ijtimoiy fikr" respublika jamoatchilik fikrini o'rganish markaziga muqobil bo'lgan markazlar tashkil etilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi**. Mamlakatimizda barcha sohada kechayot-

gan jadal o'zgarishlar bilan bir vaqtda, fuqarolarimiz ongi, dunyoqarashi va xatti-harakatlarida shakllanayotgan yangicha qarashlar, o'zgarayotgan O'zbekistondagi yangi bosqichlarning imkoniyatlari ana shunday institut va markazlarni tashkil etish zaruriyatini keltirib chiqarmoqda. Bu davr talaibi, jamiyatning ehtiyoji.

Fuqaro – jamiyat – davlatning o'zaro munosabatlarini muvozanatlashtirish bobida sohibqiron Amir Temurning ilmfan, ma'rifatni rivojlantirishga doir inqilobiy islohotlari mohiyatini ilmiy o'rganish, xulosalar chiqarish yo'nalishida ham qiladigan ishlarimiz talaygina. **Respublikamizda Amir Temur merosini o'rganish ilmiy-amaliy markazi tashkil etilib**, bu tadqiqotlarning natijasi ijtimoiy-siyosiy hayotimizda qo'llanilishiga erishsak, jamiyat va fuqarolarimiz ijtimoiy faoliyatida ma'naviy-ruhiy uyg'onish, kelajakka ishonch kayfiyati paydo bo'lardi.

Oqqan daryo oqaveradi

Keyingi yillarda umumta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berganidan ko'z yumolmaymiz. Davlatimiz rahbari qaroriga binoan, maktabgacha ta'lim tizimi yangitdan shakllantirilgani, maktab, akademik litseylar faoliyati takomillashgani, xorijning oliy o'quv dargohlari ochilib, oliy ta'limga qabul kvotalarining kengaytirilgani, ustoz-murabbiylar moddiy va ma'naviy rag'batlantirilgani jamiyatda muallimning obro'si hamda nufuzini oshirib yubordi. Shuningdek, atoqli shoir-yozuvchilarning ijod maktablari, Prezident maktablari, Toshkent markazida Adiblar xiyoboni tashkil etildi. Jamiyat hayotida yangicha qarashlar, o'ziga xos yondashuvlar paydo bo'lmoqda. Masalan, umumiy o'rta ta'lim bosqichida kasbga o'rgatish tizimi mehnat bozori talablariga moslashtirildi. Oliy ta'limda ham nazariya va amaliyot birligiga erishish, bitiruvchilarni ish bilan ta'minlash borasida harakatlar boshlandi. Pirovardida, ushbu

tashkiliy-huquqiy ishlarning natijasi O'zbekiston yalpi ichki mahsulotida tezroq namoyon bo'lishi va xalqimiz farovonligining yuksalishiga xizmat qilajagiga ishonamiz.

"Men Singapurda mo'jiza yaratmadim. Men faqat Vatanim oldidagi burchimni bajardim, xolos. Davlat budjetini ta'limga yo'naltirdim,—deydi Singapur bosh vaziri Li Kuan Yu. — **Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi "mo'jiza"larni qilgan insonlar muallimlardir.** Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan, kamtar avlodni yetishtirib chiqardilar. Buning uchun ulardan minnatdormiz!"²⁵. Ha, Li Kuan Yu (1923-2015) dunyo etirof etgan buyuk davlat arbobi va islohotchi edi.

O'zbekiston – ulkan imkoniyatlar mamlakati. Ta'lim tizimining o'zida minglab islohotlar, buyuk o'zgarishlar navbat kutib yotibdi. Mamlakatimiz Markaziy Osiyoda "ta'lim markaz"laridan biri bo'lishga da'vogarlik qilmoqda. Buning uchun xalqaro reytinglarga kirgan universitetlarimiz qani? **Respublikamizda ilmiy natijalarni, ixtirolarni tijoratlashtirishning samarador mexanizmi hozirga qadar yaratilmaganini** aytib o'tish kerak. Birgina shu omilning o'ziyoq, qo'shimcha ko'plab mablag'larni topib keltirib, universitetlar, Fanlar akademiyasi ilmiy-tadqiqot institutlarining iqtisodiy imkoniyatini oshirishi mumkin. **O'zbekistonda intellektual mulk huquqi bozori** (ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, shuningdek, kino, adabiyot va san'atga oid mualliflik huquqi egalriga sotilgan, teleefirga uzatilgan mahsulotlariga doimiy haq to'lash) **ham shakllanmagan.** O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga kirishining talablaridan biri – mualliflik huquqiga egalikni ta'minlashdan iborat. Bu borada qo'shnimiz Xitoy yoki istalgan davlatlarning boy tajribasini o'rganib, o'zimizda qo'llashga nima xalaqit beradi?

²⁵ <http://Tafakkur.egalari.uz> 2021 йил 24 февраль.

Bugungi kunda **respublikamiz oldida an'anaviy unsurlar va innovatsiyalarni, o'zbek ruhiyati va G'arb texnologiyalarini o'zida birlashtirgan yangi mamlakat qiyofasini shakllantirishdek vazifa turibdi.** Ushbu modernizatsiya jarayonida shaxs harakatlantiruvchi, yetakchi kuch, lokomotiv bo'lib xizmat qilishini unutmaylik. Eng muhimi, mamlakatimizda jamiyatning ustuvor tarmoqlarida yirik qadamlarni tashlashga, ota-bobolarimizning shavkatini tiklashga ko'plab imkoniyat mavjud. Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, xalqning, mamlakatning buyukligini tarannum etadigan jihatlari ko'p. Avvalo, jahon andozasiga javob beradigan raqobatbardosh kadrlar tayyorlovchi **mukammal ta'lim tizimini barpo etish uchun Xitoy, Yaponiya, Singapur, Malayziya davlatlarining ta'lim tizimi tajribasini o'rganadigan Ilmiy-amaliy markazlarning tashkil etilishi bu borada ulkan qadam bo'ladi, deb hisoblaymiz.**

"Oqqan daryo oqaveradi", degan hikmatda gap ko'p. Ko'p asrlik tanaffusdan keyin allomalar yetishgan qadimiy o'lkamizdan yana Samarqandiyalar, Xorazmiylar, Buxoriylar, Termiziylar, Nasafiylar yetishib chiqishiga ijodiy zamin va muhit yaratish vaqti keldi.

TIL – MILLAT RUHI DEMAK²⁶



“Milliy davlatchiligimiz va o‘zligimiz timsoli bo‘lgan ona tilimizni rivojlantirish eng muhim yo‘nalish bo‘lib qoladi. Xudo xohlasa, bu yil 21 oktabr – O‘zbek tili bayrami kunini butun mamlakatimiz miqyosida keng nishonlaymiz”, dedi Yurtboshimiz. Aslida, ushbu tadbirga sabab – davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2019 yil 21 oktabrda “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga imzo chekilganligi bo‘ldi.

2020 yil 23 sentyabr kuni mamlakatimiz siyosiy hayotida tarixiy voqea yuz berdi: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev BMT Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida o‘zbek tilida nutq so‘zladi. Prezidentimizning o‘z ma‘ruzasini ona tilimizda bayon etishi yuz yillik tariximizdagi nafaqat ijtimoiy, balki chuqur siyosiy hodisa hamdir. Mohiyat-e‘tibori bilan bu nutq milliy davlat barpo etish yo‘lidagi harakat ortga qaytmas ekanligini bildiradi. Bunday chiqishlar esa davlat va millatning eng oliy nishoni bo‘lgan ona tilimizning qadrini yanada balandga ko‘taradi. Yuksak minbarlarda ona tilimizda so‘zlangan ma‘ruza nafaqat O‘zbekistonda, balki butun turk dunyosida ulkan voqea sifatida iliq kutib olindi. Ha, ona tili ana shunday zalvorli, zabardast, qudratli kuchga ega, u millionlab qalblarni junbushga keltiradi, insonda milliy iftixor va g‘urur hissini uyg‘otadi.

Davlat tilini asrash-avaylash har bir millatning ham

²⁶ <http://xs.uz/uzkr/post/millat-ruhi-va-zhamiyat-ujgoqligi-kozgusi-Xalq-so'zi>, 20.10.2020.

qo'ldan kelmaydi. YuNESKO tomonidan nashr qilinadigan "Yo'qolib ketish xavfi arafasida turgan jahon tillari atlasida"da yozilganidek, Yevropada 50 ta, Tinch okeani mintaqasida 200 ta til yo'qolib ketish arafasida turibdi. Afrikadagi 1400 ta tildan 250 tasi yaqin yillarda, 600 tasi kelajakda butunlay yo'qoladi. Leypsig universiteti professori, atoqli lingvist Baltazar Bikelning so'zlariga ko'ra²⁷, Kavkazda atigi 3-4 kishi so'zlashuvchi tillar bor. Leypsigda bo'lib o'tgan lingvistlarning xalqaro anjumanida kam sonli xalqlarning tillari yo'qolib ketishiga globallashuv jarayoni aybdor, degan xulosaga keladi u.

Qonun jiddiy o'zgarishga uchraganmi?

Taniqli shoir, olim Mirzo Kenjabekning ta'kidicha, u Prezident devonida ishlagan kezlarda Davlat tili haqidagi Qonunni tayyorlash hay'atining a'zosi bo'lgan. Mashhur olim, rahmatlik Erkin Yusupov rais, Baxtiyor Nazarov, Akmal Saidov kabi olimlar faol a'zolardan edi. "Lekin hozir biz amal qilayotgan qonun 1989 yilda qabul qilingan Qonun emas, balki 1995 yilning 21 dekabrda deyarli "yashirin" uslubda o'zgarishga uchragan yangi tahrirdagi Qonundir", deb yozadi u.

Davlat tili haqidagi Qonun talablarini amalga oshirish borasida xayrli ishlar qilingan, yaxshi natijalarga erishilgan bo'lsa-da, Qonun amaliyotida ancha sustkashlikka yo'l qo'yilayotgani bosh sababi aslida ana shu shoshilinch, yashirin o'zgarishlarning qilingani bilan izohlanadi:

Birinchidan, davlat tili haqidagi 1995 yilda o'zgartirishlar kiritilgan Qonunda o'zbek tilini o'rganish zaruriyatini belgilaydigan yoki unga rag'batni oshiradigan biror band mavjud emas. Qonunga ko'ra, fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga ega. Bu degani o'zbek tilining jamiyatda hech qanday zaruriyati yo'q, degani. 1995 yilgi Qonunda O'zbekiston fuqarolarining davlat tilini bilishi,

²⁷ <http://ru.knowledgr.com/11437367/BalthasarBickel> <http://ru.knowledgr.com/04557236>

o'rganishi shartligi biror nuqtada qayd etilmagan. Shuningdek, biron davlat idorasiga ishga kirish yoki rasmiy tayinlovlarda davlat tilini bilish sharti belgilanmagan. Qisqasi, bu ifodalar boshqaruv sohasida va rasmiy muomalada urf bo'lgan rus tilining mavqeini mustahkamlab, rasmiylashtirib bergan.

Ikkinchidan, turli ma'muriy idora va muassasalar ona tilimizning to'liq, chiroyli holda joriy bo'lishiga loqaydlik bilan qarab kelishmoqda. Jumladan, ichki ishlar sohalarida davlat tiliga e'tiborsizlik uchrab turibdi. Turli tashkilotlardan aholiga keladigan ogohlantirish yoki qarzni to'lash haqidagi tahdidli xatlar yigirma yillardan beri asosan rus tilida jo'natiladi.

Uchinchidan, chetdan kirayotgan so'z, atama va istilohlarni ishlash butunlay bo'shashib ketgan, keyingi yillarda butkul to'xtab qoldi. So'zlar taqdiri – so'z, atama, istiloh, mafhum va mu'lamani teran anglamaydigan, his etmaydigan kishilar qo'liga o'tib ketdi. Hech bir qonun Davlat tili haqidagi Qonundek beqadr bo'lmagan²⁸

Ko'plab rahbar shaxslarning nutqi, gapirishi o'zbekcha bo'lsa-da, lekin tafakkur tarzi ruscha ekanligi ko'zga tashlanadi. Ayrim muammolarni yuzaga keltirayotgan **dardli masalalardan biri fikrlash, tafakkur tarzining orqada qolishi bilan bog'liq jarayonlardir.**

1989 yil 21 oktabrda qabul qilingan Davlat tili to'g'risidagi Qonun "yangi tahrir"ga uchragan bo'lsa-da, qonundan xalqimiz, millatimiz hayoti uchun suv bilan havodek zarur bo'lgan moddalarning chiqarib tashlanganini qanday tushunish mumkin? Dalillarga yuzlanaylik: avvalgi Qonunning 1-moddasida davlat tili o'zbek tili ekanligi belgilanib, "O'zbekiston Respublikasi o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq amal qilishini ta'minlaydi" degan band bo'lgan. 1995 yil 21 dekabrda qabul qilingan Davlat tili to'g'risidagi Qonunda bo'lsa,

²⁸ <https://uza.uz/uz/posts/parchalanmas-bir-diyer-zbek-tili-11-11-2019>.

mazkur modda olib tashlangan. **4-moddada:** "O'z faoliyatiga ko'ra aholiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq shaxslar xizmat vazifasini basharish uchun **davlat tilini zarur bo'lgan darajada bilishlari lozim**" deb yozilgan. "Yangi tahrir"da bu banddan voz kechilgan. O'zbek tilining nima uchun 30 yil ichida ancha xarob ahvolga tushib qolganining sabablaridan biri shu bo'lsa ajab emas.

Buni qarangi, 1989 yil 21 oktabrdagi Qonunning 16-moddasida "**Arab alifbosiga asoslangan qadimiy o'zbek yozuvi**"ni hayotning hamma jabhalarida o'rgatish, uni "o'quv fanlaridan biri sifatida o'qitish ta'minlanadi" deb yozilgan va "buning uchun ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlanishi", bu yozuvda "o'quv qo'llanmalari kitoblar, gazeta va jurnallar nashr etilishi" belgilangan edi. **1995 yil 21 dekabr**dagi Qonunda ushbu modda tag-tomiri bilan yo'q qilingan. Xalqni o'z asliyatidan uzoqlashtirishga, qadimiy manбайдan mahrum etishga qanday qilib jur'at etishdi ekan?!

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoevning "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida (2019): "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan takomillashtirgan holda, uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritsin" deb ko'rsatilgan. Olimlarimizning uqtirishicha, yangi tahrirdagi bo'lajak Qonunga o'zbek xalqining o'n ikki-o'n to'rt asrlik ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-madaniy va badiiy xazinalarini o'zida jamlagan arab alifbosi asosidagi qadimiy o'zbek yozuvini o'rgatish masalasi ham tiklanishi zarur. Sabab? Hozirgi kunda Abu Rayhon Beruniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti qo'lyozmalar xazinasida o'n minglab noyob durdona manbalar o'rganilmay egasini kutib yotibdi-da.

Jahon tarixida hech bir millat yozuv borasida o'zbek xalqidek buyuk musibatga uchramagan. Bu qadimiy xalq XX asr-

da uch marta imlo inqilobini boshidan kechirdi. Arab yozuvi VIII asrdan boshlab XX asrning 1929 yilgacha, eski turkiy (o'zbek) yozuvi sifatida XI asrdan 1929 yilgacha, demak, arab yozuvida 12 asr, eski turkiy yozuvida 10 asr qo'llanilgan. Xalqimizning jahon tarixidagi eng sharafli, buyuk, o'lmas ilmiy-ijodiy asarlari shu yozuvda bitilgani haqiqat. **Imlo – millatning taqdiri, tarixiy merosning tili va kelajakning poydevori!** Endi navbatdagi xatoga yo'l qo'yishga haqqimiz yo'q. Millat hayotini, ta'lim tizimini tajriba, sinovlarga sarflab, asl maqsaddan chekinmaslik kerak.

Bugungi kunda Alisher Navoiy asarlari lug'ati, Bobur asarlari lug'ati, hatto Mashrab she'riyati, Abdulla Qodiriy asarlari lug'atini tartibga keltirish fursati yetib kelgan. Fikrimizcha, o'zbek tilining imlo lug'ati va izohli lug'atini butkul qaytadan tuzish, unda Mavlono Lutfiy, Alisher Navoiy ijodidan tortib to bugungi kungacha bo'lgan so'z xazinalarini jamlash lozim. Lug'atlarning hammasini yangicha ruh va qarashlar asosida tuzish, bu ezgu ishlarga iste'dodli va ilimli yosh olimlarni jalb etish darkor.

Muammolar o'zimizniki, uni yechish ham qo'limizda

Yuqoridagi muammolardan anglashimizcha, o'zbek tiliga davlat maqomi berilgandan keyin oradan 30 yil vaqt o'tsa hamki, ona tilimiz tom ma'noda o'z mavqeiga, yuksak maqomiga ega bo'la olmadi. Nega bunday bo'ldi, degan haqli savol tug'iladi.

Birinchidan, Qonun talabiga ko'ra, davlat idoralarida ishlab o'zbek tilini bilmaydigan boshqa millat vakillariga davlat tilini o'zlashtirishi uchun berilgan muddat o'tib ketganiga qaramasdan, davlat tuzilmalarida o'zbek tilini bilmaydiganlar hamon bemalol ishlashmoqda.

Ikkinchidan, televidenie, radio va boshqa ommaviy axborot vositalarida adabiy tilda emas, balki shevada gaplashish odatga aylanib bormoqda.

Uchinchidan, ko'chalarda, ommaviy joylarda, savdo va xizmat ko'rsatish shaxobchalarida "Davlat tili to'g'risida"gi Qonun talablari qo'pol ravishda buzilmoqda. Jumladan, har xil afisha, reklama, e'lonlar boshqa tillarda yozilishi holatlari har qadamda uchraydi, shuningdek, davlat tilida yozishlarda ko'p xatoliklarga yo'l qo'yilmoqda. Sof adabiy tilda bironta fikr uyg'otuvchi shior, chaqiriqlarni ko'rmaymiz.

Biz tilimizga davlat maqomi berilgan 21 oktabr kunini har yili qandaydir chora-tadbir o'tkazish bilan cheklanyapmiz, amalda tilimiz rivojiga e'tiborsiz, loqayd bo'lib bormoqdamiz. Til millatning asosiy atributi bo'lib, unga ahamiyat bermaslik millatga, elga befarqlikdir. O'z millatini, yurtini e'zozlagan har bir kishi ona tilini ulug'laydi. **Milliy g'ururi bo'lgan inson o'z ona tilida ravon so'zlasha olishi va yoza bilishi shart.** Qancha ko'p til bilsangiz, shuncha yaxshi, lekin birinchi navbatda ona tilini yaxshi bilmoq zarur, ya'ni boshqa tillarni bilishimiz o'z ona tilimizni kamsitish hisobiga bo'lmasligi kerak.

Davlat tilining e'tiborsiz qolayotganligi boisi shuki, tirikchilik tashvishlari va boshqa omillar ta'sirida yoshi kattalar, xususan, yoshlarimiz orasida kitob o'qishga, ilm olishga ishtiyoq susaydi. Kitob, gazeta, jurnal mutolaa qilmagan insonning til boyligi cheklanib, u maishiy darajada ishlatiladigan so'zlardan nariga o'tolmaydi. Bilimli, ma'rifatli, keng fikrli bo'lishning asosiy omili kitob. Badiiy, o'quv, ilmiy kitoblarni o'qish nafaqat dunyoqarashni kengaytiradi, balki dunyoviy, diniy savodxonligimizni oshirib, yozma va og'zaki nutqimizning boyishiga olib keladi.

Bugungi kunda ruscha so'zlarni ishlatish taomilga kirib bormoqda. Atoqli olimlar, adabiyot arboblari, o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilarining ta'kidlashicha, ona tilimizda yaxshi andozasi bo'lgan ba'zi so'zlar xorijiy nomida taomilga kiritilmoqda: departament – boshqarma, idora, birlashma; komissiya – hay'at, kommunikatsiya – jamlamoq, bog'lamoq, xabar almashuv (jarayoni); konsepsiya – maqsadlar nizomi,

maqsadlar tarkibi, yo'nalishlar tizimi, qoidalar tizimi; monitor – kuzatuvchi, ogohlantiruvchi; monitoring – kuzatuv; motoriy – to'xtatuv, kamaytiruv; organ – idora, muassasa, tashkilot (davlat idoralari, davlat muassasalari); termin – atama, istiloh; shtat – ish o'rni (isho'rni), xizmat o'rni. Ro'yxatni istagancha davom ettirish mumkin. Hamma gap boshqa ma'no kelib chiqishi va o'sha so'zlarning xalqimiz ongiga singib ketishidan saqlanishdan iborat.

Til taraqqiyotidagi muammo va ziddiyatlar Yevroosiyo mintaqasidagina emas, balki dunyoning ko'plab mamlakatlari uchraydi. Hozirda qandaydir noodatiy shevada, ya'ni oxirigacha o'rganilmagan o'zbek tili, yoddan chiqib borayotgan rus tili, reklamalardagi ingliz tili va axborot-texnologiyalari virtual tilida so'zlashuvchi kishilar paydo bo'lmoqda. Ona tiliga bo'lgan har qanday ijobiy yoki salbiy munosabat muqarrar ravishda milliy g'ururga, mentalitetga sezilarli darajada ta'sir etadi. Agar **ona tiliga e'tibor susaya boshlasa, o'ziga xos nihilizm** (lot. nihil – "hech nima" – mavjud ijtimoiy hayot shakli va axloqiy normalarni, madaniy meros hamda ideallarni inkor etish) **kuchayadi**, yoshlar o'z ajdodlarining madaniy-tarixiy merosini asta-sekin unuta boshlaydi, kishilarning ongida asta-sekin nomukammallik tuyg'ulari bosh ko'taradi.

Eng dahshatlisi, tilni yo'qotish yoki nufuzini pasaytirish tufayli millatning genetik kodi ham o'zgara boshlaydi.

O'zbek tilini yurt fuqarolari bilishi zarurmi?

Shu mamlakatda yashagan barcha millat, elat fuqarolari o'zbek tilini, mahalliy xalqning adabiyoti va san'atini, boy tarixini, ilmiy merosini bilishi bugungi davrning talabi. Buning aksi bo'lsa-chi? Unda necha yillab noni, tuzini yegan yerlik aholiga, millat sha'niga qaysi ma'nodadir beodoblik, hurmatsizlik qilinganini bildiradi. Axir, Amerikaga, Germaniyaga borib yashayotgan turk, hind, xitoylik, eronlik ish faoliyati yurishib ketishini istagan holda, ingliz, nemis tillarini

maxsus o'rganadi-ku. Yoki noto'g'rimi? Nazarimizda, bugungi talab va insoniy ehtiyojlarni (qonun va idora hujjatlari bunga imkon qoldirmagani uchun biz shu tuyg'uni shakllantira olmayapmiz) chuqur o'rganib, davlat tilini bilmaganlar uchun til o'rgatish kurslarini bepul tashkil etishimiz lozim.

Bir guruh ziyolilar 2019 yil 1 may kuni **"Vesti.uz"** internet saytida O'zbekistonda rus tilini rasmiy til darajasiga ko'tarish, "Davlat tili haqida"gi qonunga o'zgartish kiritib, unga o'zbek tili kabi huquqiy maqom berish taklifi bilan chiqdilar. Kutilmagan chiqish ziyolilar tomonidan noroziliklarga sabab bo'ldi. Mana, til muammosida "bo'shliq" qoldirganimiz nima oqibatlariga olib keldi?! Rus tiliga O'zbekistonda rasmiy til maqomi berilishi milliy davlatchilik ildiziga putur yetkazishga olib kelishidan xatga imzo qo'yanlar bexabarmidi? Har qanday davlatning negizida, tubzaminida til turishini bilishmasmidi? Bilishardi! "Rus tili bizga begona emas" deb xat chiqargan o'n sakkiz nafar ziyolining ortida qaysidir davlat siyosatdonlari turishganiga hech ajablanmang. Globallashuv davrida bunday siyosiy "o'yin"lar, shaxmat taxtasi ustida ot surishlar (Zb. Bjezinskiy) tez-tez sodir bo'lib turadi.

Yana bir muammoni tilga olib o'tishimizga to'g'ri keladi. Qo'shni davlatlarning qonunlari matni bilan tanishgan taniqli adabiyotshunos olim Zuhridin Isomiddinov O'zAda e'lon qilingan "O'zingdan chiqqan baloga..." nomli maqolasida²⁹ qonunimizning o'zi nomukammal ekanini kuyinib quyidagilarni yozadi: **"O'zbekistonda davlat tili to'g'risidagi qonun 5.187 belgidan iborat bo'lsa, u Qozog'istonda 15.013 belgi, Turkmanistonda 15.468, Qirg'izistonda 14.063, Ozarbayjonda 12.000, Rossiya Federatsiyasida 10.158, Tojikiston davlat tili to'g'risidagi qonunida 8.600 belgini tashkil qiladi. Markaziy Osiyodagi eng "kichkina" qonun shu mintaqadagi eng katta davlatga tegishli bo'lib o'tiribdi?!"**

²⁹ <http://uza.uz/oz/society/zingdan-chi-an-baloga-03-05-2019>
Isomiddinov Z. O'zingdan chiqqan baloga.

Demak, xatoyimizni shu kunlarda to'g'rilab qo'yishning fursati yetibdi.

Til zaxiramizni boyitamiz

O'zbek tilini dunyo bo'yicha 30 milliondan ko'proq odam ona tili, deb biladi; ikkinchi til sifatida biladiganlar hisobiga bu son 50 millionga yetadi. Tojikiston, Afg'oniston, Qirg'izistonda millionlab o'zbeklar yashaydi; Qozog'iston, Turkmaniston, Rossiyada ham ko'pchilik; Turkiya, Saudiya Arabistoni, Pokiston, AQSh, Janubiy Koreyadagi diasporalarni qo'shsak, qolaversa, o'zbek tilining Shinjon-Uyg'ur muxtor o'lkasiga (Xitoy) madaniy ta'sirini inobatga olsak, o'zbek tilining asosiy mintaqaviy til bo'lishga yetarli resurslar mavjudligini his qilamiz.

Haqiqatan ham, O'zbekiston nihoyatda ulkan til resursiga ega davlat. Mumtoz adabiyotimizga oid tadqiqotlar ko'lami yildan yilga kengayib bormoqda. So'nggi yillarda Alisher Navoiyning 20 jildlik mukammal asarlari to'plami, 5 jildlik "O'zbek tilining izohli lug'ati" (80 mingdan ortiq so'z va so'z birikmasi, fan, texnika, san'at, madaniyat sohalariga oid atamalar, sheva so'zlari, tarixiy terminlar), "O'zbek tilining imlo lug'ati" chop etilishi, Xalq ta'limi vazirligi tomonidan har yili oktabr oyida yurtimizdagi barcha umumta'lim maktablarida o'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha fan oyligi, maktablarda "Ona tilim – faxrim, g'ururim", "Til – millat ko'zgusi" mavzularida insholar tanlovi o'tkazilishi, "O'zbek tilini o'qitish metodikasi", "Ona tili ta'limida uzviylik", "Nutq madaniyatini o'rganish", "Til va adabiyot o'qituvchilarining vazifalari", "O'zbek tili" (mustaqil o'rganuvchilar uchun), "Ona tili fanidan plakatlar to'plami", "O'zbek tili fanidan adabiy-ma'rifiy matnlar to'plami", "Nutq madaniyati" kabi qator qo'llanmalar yaratilishi, gazetalar chop etilishi ta'lim tizimidagi ijobiy voqealardir. Ammo shu bilan birga, o'quvchilarning yozma savodxonligini oshirish, ona tili va adabiyot fanini rivojlantirish uchun

ikki tillik so'zlashuv, lug'atlarni chiqarish, bog'cha, maktablarda to'g'ri, ravon so'zlash madaniyatini shakllantirish kabi ishlar oldimizda turibdi.

Vaqtı keldi, anchadan buyon yechimini kutayotgan yana bir muammoni aytib o'tsak. O'zbek tiliga oid darsliklar XX asr boshidan to'raligicha rus tilshunosligiga, qardosh til qoidalariga bo'ysungan holda yaratilgan. 1939 yilda O. Usmonov va B. Avezovlar muallifligidagi "O'zbek tili grammatikasi" kitobi chiqdi. **"Afsuski, darslik S.G. Barxurdarov va Ye.I. Doiskovlarning "Grammatika russkogo yazika" kitobi asosida tuzilgan.** Bu kitobda o'zbek tili nazariyasi ilk bor biz hozirda o'qiyotgan ko'rinishga keltirildi. Rus tilidagi qoidalar o'zbek tiliga ko'r-ko'rona joriy etildi", deydi yosh olim Eldor Asanov. – Masalan, rus tilida oltita kelishik borligi uchun o'zbek tilida ham kelishiklar soni oltita qilib belgilandi. So'z turkumlari-ning kategoriyalari va turlari rus tilidagiga moslandi. Chet el so'zlari rus tili orqali olinishi va rus tili fonetikasi bo'yicha talaffuz etilishi belgilandi".

Buni qarangi, sakson yildirki, sun'iy yo'l bilan yaratilgan til qoidalari "to'g'ri o'zbek tili" sifatida o'qitilayotgan ekan?! Ha, o'zbek tilini o'qitishdagi katta muammolar ildizi sovet davriga borib taqaladi. U davr metodikalari yangilanmasligi esa mutaxassis va ziyolilarning konservativligi, zamonaviy ilmiy diskurslar o'zbek akademik fanida qabul qilinmayotgani, sohada yetarlicha mablag' yo'qligi bilan belgilanadi.

Xo'sh, tilimizning xalqaro nufuzini ko'tarish yo'lida nima qilishimiz kerak? Bizning nazarimizda, diaspora va irredentalarni madaniy qo'llab-quvvatlash, butun dunyoda o'zbek tili va madaniyati o'rganilishini, o'zbek tili kafedralari ochilishini moliyalashtirish, tilga oid xalqaro konferensiyalarni tashkil etish, mutaxassislarning mobilligini oshirish, o'zbek tilidagi sifatlari, xalqaro ahamiyatga ega kontentni ko'paytirish, xorijliklarning tilimizni o'rganishini rag'batlantirish, mintaqada O'zbekiston biznesi qamrovini kengaytirib, o'zbek tili-

ni uning asosiy tiliga aylantirish (deylik, Janubiy Koreya, Ros-siyadagi qo'shma korxonalar xodimlari yoki ularning filiallari ishchilariga tilimizni o'rgatish) navbatdagi amaliy tadbirla-rimiz qatoriga kiradi. Albatta, bu tashkiliy-huquqiy ishlarni birdaniga emas, qadamba-qadam ro'yobga chiqarsa bo'ladi. Misol uchun, hozirning o'zida jahonning 60 dan ziyod oliy o'quv yurtlarida, jumladan, Kebrij, Pekin, Tokio, Nyu-York, Seul universitetlarida o'zbek tili maxsus o'qitiladi.

Takliflar

O'zbek tili rivojiga oid ba'zi takliflarimizni ham keltirib o'tamiz: Internetda o'zbekcha kontentni keskin ko'paytirish (Vikipediya, Google), o'zbek tilidagi veb-saytlar, e-kutubxonalar sonini ko'paytirish, uning sifatini yanada oshirish; milliy kino va teatr, adabiyot va san'at sohasida yangi ruh va yuqori saviyadagi (Tog'ay Murod asarlari yanglig') badiiy asarlarni ko'paytirish; tasviriy oyina tasvirlagan ko'chalarimiz pesh-taxtalaridagi yozuvlarni tanqidiy ko'rib chiqish... Ma'lumki, hozirgi vaqtda Abu Rayhon Beruniy nomidagi ilmiy-tadqiqot instituti qo'lyozmalar fondida minglab durdona manbalar o'rganilmay o'z egasini kutib yotibdi. Arab, fors tilida yozilgan qo'lyozmalarni o'rganish, kitob holda nashr etish, uni xalqimizga va jahon ommasiga, ilm-fan ahliga yetkazishda yetuk mutaxassislar yetishmaydi. Ana shu o'ta muhim masalaga yechim topish maqsadida biz **Matnshunoslik va man-bashunoslik institutini ochishni maqsadga muvofiq**, deb hisoblaymiz.

2020 yil boshidan Vazirlar Mahkamasida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilib, uning qoshida Atamalar komissiyasi o'z faoliyatini boshlagani, vazirlik va idoralarda davlat tili bo'yicha rahbar maslahatchilari lavozimi joriy qilini-gani bu borada tashlangan yaxshi qadamlardir. Buning ustiga, "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bu-gungi kun talablari nuqtai nazaridan takomillashtirgan holda

yangi tahrirdagi loyahasini ishlab chiqishga kirishildi. Yangi Qonun xalqimiz orziqib kutgan, o'zbek millati obro'-nufuzini ko'tarishga xizmat qiladigan yuksak darajadagi mukammal hujjat bo'ladi, deb ishonamiz.

Qolaversa, **1939 yildagi kamchilikni bartaraf etib, o'zbek tilida milliy metodikani tezlikda ishlab chiqish zarurati kuchaygan.** Buning uchun tilshunoslarimiz nihoyatda katta nazariy ishlar olib borishi, ulkan faktik materialni to'plashi, ko'plab darsliklar, lug'atlar, tezauruslar, matn korpuslarini yaratishi; fundamental lingvistikani rivojlantirishi talab etiladi. Bugungi o'zbek tilshunosligida va o'zbek madaniyatida tilni doimiy yangilab, o'zgartirib borish tarafdorlari u qadar yetarli emasligini ham bilamiz; aksincha, eski qoidalarga yopishib olib, ularni hammaga majburlab o'rgatuvchilar topiladi. **Til – doimiy o'zgarib boradigan dinamik hodisa** ekanligini dildan his qilib, tilni zamon ehtiyojlari hamda xalq tilidagi o'zgarishlarga qarab doimiy ravishda yangilab borish zarurati mavjudligini unutmaylik. Bugungi kunda ta'lim tizimimiz fan metodikalarining eskirganligi, darsliklar, o'quv qo'llanmalarni tayyorlaydigan bo'limlar hamda tuzilmalarning ozligi, dars berish metodikasi va baholash tizimida urg'ular ikkinchi darajali omillarga qaratilayotgani masalasi ham ko'rib chiqish kerak.

Ana shunaqa gaplar...Axir, ota-bobolarimiz ona tili – millat ruhi va jamiyat uyg'oqligining ko'zgusi, deb bejiz aytishmagan.

ALISHER NAVOIY - BIZNING IDEALIMIZ³⁰



Hirotning Bog'i davlatxona mavzeyida, temuriylar xonadoniga yaqin bo'lgan davlat xizmatchisi G'iyosiddin Bahodir oilasida tavalud topgan Nizomiddin Mir Alisher fenomenal hofiza quvvatiga ega shaxs bo'lib, 7 yoshida Farididdin Attorning "Mantiqut-tayr" asarini hamda buyuk muhaddisimiz Imom Ismoil Buxoriy hazratlarining mingdan ziyod hadisi shariflarini yoddan bilgan. 7-8 yoshlaridan boshlab g'azallar yoza boshlagan.

Badiiy adabiyotning bosh vazifasi – insonshunoslik, insonning mo'jizaviy qudratini ochib berish. Bu borada tasavvuf ilmining imkoniyati cheksiz, deb o'ylaymiz. Sharq xalqlari ma'naviyati tarixida chuqur iz qoldirgan diniy-falsafiy ta'limot – tasavvufning paydo bo'lishi, tadrijiy rivoji, asosiy jihatlarini bilmay turib, hazrat Alisher Navoiy (1441-1501) ning ijodiga baho berish mushkul. Tasavvuf – inson kamoloti, axloqiy poklanish haqidagi ilm bo'lgan, mazkur tushuncha komil inson konsepsiyasida muhim nuqta sanalgan. Insonning botiniy olami, ichki ziddiyatlari, ruh va jism orasidagi kurash so'fiylarni ko'p qiziqtirgan. Komil inson – bir ideal,

³⁰ https://uza.uz/uz/posts/bugun-mumtoz-adabiyotni-tasavvufni-biluvchi-pedagoglar-etishmaydi-yoxud-alisher-navoiy-chin-manoda-demokrat-edi_239945 08.02.2021

barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, qalbi ezgu tuyg'ularga limmo-lim pokiza zot, Navoiy tili bilan aytganda:

Foniyvasheki, ham so'zidur pok, ham o'zi.

Xush davlat ul kishigaki, tushgay aning ko'zi.

Tasavvufahli sig'ingan ideal – Komil Inson aslida xalq ideali, adabiyotning ideali edi. “Bu hayotbaxsh ta’limotning peshvolari yozib qoldirgan asarlar, so’fiyona ruhdagi she’ru dostonlarni mutolaa qilar ekanmiz, yorug’likning zulmga, fayzu kamolning noqislik, kaltafahmlik va nodonlikka qarshi omonsiz jangiga guvoh bo’lamiz”³¹, deydi ustozimiz, professor Najmiddin Komilov. “Ma’rifat – jahl-nodonlikka qarshi jang” (Tustariy)da so’fiylar Ka’ba deb ko’ngilni tan oladilar, ko’ngil ra’yiga yuradigan, dunyoni ko’ngil orqali biladigan va ko’ngilga sig’inadigan odamlarni Allohning sevgani, deb biladilar. Navoiy ana shu ajoyib an’ananing munosib davomchisi va yalovbardori bo’lgan. Darvoqe, Komil inson insonlar jamiyati ichidan yetishib chiqadigan mo’tabar zotdir. U azaldan martabasi aniq bo’lgan ruh emas, balki axloqiy-ma’naviy poklanish jarayonida kamolga erishgandir. **Komillikning oliy belgisi Haq yo’lidan borib xalqqa foyda keltirishdir.** Kishi o’z so’zi, amaliy ishlari, niyati bilan qanchalik odamlarga naf keltirsa, yomonlarni to’g’ri yo’lga solsa, Haq yo’lida fido bo’lsa, u shuncha komildir. Alisher Navoiyning o’zlari ham komillik maqomiga yetishgan zot edilar.

Navoiy 1498 yilda “Lison ut-tayr” (“Qush tili”), 1499 yilda “Muhokamat ul-lug’atayn”, 1500 yili “Mahbub ul-qulub” asarlarini yozib bitiradi. Bu uch asar buyuk shoir va mutafakkir ijodining avj nuqtalari edi. “Muhokamat ul-lug’atayn” (“Ikki til muhokamasi”)da o’zining butun ijodiy yo’lini sarhisob qilib, turkiy tildagi she’riyatning qudratini ta’kidlagan. Jumladan, unda quyidagi ma’lumot bor: “Chun “Lison ut-tayr” ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili ishorati bila haqiqat as-

³¹ <https://kh-davron.uz/kutubxona/islomiy-adabiyot/tasavvuf/najmiddin-komilov-tasavvuf-7-komil-inson.09.03.2019>.

rorini majoz suratida ko'rguzupmen". Alisher Navoiy go'daklik chog'laridan tasavvuf she'riyati yirik namoyandasi Fariddin Attor yaratgan "Mantiq ut-tayr" asariga mehr qo'ygani edi. Umrining oxirida ushbu asarga tatabbu – javob yozar ekan, o'zining shungacha yozgan barcha asarlariga falsafiy yakun yasaydi. Attor asari Borliqning yagona mohiyati, Haq asrori va inson uchun uni anglab yetish imkoni darajasi haqida edi. «Lison ut-tayr» mazmuni «Mantiq ut-tayr»ga zid yoki undagi fikrlarning takrori ham emas, balki yangi tarixiy-ma'naviy bosqichdagi sharhi, talqinidir.

Alisher Navoiy XV asrning oxirgi o'n yilligida o'zining «Majolis un-nafois» va islom ma'naviyatining buyuk siymolari, xususan, turk, fors, hind mashoyixlari tarixiga oid «Nasoyim ul-muhabbat» («Muhabbat shabbodasi»)ni yozadi. Bu asarlarda ma'naviyatning jonli siymolaridan mingga yaqin kishi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. Navoiy tasavvufiy faoliyatida Bahouddin Naqshband g'oyalarini shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi – Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda rivojlantirgan. Hatto ul zotning ustoz, xassos shoir Abdurahmon Jomiy, zabardast shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Boburlar ham Xoja Ahrorni o'zlarining ma'naviy piri murshidlari sifatida ehtirom qilganlar, unga atab asarlar bitganlar. **«Shayxlar shayxi» deb nom olgan zotning gapini biror hukmdor, hokim, shahzoda ikki qilmagan.** Xoja Ahrorni buyuk shoir Abdurahmon Jomiy «Ka'bai maqsud» desa, Alisher Navoiy «Tariqat qutbi», deb sharaflagan edi.

Navoiy – saltanatning ustuni, adolatning timsoli

Nizomiddin Mir Alisher Xuroson saltanatida buyuk shoirgina emas, yetuk shaxs va adolatning timsoli edi. Hazrat Navoiyning adolati uning katta-kichik barcha ishlari, nozik ta'b asarlari, jamiyat va el-ulusga bo'lgan munosabatlarida to'la aks etgan. Navoiy yashagan davr va uning nomi bilan bog'liq asarlar haqida

A.Hayitmetov, A.Qayumov, A.O'rinboev, N.Komilov, S.G'anieva, I.Haqqul, Yu. Tursunov, M. Hasanov singari olimlarning qimmatli tadqiqotlari yaratilgan. Temuriylar zamonida madaniyat, ilm-fan yuksak darajada gullab-yashnagan edi. Xususan, Navoiyning maktublarida, chindan ham, u «saltanatning ustuni, hoqonlikning kifti» bo'lganligini ko'rsatadi. Navoiy shahzodalar va ko'proq Badiuzzamon Mirzoga yozilgan maktublarida ularni mamlakatni qanday boshqarish san'atiga o'rgatadi. Temuriylar uchun alohida ahamiyat kasb etgan ota va o'g'il munosabatlari muttasil diqqatni jalb etadi. Shahzodalarda qadim turkiy va islomiy madaniyat asosida yuksak axloqiy sifatlarni tarbiyalashga jiddu-jahd qiladi, shuningdek, zamondoshlari to'g'risida nozik ma'lumotlarni qayd etib boradi...

Navoiy o'zbek mumtoz adabiyotida «Munshaot» deb ataladigan yangi bir janrni boshlab beradi. Maktublar bir odamning ikkinchi kishi bilan bevosita suhbat va muloqoti. Bir ibratli misol: Alisher Navoiyning betobligini eshitgan do'sti Husayn Boyqaro unga maxsus maktub yuborib, ahvol so'ragan bo'lsa kerak, Navoiy unga ushbu javobni yozadi: «Inoyat qilib so'rdira yiborilgan inshongkim, yetti, aytsa bo'lg'aykim, badanda harorat shu'lasidin sharare va ko'ngulda iztirob shiddatidin asare qolmadi. Bitikingdinki, savodini ko'rib jon topdim».

Alisher Navoiy "muqarrabi hazrati sultoniy" ("sulton hazratlari eng yaqin kishisi") degan unvonga ega edi. Unvon davlatning barcha ishlariga aralashish huquqini berardi. Uning kichik zamondoshi Zayniddin Vosifiy "Badoe' ul-vaqoe" asarida shunday lavhani keltiradi. Bir kuni u namoz vaqtida Husayn Boyqaroning huzuriga keladi. Namoz paytida podshoh huzuriga kirib arz qilish huquqi faqat Alisher Navoiyga berilgan edi. Husayn Boyqaro nima hodisa bo'lganini so'raganda, Mirhoji Pir degan zolim amir boylik va martabadan quturib, o'zini podshodan ham baland olayotganini, ko'chalaridan taxtiravonda ulug' sultonlar muyassar bo'lmagan nash'u

namo va tantana bilan o'tganini shunday bo'rttirib tasvirlaydiki, Husayn Boyqaro hovliqib ketgan bu amirning harom yo'l bilan orttirgan molu mulkini musodara qilishni buyuradi.

Baxil kuchlar Husayn Boyqaro bilan uning katta o'g'li Badiuzzamon Mirzo orasiga nizo urug'ini sohadilar. Shunda tabarruk zotning bir necha maktublari ota bilan o'g'ilning orasida paydo bo'lgan nizoni bartaraf qilishga yo'naltiriladi. Navoiyning guvohlik berishicha, bu nizo ko'proq o'g'ilning kibru havoga berilganligidan kelib chiqqan edi. Astrobodga hokim qilib tayinlangan Badiuzzamon Mirzo otasining xazinasiga viloyatdan yuborilishi kerak bo'lgan mol-mablag'ni yubormaydi. Navoiy yozadi: Yana bitibsizkim, "Astrobodga kishi yubormangkim, bermagumdur». Bu mazmunni ham muloyimroq bita olur erdingiz...". Navoiy hovliqib ketgan shahzodaning xatolarini aniq dalillar bilan isbotlab beradi. Maktublar samimiyat va jonkuyarlik bilan yozilgani uning har bir satridan sezilib turadi. 37 raqam qo'yilgan ikkinchi maktubda Navoiy Badiuzzamon Mirzoga "majlis qurib chog'ir icharga ko'p hirs ko'rsatilmasa, kutubxona ahli bilan mashg'ullik qililsa, tavorix o'qumoq buyurilsa..." Shu nasihatlar orasida Navoiy Amir Temurning Husayn Boyqaroga to'rtinchi nasab ekanini, shu sababli har hafta juma namozida Temurbekning nomini xutbaga qo'shib o'qitishini so'raydi.

"Siz esa inshongiz tug'rosidan Mirzoning muborak otin chiqaribsiz", deb Navoiy shahzodaning yana bir xatosi – otasiga hurmatsizlik qilganini aytadi. Hadisi sharifdan payg'ambarimiz Muhammad s.a.v.ning quyidagi so'zlarini keltiradi: "Tengri taolo rizosi ota rizosiga vobastadir. Tengri taolo g'azabi ham ota g'azabiga vobastadir. Mashoyixlar "valeduka rabbuka", ya'ni "otang parvardigoringdur" deganlar".

Navoiy – ma'naviy pirimiz

Biz Navoiy asarlarini anglashni boshlasak, milliy uyg'onish jarayoni tezlashadi, Uchinchi renessansni qurishimiz yen-

gillashadi. Albatta, renessans asoslarini yaratishda Navoiy ma'naviy pir, Amir Temur moddiy madadkor missiyasini bajaradi. Hazrat Alisher Navoiyga kelsak, ul zot ma'naviy-ruhiiy dunyosining ko'proq ikki jihatini: jahon ma'naviyat olamiga qo'shgan ulushini hamda shoir oldidagi ma'naviy qarzimiz miqdorini chuqur his etish vaqti yetdi.

Xamsanavislik, gumanizmni yoqlash, adolatli podsholikka chorlash, komil insonni ulug'lash, tasavvuf ilmini yuksaklikka ko'tarish, oilada tarbiyaga urg'u berish, ustoz-shogirdlikni tiklash, baynalmilallik, tilni kamolotga yetkazish Hazratning benazir xizmatlari bo'lsa, "Xamsa", "Xazoyin-ul maoniy" va barcha nodir asarlariga joylangan ma'naviy xazinani tushunish, komil inson bo'lishga intilish, adolatli jamiyatni qurish, **jamiyatda ma'rifatli insonlarni qadrlash** kabi siyosiy tadbirlar pir oldidagi qarzlarimizdir.

Bizga ma'lumki, demokratiya, so'z erkinligini ko'pincha G'arb mamlakatlarining mevasi, deb talqin etadilar. Haqqoniy, xolis axborotning saltanatni boshqarishdagi ahamiyati xususida **"Sen shohsen - agar ogohsen, agar ogohsen shohsen sen"**, deb bundan besh yuz yil oldin xitob qilgan Alisher Navoiy chin ma'noda demokrat edi. "Shoirning fikricha, insonning qadr-qimmatini uning mol-mulki bilan emas, balki ma'naviy qiyofasi, axloqiy sifatlari bilan o'lchandi. Navoiy falsafasida siyosiy nazariya (ideal davlat qurish) va axloqiy nazariya (komil inson ta'limoti) uzviy bog'liqlikda ifodalanadi. Ijtimoiy-siyosiy masalada shoir gumanistik ta'limotni yaratdi: shohni bog'bonga, mamlakatni bog'ga qiyosladi, unga ko'ra, bog'bon oqil, mehnatsevar bo'lsa, bog'i gullab yashnaydi, podshoh ma'rifatli, bilimdon, adolatparvar bo'lsa, xalqini sevsa, mamlakati obod bo'ladi!"³².

Navoiy xalqlar o'rtasidagi buyuk do'stlikni o'z asarlarida tarannum etgan. Qarangki, shoir dostonlarining qahra-

³² Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. - T.: Aloqachi, 2019. - B. 49.

monlari ham turli xalq vakillari: Shirin – arman qizi, Farhod – xitoy o‘g‘loni, Shopur – eronlik, Ma’sud – hind, Layli va Majnun – arab, Iskandar va uning maslahatchilari Arastu, Buqrot, Suqrot – yunonlik bo‘lishgan.

Mir Alisher Navoiy ma’naviy pirimiz, biz uchun ideal, doimo intiladigan yetuk siymo, fenomenal shaxs! Buyuk shoirning milliy ma’naviyatimiz uchun qo‘shgan olamshumul hissasi haqiqiy jasorat namunasi edi. Shu bois, Zahiriddin Muhammad Bobur “Turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘p va xo‘b aytqon emas”, deb e’tirof etadi.

Qila olg‘uncha ul bo‘lsin shioring,

Ki yaxshi ot qolg‘ay yodgoring.

Alisher Navoiy butun umrini nafaqat ijodga, balki xalq farovonligi yo‘lida bunyodkorlik, ezgulik va xayr-saxovat ishlariga bag‘ishlagan. Ha, Navoiy umri bo‘yi millat qayg‘usida yashagan, o‘z jamg‘armasi hisobidan Hirotda va butun Xuroson mamlakatida 300 dan ortiq inshootlar qurdirgan saxiy inson edi...

Ayrim kamchiliklar...

Yurtimizda Alisher Navoiy tavalludining 580 yilligi yuksak darajada nishonlanmoqda. Nazmiy asarlari 120 ming baytdan ortiq, jumladan, “Xamsa” besh dostoni 51230 misra, “Xazoyin ul-maoniy” (“Ma’nolar xazinasini”) devoni esa qariyb 45 ming misradan tashkil topgan. Hazrat Navoiyga ma’nan yaqinlashish, asarlarida jo bo‘lgan tasavvufiy ma’nomlarni yaxshi tushunish borasida tan olish lozimki, ayrim kamchiligimiz mavjud. Prezidentimizning 2021 yil 4 fevralda **“Alisher Navoiy nomidagi xalqaro jamoat fondini tashkil etish to‘g‘risida”**gi qabul qilgan qarori ana shu ishlarni yakuniga yetkazish borasida shaxdam qadam bo‘ldi. Fondning faoliyati Alisher Navoiy hayoti, yuksak insonparvarlik g‘oyalari, ilmiy-adabiy merosini O‘zbekistonda va xalqaro miqyosda keng o‘rganish, targ‘ib etish, xorijiy tillarga tarjima

qilish, mukammal ilmiy nashrlarini yaratish, ularni respublikada va chet ellarda nashr etishga qaratilgan. Alisher Navoiy xalqaro fondi bu borada sezilarli ishlarni amalga oshirishiga ishonamiz. Xorijiy ellarda mutafakkir nomi va asarlarini yaxshi bilishadi. Masalan, AQShning Indiana shtatida bir ayol dissertatsiya yoqlagan, Turkiyada o'nlab tadqiqotlar chop etilgan. Mamlakatimizda Navoiy bobomiz nomlari bilan yuritiluvchi bog'lar, ilm-fan, madaniyat maskanlari va bitta viloyatimizga nomlari berilishi xalqimizning shoir siyomosiga bo'lgan ehtiromining yorqin namunasidir.

Ammo qayd etish joizki, hozirga qadar maktablarda, institutlarda Navoiy ijodiga bag'ishlangan maxsus kurslar o'tilmaydi, mumtoz adabiyotni, tasavvufni bilguvchi pedagoglar yetishmaydi. **Taklifimiz shuki, maktablarda "Tasavvuf", "Alisher Navoiy asarlariga kirish" fanlarini navbatma-navbat kiritish, nashriyotlarda "Xamsa" dostonlari nasriy bayonini, Navoiy asarlari izohli lug'atini qayta chop etish, shuningdek, yangi tuzilgan fond orqali "Navoiyshunoslik" nomli qisqa kurslarni tashkil etish maqsadga muvofiq. Maktab o'quvchilari uchun Alisher Navoiyning gumanizm g'oyalarini tushuntiradigan sodda, ravon tabdillar (nasriy bayon)ni mobil ilovalarda, telegram kanallarda berib boraverish lozim.**

Bir kichik badiada hazrat Navoiyning adabiyot va millat oldidagi xizmatlarini ochib berish qiyin ishdir. Muhim xulosamiz shuki, buyuk bobokalonimiz o'zidan bebaho adabiy meros qoldirib, ulkan jasorat ko'rsatgan nurli siymo edi.

Navoiyni anglash – milliy uyg'onish yo'li va Uchinchi renessansning boshi demak.

ICHANQALADAN TUPROQQALAGACHA – JALOLIDDINLAR YASHAYDIGAN YURT³³



Xiva – muzey-shahar, lekin Rim shahri kabi Ichanqal'ada aholi yashab turibdi, u bino va inshootlar, ochiq havodagi butun bir shahar butun holida saqlanib qolgan dunyodagi sanoqli shaharlardan biri.

Biz kirgan Ichanqal'a me'morchilik muzeyidagi bir qavatli Juma masjidi binosining gumbazlari va dumaloq arkalari yo'q, u X-XII asrlarida yaratilgan 213 dona yog'och naqshinkor ustunlarga tayanadigan yassi tomli ulkan zalni eslatadi. Bizni hayratga solgani, pandemiya emasmi, Ichanqal'adagi ming yillik namozgohda dim sokinlik, osoyishtalik hukmron. Aziz avliyolar ruhi kezib yuribdi, go'yo. Ustunlar atrofini aylana ekanmiz, bundan uzoq asrlar burun shu yerga joynamoz tashlab ibodat qilgan xorazmliklarning an'analari va dabdabali kunlari ko'z o'ngimizdan bir-bir o'tdi. Bu haqda buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy "Qadim xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ko'p va xo'p yozgan... Ammo badiiy adabiyot, o'lmas she'riyat, hatto xonlarning g'azallari, Xorazm

³³ https://uza.uz/uz/posts/ichanqaladan-tuproqqalagacha-jaloliddinlar-yashaydigan-yurt_252912 30.03.2021.

tarjima maktabining dovrug'i hozirgi zamongacha yetib kelgan – Ogahiy, Munis, Pahlavon Mahmud she'riyati qalblarga ko'chgan.

Galaktika umri bilan solishtirganda, inson umri 4 sekungacha boradigan dunyoda bari o'tkinchi, shamoldek o'tib ketguchisi. Ana, qadim masjiddagi yog'och ustunlar ham termitlariga yem bo'layotir...

O'tmish va bugun voqealarini, odamlarning yashash tarzi, yangi o'zgarishlarni tahlil etish va qiyoslash bugungi davr kishilariga yaxshi xulosalar chiqarish imkonini beradi. Shu bois, Urganchga qaytishimizda qiziqish ila Xivadagi Prezident maktabiga kirdik. Ichkariga qadam qo'ygan zahoti o'zgacha muhit, nazar va qarashlarga duch kelasiz. "Buyuk xorazmiylarning yangi avlodini yetishtiruvchi o'quv dargohi bo'libdi", degan fikr o'tdi ko'nglimdan. Farzandu arjumandlarimiz bir kuni shunday nufuzli dargohlarda o'qishini orzulab, maktabning auditoriya, yotoqxon, kutubxon, suv havzasi va shinam qavatlarida joylashgan kabinetlar, laboratoriyalar bilan erinmay tanishdik. Maktab rahbari, 30 yoshlardagi Rufat Aminov bir necha tillarni, ona yurtimiz tarixi va adabiyotini, o'qitiladigan fanlarning cheksiz imkoniyatlarini biladi. Mazkur nufuzli o'quv dargohi ham davlatimiz rahbarining 2019 yil 20 fevraldagi "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risidagi" gi PQ-4199 sonli qarori asosida tashkil etilgan. Oliymaqom maktablarda iqtidorli yoshlar "STEAM-ta'lim"ga yo'naltirilgan, xalqaro tan olingan Kembridj xalqaro ta'lim dasturlari asosida ta'lim oladilar. Bitiruvchilarga shahodatnoma, attestat bilan birga, xorijiy mamlakatlarning yetakchi oliy ta'lim muassasalariga kirish imkonini taqdim etuvchi Kembridj Xalqaro sertifikatlari (Cambridge International AS & A level) topshiriladi. Kembridj ta'lim dasturlari ta'lim oluvchilarda chuqur fan mazmuni bilan birga, XXI asr ko'nikmalari – mustaqil, mantiqiy va tanqidiy fikrlash, bilimlarni amaliyotda qo'llash, ma'lumotlarni tahlil qilish va natijalarni

barchaga tushunarli tilda yetkazish ko'nikma-malakalarini shakllantirishga yordam beradi. 160 dan ziyod davlatlarda 1 millionga yaqin o'quvchilar ana shu dasturlar bo'yicha ta'lim oladi.

O'sha kuni xushxabarning ustidan chiqdik: 11-sinf o'quvchilari Muhammadjon Seydmatov, Qodirbek Otaev, Islombek Arslonov, Ro'zmatboy G'oyibnazarovlar AQShning Xavier universitetiga (har biriga \$88000 grant), Charosxon O'ktamboeva AQShning Buffalo universitetiga, Shahriyor Shernafasov Shveysariyaning Franklin universitetiga, Mustafu Sa'dullaev Manchester universitetiga qabul qilinib, tahsil olish uchun grant sohibiga aylanishibdi. 23 yanvar kuni iqtidorli o'quvchi Madina Sa'dullaeva «SEAMO X 2021» Xalqaro matematika Olimpiadasining bronza medalini qo'lga kiritibdi. Maktabning IELTS bo'yicha murabbiyi Sattorbek Yo'ldoshevning qayd etishicha, bitiruvchilar bosqichma-bosqich IELTS (International English Language Testing System) ga jalb qilib boriladi. Navbatdagi bosqichda Barno Rustamova – 8 ball, Sarvarbek Soporboev – 7.5 ball, Umidbek Iskenderov – 7.5 ball, Ra'no Matqurbonova – 7 ball, Rustam Qodirov – 7 ball natijaga erishibdi.

Prezident maktablari ta'lim jarayoniga 40 ta xorijlik o'qituvchilar jalb qilingan. Richard Pashkovski maktabning akademik direktori. Yoshi yetmishdan oshgan, o'ziga yarashiq soqol qo'ygan kanadalik harakatchan, ko'zlari tiyrak, sinchkov kishi ekan. Ingliz, fransuz tillarini bilguvchi ustoz birnecha yillar Xitoy, Hindiston va Braziliyadagi "Offshore Schools" direktori va ta'lim maslahatchisi bo'lib ishlagan. Choy ustida bir soatcha suhbat qurdik. R. Pashkovski ishonch bilan: "Xorazmlik bolalar o'ta iste'dodli, mehnatkash, ziyarak, bir tushuntirganda ilg'ab oladigan. Iste'dodlarga imkoniyat va sharoitni shunday yaratilgudek bo'lsa, ilm-fan bobida Xorazmiy avlodlari yana dunyoni zabt etadi!", deganida ichimizdan quvondik.

Yurtboshining safari

Biz qadimiy zaminga qadam qo'yishimizdan sal oldin, 2020 yilning dekabr oyida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoev Xorazmga tashrif buyurgan edi. Tashrifdan ko'zlangan maqsad – islohotlarning mahallabay tizimda yo'lga qo'yilganini, odamlar hayotidagi ifodasini ko'rish, navbatdagi rejalarni belgilash edi. Tashrif xronikasi uchrashuvlar va voqealarga boy bo'ldi, deyish mumkin. 205 mlrd. so'mdan ziyod mablag' evaziga tashkil etilgan Xonqadagi innovatsion issiqxonada beshinchi avlod texnologiyalari qo'llanilganini ko'rgach, mazkur tajribani keng joriy etish muhimligi ta'kidlandi. "Butun dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi dolzarb masala bo'lib boryapti. Tashqi bozor qishloq xo'jaligi mahsulotlarini mavsumiy emas, yil davomida yetkazib berishni talab qiladi", dedi Shavkat Mirziyoev.

Albatta, bu borada xonqaliklarning tashabbuskorligi va uddaburroligiga tan bermay ilojimiz yo'q. Xonqa tuman IIB boshlig'i A.Matchanov rahbarligidagi 3-sektorga qarashli idora rahbarlari bilan Xonqa pedagogika va sport kollejida yanvar oyi o'rtalarida bo'lib o'tgan uchrashuvda ma'lum bo'ldiki, xonqaliklar yo'qdan bor qiladigan, qonida tadbirkorlik oqadigan kishilar ekan.

Davlatimiz rahbari Yangiariq tumanidagi "Yantex Invest" MChJ faoliyati bilan tanishuv chog'ida yurtimizda **mahallabay ishlash bo'yicha yangi tizimni yo'lga qo'yish masalasini o'rtaga tashladi.**

Islohotchi mahalla raislari ko'payadi

Bu ajoyib g'oya tashrif davomida birinchi marta ilgari surildi. Xorazm faollari va tarmoqlar mutasaddilari ishtirokidagi yig'ilishda davlatimiz rahbari "Mahalla raisi – islohotchi" tamoyili asosida ijtimoiy muammolarni hal qilish bo'yicha yangi tizim joriy etilishini e'lon qildi. Garchi pandemiya ja-

miyat iqtisodiy hayotida og'ir asoratlar qoldirgan bo'lsa-da, bunday tajriba MDH mamlakatlaridan faqat O'zbekistonda qo'llanilmoqda. "Temir daftar"ni joriy etishdan maqsad ehtiyojmand aholi qismini to'g'ri aniqlash edi. Yurtboshimiz parlamentga Murojaatnomasida jamiyatda to'planib qolgan ijtimoiy muammolarga to'xtalib, 2021 yildan "Ijtimoiy reestr"yuritilishini ta'kidlab o'tdi. "Barcha darajadagi rahbarlar pastga tushib, o'z sohasi bo'yicha mahallalardagi muammolarni o'rganishi va ularga yechim topishi, odamlar sezadigan natijani ta'minlashi shart", deyildi.

Viloyat bo'ylab safarda Ichanqal'adan Tuproqqal'agacha kezzanimizda yuqoridagi tashabbusdan so'ng, mahalla odamlarida ishonch tuyg'ulari nish urgani, o'zaro muloqotda ortiqcha dab-dababozlikdan qochib, hayotga yaqinlashish, ijtimoiy faollikka yuz burilgani ochiq sezildi. Davlatimiz og'ir damlarda yordamini ayamaganidek, odamlar ham bir-biriga suyanchiq, hamdard bo'lib borayotgani menda ajib taassurot qoldirdi. Biz ko'proq suhbatga tortgan ayollar va yoshlar faollashganini berilgan aniq savollaridan bilsak bo'lardi. Hazorasp tumanida "Har bir yoshga bir gektar" loyihasi ishga tushirilgani, yoshlar va xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, xususan, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tizimli ishlar amalga oshirilayotgani, tadbirkorlar tomonidan tikuvchilik korxonalari tashkil etilayotgani biz ma'rifatchilarni quvontirdi. Respublika shoshilinch tibbiy yordam Xorazm filialiga borganimizda ellik yoshlardagi shifokor Nargiza Atajonova yonimga kelib: "Koronavirus elimizdan beparvolik kasalini aritdi, odamlarning qarashlari o'zgarib, bir-muncha jiddiy va vazmin, sog'lig'iga ham e'tiborli bo'ldilar", dedi. Yovuz kasallikni boshimdan o'tkazganim uchun tojsimon virus insonga hayot va o'lim naqadar yaqin ekanligini eslatganini his qila boshladim. Shu bois, pandemiya kunlarida uch qavatli tibbiy kiyimlarni kiygancha, yuzlab xorazmliklarni o'limdan asrab qolgan shifokor ayolga xalq oldida minnatdorchilik izhor qildik: "Siz bizning xaloskorimiz bo'ldingiz".

Odamlar orasida

Ochig'ini aytish lozimki, yangilanayotgan O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida 2020 yildagi sinovli kunlardan keyin odamlarda jonlanish, hamfikrlilik, maslakdoshlik o'zaro rishtalari bog'langandek, nazarimda. Aholi bilan bo'lgan ma'naviy uchrashuvlarda buni qalbdan his etdik. Bog'otning Beshariq qishlog'ida "Xorazm tekstil» mac'uliyati cheklangan jamiyati korxonasi joylashgan. Ish boshqaruvchi Quronboy og'a Sodiqov Samarqand arxitektura-qurilishi institutini tugallagan, keyin tadbirkorlikka qo'l urgan. Bundan sakkiz yil muqaddam, 2012 yil oxirida qurilishi tugallanmagan to'qimachilik fabrikasini 10,5 milliard so'mlik investitsiya kiritish va yangidan 200 ta yangi ish o'rni yaratish sharti bilan tadbirkor yutib olibdi. Loyiha uchta bosqichli bo'lib, birinchi bosqichda 12000 m.kv. ishlab chiqarish maydoni 2014 yil 1 dekabrda ishga tushirilib, 200 ta yangi ish o'rni yaratilgan. Shveysariyaning "Rieter Machine Works LTD" firmasining zamonaviy dastgoh va uskunalari olib kelingan. Ikkinchi bosqichda «Marzoli», "Tomsic" (Italiya), "Murata" (Yaponiya) kompaniyalari bilan shartnomalar tuzilib, ishlab chiqarish dastgohlari va laboratoriya asbob-uskunalari keltirilibdi. 2019 yil noyabr oyidan mahsulot ishlab chiqarishga kirishganda yana 400 nafar ishchi ishga qabul qilinibdi.

"Kelgusi rejalar bilan o'rtoqlashsangiz", degan savolimizga korxonada direktori Sarvar Nurmetov shunday javob berdi: "Xorazm tex" 177 ta fermer xo'jaliklari bilan kontraktatsiya shartnomasini tuzgan bo'lib, 31440 tonna paxta yetishtirish prognozini 33619 tonnaga yoki 106,9 foizga bajargan. Korxonada Xonqa paxta tozalash zavodini sotib olganidan keyin shu tumanda yana 320 nafar ishchi o'rni paydo bo'ldi. Hozirgi kunda ip-kalava fabrikamizda 600 nafar, paxta tozalash zavodida 320 nafar, jami 920 nafar ishchi-xizmatchi ishlab kelmoqda. Korxonada ish 3 smenada tashkil qilingan.

Ishchi xizmatchilar uchun issiq ovqat to'liq ta'minlangan va avtobus qatnovi yo'lga qo'yilgan. Quvonarli jihati shuki, 2020 yilda jamiyat tomonidan 11 mln. 706 ming AQSh dollarlik mahsulot Rossiya, Xitoy va Turkiya davlatlariga eksport qilindi. Korxonada 10 turdagi, jumladan, paxta tolasi, chigit, urug'lik chigit, momiq, pahmoq, ip, yigirilgan ip kala va va boshqalar ishlab chiqariladi. Uchinchi bosqich ishlari tugallangudek bo'lsa, 2021 yilning o'zida Bog'ot tumanida 10 mln. belbog'-metr xom surp mahsuloti ishlab chiqaradigan to'qimachilik fabrikasi ishga tushadi. Unda 350 nafar nafar ishchi qabul qilinadi. Mahsulotning 80 foizi eksport qilinadi".

Ip-kalava sexlari oralab aylanganimizdan keyin ishchi-xizmatchilar bilan dilkash uchrashuv o'tkazildi. Suhbatda yaxshi angladikki, yoshlar bugungi kundagi islohotlarga befarq emas. Zamonaviy texnologiyani o'ziga bo'ysundirgan yigit-qizlarning o'ziga ishonchi yuzi va ko'zlaridan balqib turibdi. O'rtaga tashlangan taklif va fikrlarni eshitgach, korxonah rahbarlari navbatdagi tashrifimizgacha ishchilarni bilim va tajribasini oshirish uchun o'qishga yuborishga va'da berdilar.

Biz viloyatdagi birqator korxonalarda bo'lib, ishchilarning shart-sharoiti va kelgusi imkoniyati bilan ham qiziqdik. Hamma joyda yutuqlarning bosh sababkori rahbar ekanligiga ichimizda amin bo'ldik. "Shovot tekstil" AJ (Elyor Dushamov), "Bog'ot don" AJ (Xushnud G'afurov) va birnecha taniqli korxonalarga ishbilarmon kishilarning to'g'ri tanlanishi evaziga ishlar o'z maromida ketmoqda, rejalar o'z vaqtida bajarilmoqda. Ayniqsa, 87 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqaradigan Urganchdagi Texnopark (kiyim-kechak va metallardan turli mahsulot tayyorlaydi) imkoniyati va "haybati" Toshkentnikidan qolishmaydi. "UzXCMG" zavodi esa Xorazm sanoat industriyasiga karvonboshi bo'lishidan umidvormiz. Ushbu korxonalarda tunu kun ish qizg'in pallada, chunki topshiriqni bajarishmasa bo'lmaydi...

Namuna bo'lgulik tibbiyot o'quv dargohi

Urganchda 2000 yillarda "Jayxun" nomli mashhur mehmonxona bo'lardi. Bir muddat shinam bu maskan taloto'p ichida egasiz bo'lib qolganida, kimningdir ishorasi tufayli yopilish arafasiga kelib qolgan Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filialining yorqin kelajagini ko'ra olgan Yurtboshimiz mazkur binoni filial uchun ajratib, talabalarning nazariyani amaliyot bilan bog'lab olib borishlarini ta'minlash uchun hatto klinika qurilishiga ham ruxsat berdilar. Shu voqeadan keyin ishlar jonlanib ketdi. O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari, ilmi, tashkilotchi yigit Bahrom Yuldashev bizni konferens-zal, laboratoriyalar, auditoriyalar, klinika bo'limlari bo'ylab aylantirib, yangi o'zgarishlar haqida so'zlab berdi:

–Adolatli qaror jamoamizni ruhlantirib yubordi, biz ikki hissa ishni bajarishga erishdik,– dedi B. Yuldashev.– Ilmiy salohiyat, zamonaviy sharoitlar, keng imkoniyatlar mavjudligi tufayli tez fursat ichida tibbiyot sohasidagi 7 ta ta'lim yo'nalishi, Rossiya Federatsiyasi bilan hamkorlikda 3 ta ta'lim yo'nalishida talabalar o'qitilishi yo'lga qo'yildi. 14.00.05-“Ichki kasalliklar” ixtisosligi bo'yicha ilmiy kengash tuzildi. Hozirda Hindiston, Rossiya, Pokiston, Afg'oniston, Tanzaniya, Qirg'iziston, Turkmanistondan 300 nafardan ziyod talaba kelib tahsil olmoqda. Chet ellik va O'zbekistonning turli viloyatlaridan kelib o'qiyotgan talabalar shu binoning o'zidagi yotoqxonada joylashadi. Xorij talabalarining filialimizga kelib o'qishlari respublikamiz nufuzining ortishiga olib kelsa, investitsiyalarning jalb qilinishi esa filialimiz moddiy-texnik bazasini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Biz zalda yig'ilgan professor-o'qituvchilar bilan O'zbekistonda bo'layotgan bunyodkorlik ishlari, Yurtboshimizning parlamentga Murojaatnomasi, filialda ustoz-shogird an'anasi uzviyligi borasida qariyb ikki soatcha suhbat qurar ekanmiz, yoshlarning davrga hamohang qarashlari, bilimdonligini,

o'quv dargohida shakllangan toza ijodiy muhit va ichki batartiblikni ko'rganday bo'ldik. Eng muhim ko'rsatkich shuki, **filial korrupsiyasiz o'quv dargohi bo'lishga intilmoqda**. Bu borada ibratli ishlardan biri, tama'girlik yo'lga kirish anonim so'rovlar natijasida ishdan ozod qilinishga olib kelishi to'g'risida barcha professor-o'qituvchilar ogohlantirilgandan keyin samara keltirgan.

—Mustaqil, namunali institut bo'lishga harakat qilmoqdamiz,—deydi filial rahbari, professor Rashid Ro'ziboev.—Filialda Qozon federal universiteti bilan qo'shma dastur asosida "Tibbiy biologiya" (3+3), Privoljsk tadqiqot tibbiyot universiteti bilan "Davolash ishi" (3+3), "Farmatsiya" (3+2) ta'lim yo'nalishlari bo'yicha talabalar o'qitilishi yo'lga qo'yildi. Istanbul va Anqara Medipol universitetlari (Turkiya) bilan "Tibbiyotda menejment" va "Stomatologiya" yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturlari ochish bo'yicha memorandum imzolanib, tegishli ishlar olib borilmoqda. Kelgusida IT medik (Qozog'iston), Oilaviy shifokorlar (Ukraina), Kosmetologiya va xirurgiya (qo'shma magistratura, Turkiya), Xalq tabobati (Hindiston) yo'nalishlarida qo'shma dasturlar tashkil qilinishi rejalashtirilgan. Jami 12 ta yo'nalish bo'yicha malaka oshirish kurslari va qayta tayyorlash dasturlarini ishga tushirmoqchimiz.

O'quv dargohi jamoasi qisqagina vaqtda ko'plab tashabbuskorlik ishlarini amalga oshiribdi. Demak, filialni yopish emas, balki yanada kuchaytirish va dunyo miqyosiga olib chiqish kerak bo'libdi. 2020 yilda filial talabalaridan 1 talaba Zulfiya mukofoti, 1 talaba Ibn Sino nomli, 1 talaba Islom Karimov nomli davlat stipendiati, 2 nafar talaba xalqaro tanlovlarda 1 o'rinni, 9 talaba xalqaro, 4 talaba respublika onlayn fan olimpiadalarida yuqori o'rinni egalladi.

O'sha kungi uchrashuvdan keyin Shovot, Bog'ot, Hazorasp, Tuproqqal'adagi tibbiyot birlashmalarida bo'lganimizda, filial professor-o'qituvchilarining tibbiyot sohalarida ham,

ma'rifiy ishlarda ham, siyosatda ham poytaxtdagilardan kam emasligini o'z ko'zimiz bilan ko'rib, viloyat ta'lim dargohlari-da ham zamonga mos ziyolilar qatlami yetishib chiqayotganiga amin bo'ldik.

Tuproqqal'a – sanoat tumaniga aylandi

Tuproqqal'adan Urganchga 250 km., tuman markazigacha 170 km.ni tashkil etishi ko'pgina ovoragarchiliklarga sabab bo'layotgani haqida yuqoriga yozishmalar ko'paya bordi. Chindan ham, aholining yashash va turmush tarzi og'ir ahvolga tushib, uylar va yo'llar ta'mirtalab, ichimlik suvi muammolari yig'ilgan, ijtimoiy soha ob'ektlari achinarli holga kelib qolgan edi. Prezidentimizning 2020 yil 12-13 mart kunlari Xorazmga tashrifi davomida yangi tuman tashkil etish to'g'risidagi taklifi qo'llab-quvvatlandi. 24 martda Tuproqqala tumani tashkil etilib, ma'muriy hudud birligi belgilandi. 2020 yil 11 aprelda "Xorazm viloyati tarkibida Tuproqqal'a tumanini tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy masalalarni hal etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezidentimizning qarori asosida Respublika komissiyasi tuzilib, barcha tashkiliy masalalar hal etildi. Tumanda ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanish, me'moriy qiyofasini tubdan o'zgartirish, ijtimoiy infratuzilmani yanada yaxshilash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 2 iyundagi 346-sonli qarori qabul qilindi. Bu dalillarni keltirishdan maqsad rahbariyatning muammolarni oqillik va tezkorlik bilan yechganligini ta'kidlashdir. Qarabsizki, hudud aholisi hayotida yangi, bunyodkorlik davri boshlanib ketdi. Hozirda aholi soni 55 ming nafardan oshadi.

–Yana bir oqilona yechim: "Hazorasp" erkin iqtisodiy zonasida belgilangan imtiyozlarning hudud uchun saqlanib qolishi tuman rivojlanishiga asos bo'ldi, – deydi biz bilan suhbatda tuman hokimi Alisher Salaev.

Ayrim mahallalarda bo'lganimizda, odamlarning kayfiyatini ko'rib quvondik. Olti oyda yo'llar asfalt qilinib, qishloq-

larga toza ichimlik suvini keltirishga 50 mlrd. soʻm sarflanibdi. Biz Pitnak shahri va bugungi Tuproqqalʼa qishloqlarini to Turkmaniston chegarasigacha oʻtib borganimizda, hali ish boshlagan obʼektlarga koʻzimiz tushdi. Bahorga borib, uchta sanoat korxonasida yangi liniyalar ishga tushiriladi. DAMAS mashinasi chiqaradigan “UzAuto Motors” AJ Xorazm viloyati filialida yangi “Press” sexi (200 nafar ishchi), “Future Industry System” MChJda dvigatellar ishlab chiqarish (200 nafar ishchi), “NEW BEST STYLE” MChJ da gul qogʻoz (50) mahsulotlari, tumanda esa 2021 yilning oʻzida 5018,0 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish yoʻlga qoʻyiladi.

Viloyatdagi islohotlar ijrosi Prezidentimizning doimiy nazoratida turibdi. Selektor yigʻilishida har bir viloyat hokimi mahalliy budjet hisobidan 100 nafar, har bir oliygoʻh esa 30-50 nafardan xotin-qizlarning kontraktini toʻlab berishga masʼul boʻlishi maʼqullanishi islohotlarning amaliy yechimiga kuch-qanot bagʻishladi. Demak, 5000 dan ziyod ota-onasining biridan ayrilgan muhtoj qizlar, boquvchisi yoʻq yolgʻiz ayollarga davlatimiz insonparvarlik va homiylik koʻmagini bermoqchi. Ajoyib tashabbus!

Xorazmda rejadagi tadbirlar mazmuni shundaki, “Har bir oila-tadbirkor”, hunarmandchilikni rivojlantirish, fermer, dehqon xoʻjaliklari va tomorqa yer egalarini qoʻllab-quvvatlash dasturlari, mahallabay tizimi chekka tumanlarda ishga tushgach, musofirchilikdan zerikkan koʻplab xorazmlik mehnat migrantlari ona qishlogʻiga qaytmoqchi. Deylik, Tuproqqalʼada 1792 nafar yurtiga qaytgan fuqaroni tanlagan yoʻnalish boʻyicha qayta kasbga oʻqitish va ishga joylashtirishga kirishilgan. Viloyatda tadbirkorlik kursini bitirayotgan 500 dan ortiq yoshlarga ham yangi ishlar taqsimlanadi.

Xotima

Maʼlumki, 2021 yilning 14 fevral kuni “Milliy” telekanalimizda Oʻzbekiston kinoijodkorlari va Turkiyaning “Bozdag

film" kompaniyasi tomonidan suratga olingan "Mendirman, Jaloliddin" (aslida "Jaloliddin Xorazmshoh" deb nomlash joiz) seriali premerasining ilk fasli bo'lib o'tdi. Tarixchilardan Juvayniy, Rashididdin va boshqalarning yozishicha, so'nggi shahzoda Jaloliddinning jasoratiga qoyil qolgan Chingizxon o'z o'g'illariga qarata "Otaning faqat shunday o'g'li bo'lishi lozim. U olovli jang maydonidan o'zini qutqarib, halokatli girdobdan najot qirg'og'iga chiqdimi, undan hali ulug' ishlar va qiyomatli isyonlar keladi", deydi va uning orqasidan ta'qib etishni taqiqlaydi.

Ichanqal'adan Tuproqqal'agacha cho'zilgan makonda Jaloliddinlar avlodi yashaydi. Biz bu avlodlar qoni va ruhida buyuk Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud, Ogahiy, qolaversa, Komiljon Otaniyozov, Omon Matjonlarning ushalmagan orzulari bo'y ko'rsatishiga, Xorazm eli bir vaqtlardagidek iqtisodda ham, ma'naviyatda ham shonli dovrug'ini tiklashiga ishonging keladi. Sababi, ko'hna zaminda yaratilgan qadim "Avesto" o'lmas asari ezgu g'oyalarini Makedonskiy Yunoniston, Rim va butun Yevropaga yoygan, so'ng Ma'mun akademiyasi birinchi Renessansga asos solgan tuproq bu!

Jaloliddin Manguberdi (1198-1230) so'nggi xorazmshoh hisoblanadi. Uning otasi xorazmshohlar mamlakati hukmdori Sulton Alovuddin Muhammad bo'lgan. Shahzoda Jaloliddin Manguberdi so'nggi jangi oldidan o'z hamrohlariga. "Vatanni, millatini jonidan ziyoda sevganlar bu yo'lda muxtordirlar. Rohatini, salomatligini o'ylovchilar istagan yerlariga ketishlari mumkin" deb aytgan edi³⁴. Har bir xorazmlik yurtini had-dan ziyod sevgani bois, begona maskanlarga ketib qolmagan.

³⁴ <https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/nomiq-kamol-jaloliddin-xorazmshoh-fojia-birinchi-parda-xurshid-davron-tarjimasi>. 10.03.2021. Nomiq Kamol. "Jaloliddin Xorazmshoh" fojia. N. Kamol 1840-1888 yillarda yashagan mashhur turk adibi, ma'rifarparvar shoiri bo'lgan (B.O.).

QUNT, ILM VA AQL – BARCHA MUAMMOLAR KALITI³⁵



2020 yilgi “ko‘rinmas yov” koronavirus xalqimizni turli sinov va imtihonlardan o‘tkazdi. O‘tgan o‘tdi, qolganlar oyoqqa turish, yo‘qotishlar o‘rnini to‘ldirish ustida bosh qotirish-moqda. Mamlakat rahbariyati pandemiya asoratlarini bartaraf etishga intilmoqda. Bu borada davlatning bosh islohotchilik mahorati yana bir karra o‘zini oqladi...

O‘tgan yilning mart oyida boshlangan pandemiya xalqimiz uchun juda mashaqqatli kechdi. Sardobadagi texnogen, Buxorodagi tabiiy ofatlar... Ammo qishloqlardagi odamlar bilan jonli muloqotni kechiktirib bo‘lmasligini anglagan rahbariyat olimlar, adiblar, shoirlar, san‘atkorlardan iborat guruhlarni shakllantirib, barcha tumanlarga yubordi. Bundan ko‘zlangan maqsad – odamlarga ma‘naviy va ruhiy madad berish, kelajagiga ishonch tug‘dirish va ijtimoiy faollikka undash edi.

Mehnatkash, sabr-irodali xalqimizning mentalitetida ulkan qudrat yashiringan. Tarixdan ayonki, har qanday davlat xalq bilan kengashib ishlagandagina ko‘zlagan maqsadiga erishadi. “Pirim Zayniddin Abubakr Toybodiy menga yozmishlarkim, “Abulmansur³⁶ Temur, saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, ya‘ni: 1) kengash; 2) mashvaratu maslahat; 3) qat‘iy qaror, tadbirkorlik va hushyorlik; 4) ehtiyotkorlik. Chunki kengash va mashvaratsiz saltanatni barcha qilgan ishlari va aytgan gaplari noto‘g‘ri bo‘lgan johil odamga qiyoy-

³⁵<https://xs.uz/uzkr/post/har-bir-ishga-qunt-ilm-va-aql-bilan-yondashsak-muammolarni-bartaraf-eta-olamiz> Xalq so‘zi, 12.03.2021.

³⁶Abulmansur – lug‘aviy ma‘nosi: zafarmand, g‘alaba qozonuvchi; Amir Temurni ulug‘lab atalgan unvonlardan biri.

slash mumkin; uning aytgan so'zlari va qilgan ishlari boshga pushaymonlik va nadomat keltirgay"³⁷, deyiladi davlat boshqaruviga oid dasturiy kitobimiz "Temur tuzuklari"da.

Yurtimizda Sohibqiron bobomizning o'gitlariga amal qilinib, xalq bilan kengashish, qonun va qarorlarni muhokama qilish jarayonlari yo'lga qo'yilgan. Xalq qabulxonalari, Prezidentning virtual qabulxonasi, viloyatlarda sayyor qabullar tizimi ishlayotgani, jumladan, keyingi to'rt yilda aholining 4 milliondan ziyod murojaatlari yuqori idoralar tomonidan ko'rib chiqilib, aksar qismi ijobiy hal qilingani shular jumlasidan.

Lekin vaqt kutib turmaydi. Globallashuv jarayoni hokimiyatdan tezkorlik va aniqlikni talab qiladi. Biz, fuqarolar 2020 yil oxirgi kunlari bir qancha siyosiy tadbirlar, jumladan, dekabr oyida O'zbekiston yoshlari forumi, Prezidentimizning Oliy Majlisga Murojaatnomasi shohidi bo'ldik. Xalqimiz televidenie ekranlaridan ko'zini uzmay bo'ladigan o'zgarishlarning sadosini eshitdi: **"Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi"**, degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshiramiz"³⁸, dedi davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoev Murojaatnomada. Xo'sh, O'zbekistonda siyosiy islohotlardan nima kutilmoqda? Nega qarorlar ijrosi sekin ketmoqda? Biz zamon talabi darajasida qachon o'zgamiz? Albatta, bunday savollar bugun ko'pchilikni qiziqtirmoqda.

Fevral oyida "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturi ijrosini samarali tashkil etish masalasi yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida Prezidentimiz yuqoridagi savollarga mufassal javobni aytdi: bu dasturni hanuz davom etayotgan pandemiya

³⁷ Temur tuzuklari. G'. G'ulom nomidagi adabiyot, 1991. –B. 14.

³⁸ <https://president.uz/uz/lists/view/4057> 2020-yil 29-dekabr. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi

sharoitida, global inqiroz kuchayib borayotgan murakkab bir vaziyatda amalga oshirishimizga to'g'ri keladi. Har qancha qiyin bo'lmasin, 500 ming nafar yosh va 200 ming ayolni ish bilan ta'minlash hamda 300 ming aholini kambag'allikdan chiqarish lozim. Agar mahallabay tizimini joyiga qo'yib, davlat idoralari dasturdagi vazifalarni **qunt bilan, ilm bilan, aql bilan bajarsa, keskin o'zgarish bo'ladi.**

Pandemiya sharoitida, haqiqatan ham, O'zbekistonda kambag'allik darajasi oshdi. Bugungi kunda "temir daftar", "ayollar daftari", "yoshlar daftari"ga kiritilgan yurtdoshlarimizni ulardan chiqarishda aql bilan ishlashimizga zarurat tug'ilmoqda.

Jahon tajribasidan ma'lumki, har qanday sharoitda inson resursi, shaxs omili, rahbarlarning professionalizmi, bilim darajasi mavjud muammolarning kalitini topishga yordam beradi. Noshud, bilimsiz, loqayd va bugungi siyosatdan bexabar rahbarlardan voz kechiladi, albatta. Zero, Sohibqiron ta'biri bilan aytganda, *"Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy, tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz, loqayd kishilardan yaxshidir"*. Demak, jamiyat hayotiga dadil kirib kelayotgan iqtidorli, fidoyi yoshlardan umidimiz bor.

Jamiyat hayotining joni va ruhi – ma'naviyat

Ko'pchilik kutganidek, 2021 yil mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub burilish davri bo'ladi. "Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari" degan shiordan kelib chiqib, kadrlar siyosatida keskin qadamlar tashlanadi, degan fikrdamiz. Ammo fuqarolarimizning fikrlash tarzi, dunyoqarashi, o'zaro munosabatida yangicha qarashlar paydo bo'lishi lozim. Huquqiy demokratik davlatning qonun-qoidalari shuni talab qiladi. Agar fuqaro jamiyatda kechadigan jarayonlar oqimidan orqada qolgudek bo'lsa, davlat hokimiyati tomonidan qabul qilingan qonunlar "ishlamaydi", har qanday jamoatchilik nazorati ham kutilgan natija bermaydi. Qachonki, **fuqaro**

dunyoqarashi va intilishi amaldagi davlat hokimiyati faoliyatidan oldinda bo'lsagina, millat va yurt rivojlanadi, aks holda, jamiyat hayotida bitta joyda depsinish, turg'unlik yuz beraveradi.

Prezidentimiz tashabbusiga ko'ra, maktab, litsey va institut muallimlarining maoshi oshirilib, jamiyatda o'qituvchining obro'-nufuzini yuksaltirishga e'tibor qaratilayotgani naqadar to'g'ri qaror ekanligini ko'pchilik chuqur anglab yetdi. Har bir mamlakat taqdiri muallimga, ta'lim tizimining sifatiga bog'liq. Maktablar sust ishlasa, darslar xo'jako'rsin-ga o'tilsa, farzandlarimiz muhitdan beziydi va saviyasi tushib ketadi.

Ilm va ma'rifatsiz odam yo'lini yo'qotishi, orzularini ro'yobga chiqarishiga aqli hamda tajribasi yetishmasligini Behbudiy, Ibrat, Fitrat, Avloniy singari jadid bobolarimiz erta anglashgan, ahvolni o'nglashga urinishgan va afsuski, qattol tuzum ularni mukofotlash o'rniga jazolagan edi.

Jadidlarning ichki og'riqlari va bugungi kun muammolari ko'pligi milliy-ma'naviy uyg'onish jarayonini kechiktirmoqda, deyishga haqlimiz. Shaxsning ichki dunyosi, tafakkuridagi bunday nuqsonlarni faqat yaxshi maktablarimiz tuzata olish-ga qodir.

Janubiy Afrika Respublikasidagi universitetga kirave-rishda: "Har qanday millatni yo'q qilish uchun atom bomba-si yoki uzoq radiusga ta'sir qiladigan raketalariga hojat yo'q. Faqat ta'lim sifati pasaytirilsa va imtihonlarda talabalarga aldash uchun imkoniyat yaratilsa bas... Ta'limning barbod bo'lishi — millatning kasodga uchrashidir!"³⁹, deb yozib qo'yilgan ekan. Naqadar achchiq haqiqat so'zlari.

Maktabda fikr charxlanadi. Jahonning turli mintaqala-rida yuz berayotgan talato'plar, to'ntarishlar ildizlarini tahlil etsak, o'qimagan, uyushmagan yoshlarga jiddiy e'tibor qara-tish zarurligi kun tartibiga qalqib chiqadi. Xalq ta'limi tizimi-

³⁹ <http://troll.uz> 09.11.2018.

rining o'ttizdan ziyod filiallari ochildi. Endi oliy o'quv yurtlaridagi **korruptsiya holatlariga barham beradigan tizimga doir qonunchilikni takomillashtirish lozim.**

Jahonda bo'lganidek, universitetlar tizimida maqsadli institut, texnikum, amaliy laboratoriyalarni ochish, ularni ishlab chiqarish korxonalari bilan bog'lash, bitiruvchilarni ishga to'g'ridan-to'g'ri joylashtirish singari masalalar ustida bosh qotirishimiz zarurga o'xshaydi. Shundagina ta'lim iqtisodiyotning "drayver"iga aylanadi va jamiyatga foyda keltiradi. Shu niyatda "Osiyo ajdarlari" nomini olgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari (Malayziya, Singapur, Janubiy Koreya, Xitoy, Yaponiya, Tailand)ning **milliy rivojlanish modellarini o'rganuvchi ilmiy-amaliy markazlarni davlat tomonidan ochishni maqsadga muvofiq,** deb o'ylaymiz.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimi tarqoqligi, parallel bo'lgan mutaxassis institutlarning mavjudligi va ilmiy ta'dqiqot ishlari uchun yetarli darajada zamonaviy talablarga javob beradigan muhitni yaratishga qodir emasligini hisobga olib, aynan bir shaharda joylashgan yetakchi oliy o'quv yurtlarini birlashtirishni (ham iqtisodiy, ham ma'naviy, ham psixologik foydali) davrning o'zi taqozo etmoqda.

Oliy ta'limda shu orqali universitetlar va iqtisodiyot tarmoqlari o'rtasida rivojlangan hamkorlik tarmog'ini kuchaytirish, ixtirochilikni, innovatsiyalarni rivojlantirish, yangi xalqaro hamda ilmiy aloqalarni yo'lga qo'yishga erishilsa, boshqa mamlakatlardan katta miqdorda talabalarni qabul qilish imkoni yaratiladi, qo'shimcha mablag'lar ham tushadi.

Yoshlarimizni sifatli ta'limdan mahrum etar ekanmiz, ularni kelajakdan mahrum qilgan bo'lamiz. Ammo farzandlarimizga yaxshi ilm berish, ularning dunyoqarashini shakllantirish biz, katta avlodning qo'lida. Sohaga salmoqli investitsiya jalb etilayotgan bugungi davrda ta'lim tizimimiz tubdan yangilanishi va jahon andozasiga moslashishini istaymiz.

Prezidentimizning 2020 yil 29 oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida qayd etilishicha, mamlakatimizning ilm-fan sektori 100 dan ortiq akademik va tarmoq ilmiy muassasalaridan iborat bo'lib, hozirgi kunda 65 ta ilmiy-tadqiqot instituti, 31 ilmiy markaz (14 tasi ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy markaz) va 8 ta boshqa turdagi ilmiy tashkilot faoliyat ko'rsatmoqda. Bunday keng imkoniyatdan to'laqonli foydalanish hozirdan boshlanishini xohlaymiz. Yaqinda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga kreativ fikrlaydigan rahbar tayinlandi. Biz millat kelajagini o'ylagan yangi vazirning ilg'or tashabbuslarini har jihatdan qo'llashimiz kerak. Fikrimizcha, oliy ta'lim sohasida zamonga mos chuqur islohotlar boshlanishi va korrupsion holatlarning kamayishi kutilmoqda.

Renessans – uyg'onish demak

Bizningcha, Renessansning asosiy alomatlari: tafakkurda va ilm-u ijodda dogmatizm, jaholat hamda mutaassiblikni yo'rib o'tib, insonni ulug'lash, uning iste'dodi, aqliy, fikriy imkoniyatlarini yuzaga chiqarishdir.

Ma'lumki, XVII asrdan istilochilar dunyoni, jumladan, Sharq mamlakatlarini birma-bir bo'ysundirgandan keyin, birinchi navbatda, Qur'onning nufuzi va maqomini pasaytirishga urinhdilar. Natijada inson qalbi, ruhiyati, fikrlarini cheklashga o'tildi, musulmonlarning to'g'rilik, iymonlilik, komillik sari intilishi ikkinchi darajaga tushib ketdi. Sharqqa yo'l olgan inglizlar, ispanlar va so'ngra, rus mustamlakachilari: "Sen moddiy tarafdin boy bo'lgin, qalb tarbiyasini yig'ishtirib, moddiyunchilikka berilgin", degan yolg'onchi, yot g'oyalarni singdirishdi. Shunda Qur'ondan asta-sekin chekinish yuz berdi, chunki odamlar ochko'zligi, nafsga o'chligi tufayli boy bo'la boshladilar. **G'arb g'oyalari, texnologiyalari axloq va ma'naviyatdan kuchliroq chiqdi. Sharq olami qalb bilan nafsning kurashida boshi yerga tegdi va yutqazdi.**

Tariqatlar yo'qola bordi. Bu Sharqning tanazzulini boshlab bergan eng muhim omillar edi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning uchinchi Renessans asoslarini yaratish borasidagi o'ta muhim, ayni paytda, murakkab vazifani kun tartibiga qo'yganligi negizida ana shu poydevorni qayta ko'tarish vazifasi yotibdi. Demak, mamlakatda **ta'lim va boshqaruv tizimini qayta qurilish darkor.**

Shu o'rinda aytish lozimki, hokimiyat boshqaruvining zamonaviy uslublaridan ayrim mahalliy rahbarlar, hokimlarning bexabarligi, ularning sobiq sho'rolar davrida shakllangan boshqaruvning do'q urish va qo'rqitish uslublaridan foydalanayotgani taraqqiyotimiz uchun hamon to'siq bo'lib qolmoqda. Biz dunyoning rivojlangan davlatlariga ergashar ekanmiz, **shaxs tarbiyasi va kadrlar siyosati tizimini butunlay o'zgartirishimiz zarur.**

Sir emaski, bugun eskicha uslublarni mexanik ravishda qabul qilayotgan rahbar kadrlarning, mamlakatimizda kambag'allikda hayot kechirayotgan aholi qismining mavjudligi sharoitida uchinchi Renessans haqida fikr yuritish to'g'rimikin, degan savolni berayotganlar topiladi. Shuni ta'kidlash joizki, Markaziy Osiyoda sodir bo'lgan ikkala Renessansning bi-rortasi ham fuqarolar farovon yashagan, hokimiyatda barqaror boshqaruv tizimi ishlagan davrlarda sodir bo'lmagan. Ularning barchasi jamiyatda qarama-qarshilik va muammolarning mavjudligi sharoitida ro'y berganligini tarixiy ma'lumotlar tasdiqlaydi.

Yurtimizda IX–XII asrlarda sodir bo'lgan birinchi Renessans tarixiga nazar solsak, buyuk alloma Abu Rayhon Beruniyning yozishicha, V–VII asrlarda o'lkani bosib olgan **arablar "Xorazmiylarda mavjud bo'lgan fanlarni o'rgangan kishilarni yo'q qilgan"**. Shunda ma'rifatparvar al-Ma'mun ibn Muhammad tashabbusi va sa'y-harakati tufayli Renessansning asosi bo'lgulik Ma'mun akademiyasi 1004 yilda tashkil topdi. Akademiya atigi o'n uch yil (1004–1017) fao-

liyat olib borgan bo'lsa-da, XI asrda Markaziy Osiyoning Renessans markaziga aylanishiga zamin hozirladi. Bu davrda saroy notinch, tashqi xavf-xatarlar kuchaygan bo'lishiga qararasdan, o'z xalqining istiqbolini o'ylagan ma'rifatparvar xorazmshoh olimlarni moddiy jihatdan to'liq ta'minladi. Al-lomalar amalga oshirgan aniq fanlardagi kashfiyotlar o'n asr davomida butun insoniyatga xizmat qilib kelishi baravarida, o'zbek xalqining jahon miqyosidagi nufuzini ham dunyoga ko'z-ko'z qilib turibdi. Tarixiy ma'lumotni keltirishdan maqsad, bugun Prezidentimizning uchinchi Renessans asoslarini yaratish haqidagi ilg'or g'oyalari o'z vaqtida qo'yilgan vazifa ekanligini yana bir bor ta'kidlashdir. Agar biz mavjud muammolarni hal qilganimizdan so'ng, Renessans haqida bosh qotiramiz, degan fikrga kelsak, bitta joyda depsinib turamiz va muammolar ko'lamining yanada kengayishidan nariga o'ta olmaymiz.

"Ko'rdimki, ekmagan o'rmaydi", degan edi Shayx Najmiddin Kubro. Ulug' ishlarga qadam qo'ygan fuqarolarimiz mehnatlarining mevasini ko'rishni chindan ham xohlasa, qalbiga bilim, qanoat, jasurlik urug'larini ekib, uni doimo parvarishlab bormog'i lozim.

Oldimizdagi dolzarb vazifalar

Bizning fikrimizcha, uchinchi **Renessans asoslarini** yaratish ushbu muhim vazifalarni o'z ichiga qamrab oladi: **birinchidan**, ilm, ma'rifat va ma'naviyatni yuksak darajada rivojlantirish uchun maktabga katta mablag'larni sarflash; **ikkinchidan**, mablag'larni o'zlashtiradigan zamonaviy tafakkur salohiyatiga ega, fidoyi, vatanparvar tadqiqotchilar va yetuk ma'rifiy targ'ibotchilarning armiyasini shakllantirish; **uchinchidan**, ilm, fan va ma'rifat sohasida qo'lga kiritilgan natijalarni mamlakat taraqqiyotiga, millat hamda xalq farovonligini ta'minlashga yo'naltira biladigan tavakkalchi tadbirkorlar va noan'anaviy (kreativ) uslubga ega bo'lgan boshqaruvchi-

larni topish; **to'rtinchidan**, O'zbekistonda intellektual mulk huquqi bozori (ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, badiiy adabiyot, kino, san'atga oid mualliflik huquqi egalariga ularning sotilgan, teleefirga uzatilgan mahsulotlariga doimiy haq to'lab borish)ni shakllantirish hamda respublikamizda ilmiy natijalarni, ixtirolarni tijoratlashtirishning samarador mexanizmini yaratish; **beshinchidan**, farzandlarimizning qalbiy ruhiy tarbiyasini shakllantirish, ularni aqliy mehnatga o'rgatish, e'tiqodini kuchaytirish ko'nikmasini bog'cha va maktablardan boshlash; **oltinchidan**, mamlakatimizda "Ustoz-shogird" an'ana-sini to'liq tiklash; **yettinchidan**, ta'lim tizimining jamiyatdagi amaliy ehtiyojlardan uzilib qolganligi, ijtimoiy fanlar (inson qalbi, ma'naviy olami va e'tiqodini shakllantirish) soatlarining kamayib borayotgani holatiga barham berish kabi muammolarning yechimini tezlikda topish.

"Madaniyat va marifat, "Renessans TV" televizion kanallarda dunyoni lol qoldirgan Nobel mukofoti sohiblari, mashhur kompozitorlar, rassomlar, shoirlar va adiblarning (Eynshteyn, Balzak, Tolstoy, Dostoevskiy va boshqalar) hayotiga bag'ishlangan qisqa metrajli filmlar namoyish etib boriladi. Insonning evolyusion o'sish nuqtalari, ijod mashaqqatlari, ichki tuyg'u va isyonlari mohirona tasvirga olingan bunday ajoyib san'at asarlari har qanday kishini fikrlashga, hayotga yangicha qarashga da'vat qiladi. Shu o'rinda bir savol qiynaydi: "Buyuk ajdodlarimiz haqida shunday filmlar yaratishga qurbimiz yetmaydimi?"

Jamiyatdagi islohotlarning birinchi safida o'rta sinf va siyosiy elita boradi, ammo ne qismatki, mustaqillik yillarida biz ushbu qatlamlarni shakllantirishga ulgurmadik yoki yaxshi shakllantira olmadik. Demak, **Renessansni amalga oshiruvchi, jamiyatni ortidan ergashtiruvchi kuchli qatlamga ehtiyoj ortib boraveradi**. Bu - birinchidan. Ikkinchidan, Yaponiya, Xitoy, Singapur, Malayziya tajribasida ko'ril-

ganidek, biz qishloq xo'jaligi sohasiga urg'u beravermasdan, turli zamonaviy xizmatlarning soni va sifatini oshirish tezroq o'tishimiz kerak.

Pandemiyadan keyin davlatimiz rahbari yangi xizmatlarni va ishchi o'rinlarini ochishga ulkan mablag' ajratayotgani davrning talablariga juda mos tushadi. Dunyoda pandemiya sharoitida o'nlab kasblar yo'qolib, yana shuncha kasblar paydo bo'lmoqda. Biz axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga ixtisoslashgan maktablar, litseylar, texnikumlarni ko'proq ochsak, tezda u o'zini oqlaydi va anchagina ish o'rinlari yaratiladi.

Sir emas, xorijda xizmatlar ko'rsatish iqtisodiyotning daromadli tarmog'iga aylanib, yalpi ichki mahsulotda servislarining ulushi o'rtacha 65 foizni tashkil etsa, mamlakatimizda u 35 foizga teng, lekin 86 foiz qo'shilgan qiymat shu sohada vujudga kelmoqda. Demak, xizmatlar sohasida (turizm, mehmonxona, o'quv, moliya-iqtisod, qurilish, konsalting va hokazo) kam xarajat sarflab, ishlab chiqarishga qaraganda 3-4 baravar ko'proq foyda olish imkoniyatiga egamiz.

Onlayn xizmat ko'rsatuvchi kompaniyalar uchun 6,2 million o'quvchiga ega O'zbekiston – yirik ta'lim bozoridir. Puldor investor va tadbirkorlar kelajakni oldindan ko'ra bilsa, ta'lim ular uchun pul tikadigan kuchli soha bo'lishi mumkin. Globallashuv sharoitida zamon ana shunday shiddat bilan odimlamoqda. Yaqin yillarda **“raqamli darslik”**, **“virtual sumka”**, **“onlayn maktab”**, **“raqamli diplom”**, **“raqamli o'qituvchi”** kabi atamalardan foydalana boshlasak, hech ajablanmang.

Ammo bunday innovatsion yangiliklarni amaliyotda qabul qilishga ham tayyorgarlik ko'rishimizga to'g'ri keladi.

“Ilohi, g'aflet uyqusidamen, bedor qil...”

Xotima o'rnida miloddan oldin qadimgi Xitoy tarixiga doir bir ibratli misolni keltiraman. Mashhur faylasuf Konfutsiy Szi-Chun ismli shogirdining “Davlatni qanday boshqarmoq

darkor?" degan savoliga o'ylanib turib, shunday javob bergan: "Davlatni to'g'ri boshqarmoq uchun hukmdor – hukmdorligicha, amaldor – amaldorligicha, ota – otaligicha, o'g'il – o'g'illigicha qolmog'i lozimdir". Bu gaplardan xulosa shuki, har bir rahbar va oddiy fuqaro kasbini haddan ziyod sevishi, o'z ishining ustasi bo'lishi, yurtining ravnaqi uchun kundalik vazifalarni vijdonan bajargandagina, biz farovon jamiyatni qura olamiz.

Davlatimiz rahbarining "**jamiyat hayotining joni va ruhi ma'naviyat**", degan fikri zamirida oq-qorani tanigan, davr sinovlaridan mardona o'tgan, ilimli hamda ma'rifatli yurtdoshlarimizni yoshlarni ma'naviy tarbiyalash, hayotning og'ir sinovlariga ma'nan hozirlashda ko'mak ko'rsatish da'vati yo'tibdi. Axir, yapon, koreys, singapurlik fuqarolar ham farovon jamiyatni qurish uchun o'n yillar kecha-yu kunduz tinim bilmay ishlashgan...

Hazrat Navoiy: "Ilohi, g'aflat uyqusidamen, bedor qil va jaholat mastligidamen, hushyor qil"⁴⁰, deganlaridek, millatning dardlariga darmon bo'lishlik har birimizning muqaddas burchimizga aylanishi kerak.

⁴⁰<https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=3470.0>
16.03.2009. Alisher Navoiy. Munojot. Matni izohlar va tarjimalar bilan nashrga tayyorlovchi S.G'anieva. T.: Kamalak, 1991.

ELEKTRON HUKUMAT -JAMIYAT ERKINLASHUVI OMILI⁴¹



Siyosatshunoslik ilmiga ko'ra, **davlat xizmatining jamiyat bilan o'zaro muloqoti quyidagi qoidalarga asoslanadi**: jamiyatni davlat siyosati haqida xabardor qilib borilishi, ma'lumotlarni har bir fuqaroga yetib borishi; jamiyat bilan munosabatlar jarayonidagi tadbirlarning rang-barang bo'lishi; ma'lumotlarni to'g'ri va to'liq yetkazilishi; jamiyat uchun yo'naltirilgan ma'lumot sodda va tushunarli shaklda bo'lishi; muloqot yuqori etika darajasida tashkil etilishi. O'zbekistonda 2017-2021 yillarda aholining elektron hukumat tizimi yordamida mahalliy boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi hukumatni bir guruh kishilar qo'lida bo'lib qolish va korupsiyalashish imkoniyatini yo'qqa chiqarmoqda. Fuqarolar o'zlarining yangi g'oya, fikrlarini boshqa fuqarolarga zarar yetkazmagan, milliy xavfsizlikka yoki jamoat tartibiga xavf tug'dirmagan holda, ommaviy tarzda ifoda qilish xuquqlariga ega bo'lmoqda. Bunda electron hukumatning o'rne beqiyos. **"Elektron hukumat" deganda davlat hukumati organlari oldida turgan vazifalarni yechish usullarini o'zgartirish uchun yaratilayotgan axborot tuzilmasi tushuniladi.** Masalan, davlat sektorlari oldin axborot texnologiyalarini alohida departament va tashkilotlarda ichki foydalanish uchun qo'llagan bo'lsa, endilikda axborot texnologiyalari katta qimmatga ega bo'lib, "tezkor, yaxshi, arzon, murojaat etish mumkin bo'lgan" tamoyillariga asoslanib faoliyat yuritmoqda.

Davlat va jamiyat tizimida modernizatsiyalash elektron

⁴¹ <https://xs.uz/uzkr/61922> "Xalq so'zi" 11.08.2021.

hukumatga ko'p tomonlama bog'liq jarayon bo'lib, davlat organlari faoliyatida aholi uchun AKTni joriy etilishi baravarida davlat boshqaruvida yangi imkoniyat yaratiladi. Elektron hukumat ikki muhim vazifani bajaradi: **birinchisi**, hukumat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilaydi; **ikkinchisi**, turli darajadagi davlat tashkilotlari (markaziy, hududiy, mahalliy) va turli sohalaridagi (qonunchilik, ijro, sud hokimiyati) idoralar o'rtasidagi ichki munosabatlarni mustahkamlaydi. Elektron hukumat tizimida shakllangan 200 dan ziyod davlat xizmatlari turlari haqidagi ma'lumot va xizmatlarni aholiga, bank, biznes va davlat organlari shaxobchalariga, idora va tashkilot rahbarlariga yetkazish, axborot texnologiyalaridan yuqori darajada foydalanib, buyurtmachi va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masofasini qisqartirish vazifasini yaxshi ado etayotganligi ko'rinadi.

Davlat boshqaruvida elektron hujjatning aylanishi tizimi - Elektron hukumat mamlakat miqyosida barcha boshqaruv jarayonlarini avtomatlashtirishga asoslanadi. U davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish maqsadida jamiyat a'zolari uchun ijtimoiy kommunikatsiya tarmoqlarini tashkil etmoqda, jamiyat boshqaruvining umumdavlat tarmoqlangan hujjatlarini boshqarish va qayta ishlash jarayonlariga bog'liq bir qator masalalar majmuasini shakllantirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoining davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan birinchi yo'nalishida mamlakatimizni modernizatsiya qilishda "Elektron hukumat" tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish vazifasi aniq belgilab berilgan edi. Demak, **hukumatning mazkur tizimni yo'lga qo'yishidan ko'zlangan maqsad:** aholi va tijoratga hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlarni optimallashtirish; barcha saylovchilarning davlatni boshqarish va rahbarlik jarayo-

nidagi ishtiroki darajasini oshirish; fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytirish; fuqarolarning texnologik ta'minlanganligini ko'tarish; davlat boshqaruvida sarf xarajatlarni kamaytirish, siyosiy tizimning samaradorligini oshirish va raqobatbardoshlikni ta'minlashdan iborat. Ushbu masalalarning yechimi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari samaradorligini oshirib, ularga bog'liq sarf-xarajatlarni 5-6 baravar kamaytiribgina qolmasdan, jamiyat bilan hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tubdan yaxshilamoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu, o'z navbatida, jamiyatni siyosiy modernizatsiyalashuvi va davlatimizning xalq oldidagi mas'uliyatini yuqori pog'onaga ko'tarilayotganidan darak beradi. Ilmiy tahlillar shundan dalolat bermoqdaki, O'zbekistonda 2015 yillardan boshlab elektron hukumat tizimi shakllanishi natijasida davlat va jamiyat munosabatlarini muvofiqlashtirish, o'zaro elektron muloqot va kelishuvlar tufayli siyosiy qarama-qarshiliklarni barham toptirish, hukumatga bo'lgan xalq noroziligini kamaytirish imkoniyati yaratildi. Bu esa mustaqillik yillarida ijtimoiy-siyosiy sohada erishilgan eng yaxshi yutuqlarimiz sirasiga kiradi.

Mamlakatimizda davlat va jamiyat tuzilmalari faoliyatida elektron hukumat uchta bosqichda joriy etildi:

Birinchi bosqichda AKT vositasi davlat organlari axborotlariga tashkilot, korxonalar va fuqarolarning murojaatini ko'rishni tezlashtirdi va aniq manzilini belgiladi. Uni amalga oshirish uchun davlat organlari o'z veb-saytlarini yaratishdi, saytlar reytingi e'lon qilindi, ularga qonunchilik va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, kerakli shakllar, statistik va iqtisodiy ma'lumotlar kiritib borildi. Bu bosqichning asosiy elementi ma'lumotlarning tez yangilanishi hamda barcha davlat axborot resurslarini jamlab, "Yagona darcha" orqali murojaatni ta'minlovchi davlat veb-portalining mavjudligi hisoblanadi.

Ikkinchi bosqichda davlat xizmatlari (ko'chmas mulk va yer maydonlarini ro'yxatga olish, soliq deklaratsiyalarini

to'ldirish, ruxsatnoma olish uchun arizalar berish va boshqalar) onlayn rejimida taqdim etildi. Mazkur bosqichga o'tish byurokratik to'siqlarga barham berdi, murakkab jarayonlar soddalashdi, tashkilot rahbarlari bilan bevosita muloqotlar paydo bo'ldi. Bu bosqichda hukumat organlariga elektron shaklda (**e-services**) "Yagona oyna" orqali haftaning 7 kuni va kunning 24 soati mobaynida xizmat ko'rsatiladigan bo'ldi.

Uchinchi bosqichda davlat siyosatini ishlab chiqishning jamiki jarayonlarida oddiy fuqarolar va firmalar rahbarlarining siyosatchilar va rahbarlar bilan interaktiv munosabatlari ta'minlandi. Bu ishlar asosan veb-forumlar orqali amalga oshirilib, qonunchilik dalolatnomalari va me'yoriy-huquqiy hujjatlar loyihalari, taklif va tavsiyalar jamlanib, qizg'in muhokama etildi.

Siyosatshunos va iqtisodchi olimlar, soha mutaxassislari elektron hukumat xizmatini ikki ma'noda talqin qilishadi: birinchisi, yangi axborot texnologiyalari asosida davlat boshqaruv faoliyatini takomillashtirish va aholiga samarali xizmat ko'rsatishni ta'minlash; ikkinchisi, idoralar, tashkilotlararo munosabatlar usulini modernizatsiyalash (zamonaviylashtirish), davlat boshqaruvining jamiyat bilan o'zaro munosabatlari to'liq yo'lga qo'yishdir. Shu tariqa, davlat va hukumat elektron vositalar yordamida aholiga, biznes-tashkilotlariga samarali xizmat ko'rsatadi, vazirlik va idoralar o'rtasidagi munosabatlar takomillashib boradi.

Haqiqatan ham, O'zbekistonda elektron hukumat tizimi jamiyat modernizatsiyalashuvining samarali kechishiga yaxshi xizmat qilmoqda. Jumladan, bu tizim aholiga va tadbirkorlarga qulay, tezkor xizmat ko'rsatish; fuqarolarning o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish jarayonlari izchilligini oshirish; ularning texnologik savodxonlik darajasini ko'tarish; saylovchilarning faolligi va ijtimoiylashuvini ta'minlash; fuqarolar geografik joylashuvi ta'sirini kamaytirish; hududlar aholisi siyosiy madaniyatidagi farqlarni kamaytirish singari qo'shimcha imkoniyatlarni yaratib bermoqda.

Xo'sh, bu tizim orqali biz nimalarga erishdik? Avvalo, ma'muriy boshqaruvning sarf-xarajati kamaydi va ijro hokimiyatining samaradorligi anchagina ko'rindi; jamiyat va hukumat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mazmun-mohiyati va shakli ijobiy tomonga o'zgardi; demokratik jarayonlarni takomillashtirishga keng imkoniyatlar yaratildi va xalq oldida davlatning mas'uliyati, javobgarligi oshdi.

Biz maqolamiz so'ngida elektron hukumat tizimida o'z yechimini kutayotgan ayrim **muammolarni** ham keltirib o'tmoqchimiz. Bular: hukumat axborot tizimlari o'zaro muvofiqligini, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining kompyuter tarmog'iga keng doirada kira olishini ta'minlash; davlat axborot tizimlari integratsiyasiga erishish; ma'lumotlarga murojaatlarning me'yoriy-huquqiy bazasini yaratish; axborot-ma'lumot tizimini rivojlantirish va davlat xizmatlarini taqdim etish jarayonida elektron kommunikatsiyani joriy etish; olingan natijalar asosida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish.

Harakatlar strategiyasi – milliy taraqqiyotning takomillashgan konseptual modeliga aylandi. Bunday modernizatsiyalash aslida an'anaviy jamiyatni zamonaviylashtirish bo'lib, milliy rivojlanishda bir qadam olg'a siljishni bildiradi. Xalqaro andozalar, jahon talablariga yetib olish maqsadida O'zbekistonda siyosiy modernizatsiyaning jadallashgan modeliga o'tildi, deyishga asoslar mavjud. Bizning nazarimizda, davlat boshqaruvida yangicha yondashuv va tamoyillarni ishlab chiqishga taraqqiyot yo'limizning **tanqidiy tahlili**, jahon bozori kon'yunkturasi keskin o'zgarayotgani, globallashtirish sharoitidagi tobora kuchayayotgan raqobat kabi **omillar** sabab bo'ldi.

Siyosiy hokimiyatning vazifasi – xalq hokimiyatini nomiga emas, balki amalda joriy qilish mexanizmlarini mustahkamlash.

Xulosa shuki, elektron hukumat tizimi jamiyat erkinlashuvi va fuqarolarimizning ijtimoiy faolligi o'sishiga xizmat qilmoqda.

BUNYODKORLIK FALSAFASI⁴²



Yangilanishlar, eng avvalo, tafakkurdan boshlanishi shart! Xalq dunyoqarashi o'zgarishi — islohotlarning asl debochasi. Ongi, yuragi, ruhi uyg' oq odamlardan esa chinakam fidoyilik, tashabbuskorlik va yaratuvchanlikni kutish mumkin. Bunyodkorlik falsafasining asl mohiyati ham shu.

Prezidentimiz yaqinda matbuotga bergan intervyusida bu haqda to'xtalar ekan, ma'naviy uyg' oq jamiyatni qudratli kuchga qiyos etdi. Quvonarli jihati, bugun odamlar uyg'onmoqda, jamiyat o'zgarmoqda.

Islohotlarning yangi davriga qadam qo'yganimizga hade may besh yil to'ladi. Shu o'tgan davrda nimalarga erishdik, nimalarga ulgurolmadik, kelajakda yana qanday ishlarni amalga oshirishimiz kerak, degan savollar bugun har bir ijtimoiy faol yurtdoshimizning ko'nglidan, xayolidan o'tayotganiga shubha yo'q!

Bizga kuchli kadrlar kerak!

Yurt taraqqiyotiga daxldor strategik vazifalarni ro'yobga chiqarish uchun kuchli mutaxassislar kerak. Chunki murakkab davr muammolarini eskicha fikrlaydigan, eski uslubda ishlovchi byurokratik kadrlar bilan hal etib bo'lmaydi. Shu bois O'zbekistonda xorijdan vatandoshlarimiz va yetuk mutaxassislarni jalb etish tajribasi keng qo'llanildi. Vazirlik va idoralarga AQSh, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Yevropaning nufuzli oliy o'quv yurtlarida tahsil olgan va yaxshi ish tajribasiga ega 35-40 yoshdagi kadrlar tayinlanishi bu borada dadil qadam bo'ldi. Ayni maqsadda O'zbekiston Respublikasi

⁴² <https://xs.uz/uzkr/62498> "Xalq so'zi" 23.08.2021.

Prezidenti huzurida yagona davlat kadrlar siyosatini amalga oshirish uchun mas'ul bo'lgan ixtisoslashtirilgan organ tashkil etildi. Shu tariqa kadrlar faoliyati samaradorligini baholashning zamonaviy uslublari joriy qilindi. Binobarin, davlat xizmatchilari mehnatiga haq to'lash va ijtimoiy ta'minotining zamonaviy tizimi yaratildi. Bu davlat xizmati jozibadorligini oshirish, korrupsiyaning yuzaga kelish xavfi va mansab suliiste'molchiligini kamaytirish imkonini berishi bilan ahamiyatlidir. Mahalliy boshqaruv tizimini modernizatsiyalash, demokratik islohotlarni amalga oshirishda, avvalo, ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatining shaffofligi va ochiqligini ta'minlashning dolzarb vazifasiga aylandi.

Shu o'rinda BMT Taraqqiyot dasturi loyihasi doirasida 2017 yilda yozilgan bir tadqiqotimiz haqida to'xtalib o'tsam. Unda davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyati ochiqligini ta'minlash mexanizmlarini ochib bergandik. O'shanda bu ko'rsatkich bor-yo'g'i 30-35 foizni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda u 80-85 foizga yetib qoldi. Demak, boshqaruv organlari zamon talabiga javob berishga intilmoqda. Qisqa vaqt ichida davlat va biznes tuzilmalarning jamoatchilik bilan ta'sir aloqalari shakllandi, ijro hokimiyati organlarida amalga oshirilgan ishlar va yakuniy natijalar o'rtasida farq miqdori oshdi. Ijro hokimiyati organlari funksiyalari ko'payib borayotgani sababli bu ko'ptarmoqli faoliyatni qamrab olish imkonini beradigan elektron, onlayn tizimlar vujudga keldi.

BMT bosh minbaridan yangragan haqiqatlar

Markaziy Osiyo — muhim geosiyosiy nuqtada joylashgan mintaq. O'zbekiston esa xorijiy va qo'shni mamlakatlar bilan olib borayotgan ochiq, konstruktiv, o'zaro manfaatli tashqi siyosati bilan ana shu mintaq hayotidagi tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Natijada nafaqat madaniy-ma'rifiy aloqalar va do'stona munosabatlarimiz tiklandi, balki iqtisodiy-siyosiy sohalarda ham hamkorligimiz mustahkamlandi.

Bundan tashqari, davlatimiz rahbari 2017 yil 19 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi tarixiy nutqida jamiyatimizda siyosiy faollik ortib borayotgani, barcha jabhada chuqur islohotlar amalga oshirilayotganini ta'kidladi. Bu orqali butun dunyo O'zbekiston demokratik davlat va adolatli jamiyat barpo etishga kirishganiga ishonch hosil qildi. O'z navbatida, joylarda Prezidentning Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilishi, Xalqaro mehnat tashkiloti bilan hamkorlikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga barham berish bo'yicha ta'sirchan choralar ko'rilganini jahon afkor ommasi mamnuniyat bilan qabul qildi. Xorijga chiqish vizalari bekor qilinib, inson huquqlarini himoya qilish masalasi bo'yicha milliy va xalqaro nodavlat tashkilotlar bilan ochiq muloqot faollashib borayotgani ijobiy qadamdir, albatta. Ekstremizm g'oyalari ta'siriga tushib qolgan, adashgan fuqarolar ijtimoiy reabilitatsiya qilinishi bag'rikenglik siyosati, OAVning o'rni sezilarli darajada oshayotgani esa so'z erkinligi ta'minlanishi yo'lidagi ezgu sa'y-harakatlar sifatida baholanmoqda. Jahon ommasiga O'zbekiston iqtisodiyotida o'zgarish yasagan axborot sifatida 2017 yil 1 sentabridan milliy valyutani erkin konvertatsiya qilish tizimiga to'liq o'tilgani ma'lum qilindi. Bular islohotlar jarayoni jadallashganidan darak berardi.

Har tashabbus ortida xalq dardi bor!

Islohotlarga g'oya va tashabbuslar turtki bo'ladi. Yurtboshimiz esa besh yillik faoliyati davomida bir qator muhim tashabbuslar bilan chiqdi. Markaziy Osiyoda o'zaro muloqot, amaliy hamkorlik va yaxshi qo'shnichilikni mustahkamlash — shulardan birinchisi. Ikkinchisi Orol dengizining qurishi bilan bog'liq oqibatlarini bartaraf etish masalasida o'z aksini topdi. Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish - to'rtinchi muhim tashabbus. E'tiborlisi, mazkur global muammolar yechimiga chaqiriq BMT tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston rahbari ko'targan dolzarb masalalardan yana

biri dunyoda terrorizm tahdidlari kuchayib borayotgan pal-lada yoshlarning ongu tafakkurini ma'rifat asosida shakllan-tirish va tarbiyalash eng muhim vazifaga aylanishi kerak, de-gan fikr edi. «Ekstremistik faoliyat va zo'ravonlik bilan bog'liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomo-nidan sodir etilmoqda. Bugungi dunyo yoshlari soni jihatidan butun insoniyat tarixidagi eng yirik avloddir, chunki ular 2 milliard kishini tashkil etadi. Bizning asosiy vazifamiz yosh-larning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoit-lar yaratish, zo'ravonlik g'oyasi «virusi» tarqalishining oldini olishdir, — dedi Prezidentimiz. — Buning uchun yosh avlod-ni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, uning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivoj-lantirish lozim». Shu munosabat bilan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konven-siyasini ishlab chiqish taklif etildi.

Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoevning yana bir tashab-busi Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini, Toshkentda Islom sivilizatsiyasi markazini tashkil etish barobarida, sessiya ishtirokchilariga BMT Bosh Assambleyasining «Ma'rifat va diniy bag'rikenglik» deb nomlangan maxsus rezolyusiyasini qabul qilish taklifi edi. Bu hujjatlarning asosiy maqsadi barchaning ta'lim olish huquqini ta'minlashga, savodsizlik va jaholatga barham be-rishga ko'maklashishdan iborat. Bular hammasi jamiyatni modernizatsiyalash, isloh etish jarayonida xalqaro mezonlar-ga dadil o'tilayotganidan dalolat beradi.

Imkoniyatni yaqinimizdan izlaylik

Bugungi tashqi siyosatda Markaziy Osiyoga ustuvorlik berilayotganini ilg'ash mushkul emas. Bu — har tomonla-ma chuqur o'ylab tanlangan yo'l, deb hisoblaymiz. Marka-ziy Osiyoning qoq markazida joylashgan O'zbekiston ushbu mintaqa barqarorlik, izchil taraqqiyot va yaxshi qo'shnichilik

hududiga aylanishi tarafdori va tashabbuskori. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoevning Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining maslahat uchrashuvlarini o'tkazish to'g'risidagi taklifi amalga oshdi. Ushbu muloqotning birinchisi 2018 yil 15 mart kuni Qozog'iston poytaxti Ostona shahrida bo'lib o'tdi. Ikkinchisi 2019 yil 29 noyabr kuni Toshkent shahrida o'tkazildi. Ammo koronavirus pandemiyasi avj olishi tufayli 2020 yilgi uchrashuv ortga surilib, 2021 yil 6 avgust kuni Turkmanistonning «Avaza» milliy turizm zonasida tashkil etildi. «Xalq diplomatiyasi» imkoniyatlarini ko'proq ishga solish, parlamentlar va media sohani jalb qilish g'oyat muhimdir», dedi anjumandagi nutqida Prezidentimiz.

Ha, O'zbekistonning turli qit'alaridagi ko'plab mamlakatlardan va davlat uyushmalari bilan munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarildi. Bu borada islohotlar ham amalga oshirildi. Jumladan, bojxona to'lovlari stavkalari ikki barobar kamaytirildi, 3 ming 550 ta mahsulot nomlari va 1 ming 122 turdagi mahsulotlar aksiz solig'iga import bojlarining nol stavkalari qo'llanildi. 2016-2020 yillarda barcha manbalar hisobidan asosiy kapitalga jami 89 mlrd. dollarlik investitsiya kiritildi, ulardan 19,5 mlrd. dollari to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlardir. Shuningdek, 2016-2020 yillarda respublikaning umumiy eksporti 72,5 mlrd. dollarni tashkil etdi, shundan 2020 yilda 15,1 mlrd. dollarlik mahsulotlar eksport qilindi, bu esa 2016 yilga nisbatan 25 foizga ko'pdir.

2021 yil 15 mart holatiga ko'ra, fuqarolari uchun O'zbekistonda vizasiz rejim joriy qilingan mamlakatlar soni 90 tani tashkil qiladi. Oxirgi uch yil ichida ushbu ro'yxatdagi davlatlar soni 10 barobardan oshdi. Bu esa ushbu davrda turistlar oqimi deyarli 4 baravar ko'payishiga olib keldi.

Ammo shu bilan birga, Markaziy Osiyo mamlakatlari oldida **chegara, suv muammolarini** hal qilish vazifasi turibdi. Pandemiya tufayli dunyo bo'ylab havo yo'llari tarmog'i 60 foiz, mehmonxona va turizm sohasi 70 foiz daromadidan

ayrildi. Bu holat O'zbekiston iqtisodiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini ko'rsatdi, yalpi ichki mahsulot (YaIM) o'sishi 5,6 foizdan pastga tushdi. O'zbekiston iqtisodiyoti pasayishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sifatida tashqi savdo hajmining keskin qisqarishi, migrantlar pul oqimlari hajmi 50 foizdan ko'proqqa pasayishi va hukumat tomonidan joriy qilingan karantin cheklovlari tufayli ichki bozordagi iste'mol va talabga doir holatning yomonlashuvi tilga olinmoqda.

Markaziy Osiyo xalqaro instituti direktori Anvar Nosirovning fikricha, Boston xalqaro konsalting kompaniyasi hisobotiga ko'ra, Markaziy Osiyoning kelgusi 10 yil mobaynida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish salohiyati 170 milliard dollarga teng, shu jumladan, 40-70 milliard dollar xom ashyo sektori bilan bog'liq bo'lmagan sohalarga jalb qilinishi mumkin. BMT ma'lumoti bo'yicha, samarali iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish Markaziy Osiyo davlatlarining YaIM hajmini (2020 yilda 291 mlrd. dollar) ikki barobar oshirish imkonini beradi. Demak, iqtisodiy va siyosiy manfaatlarimizni olisdan izlash o'rniga, qo'shnilar bilan amaliy hamkorlikni kuchaytirish lozim.

Islahot markazida inson manfaati yotibdi

Xalqaro ekspertlar fikricha, strategik maqsadlar mamlakatning xalqaro maydonda o'z oldiga qo'ygan vazifalarini to'la amalga oshirishda yangi-yangi imkoniyatlarni taqdim etadi. O'zbekiston esa davlat dasturlari va qonunlarni qabul qilish bilan cheklanib qolmay, ularni hayotga izchil tatbiq etishga intilmoqda. Harakatlar strategiyasida jamiyat ravnaqiga xizmat qiladigan o'nlab ustuvor sohalar qamrab olingan. Masalan, 2017 yildan boshlab, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik muvaffaqiyatli rivojlanmoqda, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) bilan sheriklik aloqalari qaytadan tiklandi. YeTTB yana O'zbekistonga qaytdi. Ular shafqolikni oshirish va mahalliy statistikani muvofiqlashtirish

borasida hukumat bilan ishlamoqda. Keyingi qadam suveren obligatsiyalarni ishlab chiqarish bo'ldi.

Yangi O'zbekiston strategiyasining bosh maqsadi demokratik jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlovchi ichki mexanizmlarni tezroq barpo etishga qaratilgan. Quvonarlisi, hozirgacha bu borada keng ko'lamli ishlarni bajarishga erishildi. Davlat boshqaruvi takomillashtirilib, jadal o'zgarib borayotgan hayot talablariga muvofiqlashtirib borilmoqda. Bizningcha, yutuqlarimizning asosiy omili islohotlar uzoq muddatli konseptual strategiyaga asoslanganligi bilan xarakterlanadi.

Islohotlar bardavom. Chunki, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, bugungi O'zbekiston – bu hali tom ma'nodagi, biz orzu qilayotgan, intilayotgan Yangi O'zbekiston emas. Hali bu marraga yetish uchun oldimizda juda olis va mashaqqatli yo'l turibdi. Yo'limiz shu paytgacha oson bo'lgani yo'q, bundan keyin ham oson bo'lmaydi. Lekin biz dadil oldinga borishdan, kerak bo'lsa, kutilmagan, ammo pirovard natijasi samarali va xalqimiz manfaatlariga javob beradigan noan'anaviy qarorlar qabul qilishdan cho'chimasligimiz zarur.

"Men boshqaruvga bitta aniq o'ylab chiqilgan maqsad bilan kirishdim: ingliz jamiyatini to'liq davlat qaramog'idagi boqimandalik holatidan o'z kelajagiga to'liq ishongan tadbirkor holatigacha; "o'tiramiz" va "kutamiz" Angliyasi o'rniga "uyg'on" va "yur" Angliyasi o'rnatilishi uchun an'anaviy "marhamat qilib menga bering"dan "hammasini o'zimiz qilamiz" millatigacha o'zgartirish!"

**Buyuk Britaniya bosh vaziri
Margaret Tetcher⁴³**

Ikkinchi fasl

KATTA FAROVONLIK JAMIYATI TAJRIBALARI

SHARH



Katta farovonlik jamiyati – insonning baxtli hayot kechirishi, boy-badavlat yashashi ta'min etilgan yuqori pog'ona. XVI asrdan so'ng G'arb mamlakatlari fuqarosiga baxt-omad kulib boqdi, individualizm va xususiy mulkka egalik huquqi berildi. Din va davlat ishlari ayri bo'lgandan keyin taraqqiyotga yuz burildi. G'arb olami iqtisod, siyosat, ijtimoiy hayot bobida dunyo ahliga ibrat bo'ldi. Demokratik tizim shaxsga xizmat qildi. Ammo qadimgi Yunoniston, Rimdagidek, 2008 yillardan boshlab, iqtisodiy, ma'naviy inqiroz sodir bo'lgandan keyin G'arbning ayrim xatolari o'ziga qimmatga tushdi...

⁴³ Ergashev Sh. Bobomatov T. XX asr: tarixlar qatida yashirigan taqdirlar. –T.: O'zbekiston, 2018. – B. 392

YEVROPA DAVLATLARI MODERNIZATSIYASI: TAJRIBA VA SABOQLAR⁴⁴

Sharqdan o'rganish davri

Bugungi kunda olimlar tomonidan islom madaniyati bilan Yevropa madaniyatining o'zaro munosabatlari masalasi imkon qadar tadqiq qilingan. G'arb olimlari negadir o'zlarining hozirgi madaniyatini qadim Yunon madaniyatining bevosita davomi, deb da'vo qiladilar. Bu masalani rossiyalik ma'rifatparvar olim **Ismoil Gasprinskiy (1851-1914)** maxsus o'rgangan. Uning fikricha, yunon madaniyati oldin islom dunyosiga yoyilgan va bir necha asr musulmonlar uni taraqqiy ettirib, nuqsonlarini ozaytirib, Yevropaga yetkazishgan. Amerikalik olim **A. Draber "Yevropa aqliy taraqqiyoti tarixi"** kitobida Sokrat, Platon, Aristotel kabi antik davr olimlarining asarlarini G'arbga musulmonlar tanitganligi haqida gapirib, "Yevropaning bugungi ulug' ziyosi musulmonlar yoqqan sham' va chiroqlarning yog'dusidan maydonga kelgan"⁴⁵, deb e'tirof etgan edi.

Ma'lumki, yunon madaniyati musulmonlar hayotiga VIII asrda –Abbosiy xalifa Abu Ja'far Abdulloh al-Mansur (714-775) zamonida kirib keldi. 754-778 yillarda xalifalikni boshqargan al Mansur o'rta asrda dunyodagi eng yirik shahar va ilm-fan markazi bo'lgan Bag'dodni qurdirib, poytaxti deb e'lon qilgandi. Ilmni e'zozlagan xalifa hind olimlaridan ilmi nujumni, yunonlardan aniq fanlarning asoslarini o'rganib, ularni tarjima qilishni o'ylab yurardi. 431 yili dunyoviy

⁴⁴ <http://uza.uz/oz/society/evropa-davlatlari-islo-otlari-tarikh-tazhriba-va-sabo-lar-b-18-02-2020>

⁴⁵ Qosimov B. Milliy uyg'onish. –T.: Ma'naviyat, 2002. – B.181.

qarashlari uchun Efes ibodatxonasida sazoyi qilinib, yurtidan badarg'a etilgan patriarx Nastor izdoshlari Eron, O'rta Osiyo, Arabiston shaharlarida darbadar kezib yurishgan. Iste'dodli nastoriylar guruhining daragini eshitgan Abu Ja'far ularni darhol o'zining himoyasiga olib, saroyga chaqiradi va tarjima ishlarini boshlab yuboradi. Qisqa vaqt ichida antik davrning eng nodir asarlari arab tiliga o'girilib, Bag'dod, Shom, Xorazm kutubxonalari ilm-hikmat xazinalariga jo'natiladi. Xususan, bu jabhada Bag'dodlik xalifalar Abu Ja'far al Mansur, uning nevarasi Xorun ar-Rashid himmat va fidoyiligini namoyon qildilar.

Arablar Ispaniyasi Yevropa ilm-fanining rivojiga ulkan xizmat qildi. O'sha davrda Andaluziya poytaxti Qurtabo xalifaligi xazinasini jami Yevropa mamlakatlari xazinasini birga qo'sh-ganda ham ko'proqni tashkil etardi. Ismoil Gasprinskiy "Dorul-rohat musulmonlari" asarida ta'kidlashicha, **1852 yilda Qurtabo kutubxonasida 600 mingta kitob bo'lgan, butun o'lkada 70 ta ulkan kutubxona ishlagan.** Yevropaliklar Andaluziya maktab-madrasalariga kelib o'qishgan. Yevropa Qurtabo madrasalaridan andoza olib, o'z universitetlarini quradi...Xullas, insoniyat taraqqiyotini yangi bir bosqichga ko'targan Yevropa ilm-fanining tamal toshi olis XII-XIII asrlarda Andaluziyada – musulmonlar Ispaniyasida qo'yilgan edi.

Biroq har yaxshilikning kushandasi bo'lganidek, mutaas-siblik degan ofat qisqa muddatda o'lkadagi yuksak islom ma-daniyatini yo'q qilib tashladi. Qirol Ferdinand (1452–1505) Andaluziyani musulmonlar qo'lidan qaytarib olgach, o'lkani johilona sur'atda musulmonlikdan "tozalash"ga kirishdi.

Rivojlanish bosqichlari

Yevropa siyosiy tarixi IX asrda **Angliyada** ilk markazlash-gan davlatning shakllanishi bilan boshlanadi. Normandiya qi-rol-i Vilgelm Fotih Angliyani 1066 yilda zabt etganidan keyin

markazlashgan davlat yaratish harakati yangi bosqichga ko'tarildi. XII asrda qirol hokimiyati yanada kuchaydi. 1689 yilda qabul qilingan "Huquqlar to'g'risida bill" huquqiy hujjatlar to'plami Angliya siyosiy tizimi shakllanishida yetakchi rol o'ynadi (hozirga qadar Konstitutsiya vazifasini bajaradi). Hatto mazkur hujjatning tarixiy ildizlariga suyanib, AQShning Konstitutsiyasi yaratilgan.

Germaniya siyosiy tizimi rivoji ham o'ziga xos kechdi. "Germaniyada 1356 yilda imperator Karl IV davrida Oltin Bulla qabul qilindi. "Bulla" so'zining mazmuni keng, u birinchidan, "yumaloq muhr"ni nazarda tutsa, ikkinchidan, "qonunlar to'plami" ma'nosini bildiradi. "Aynan ana shu Oltin Bullada imperatorni saylash qoidalari ilk bor belgilab qo'yilgan. Hujjatga ko'ra, nemis kurfyurstlari, ya'ni knyaz yoki beklari "Muqaddas nemis millati imperiyasi"ning imperatorini saylash huquqiga ega bo'lishgan. Rasman bu qoida to 1806 yilga qadar, ya'ni Napoleon I tajovuzigacha davom etgan bo'lib, ushbu tarqoq "imperiya" Muqaddas Rim imperiyasi nomi bilan yuritilgan"⁴⁶.

Inqilobiy kashfiyotlar ham qit'aning taraqqiyotiga xizmat qildi, deyishga haqlimiz. Misol uchun 1440 yilda nemis lo-gann Gutenberg bosma stanokni kashf qilib, kitob chiqarishni yo'lga qo'ygani, Xristofor Kolumb Amerikani ochgani (1492), Vasko da Gama Afrikani aylanib o'tib, Hindistonga boradigan dengiz yo'lini kashf qilgani (1498), F. Magellan o'zining uzoq davom etgan sayohatiga asoslanib (1519-1522), Yer kurrasining sharsimonligini isbotlagani hamda geografiya, geodeziya fanlari e'tirof etilgani, kimyo va astronomiyada yirik yutuqlarga erishilgani, shubhasiz, G'arbning tarixdagi katta yutuqlari edi.

Dunyoda siyosiy modernizatsiya jarayonini dastlab G'arb davlatlari boshlab berdilar. Birinchidan, XVI asr birinchi yarmi-

⁴⁶ Farmonov R., Jo'rayev Q. Qiyosiy siyosiy tizimlar va ko'ppartiyaviylik. -T.: JIDU, 2000. -B. 9-10.

da shakllangan reformatziya⁴⁷ harakati davrida protestantizmga asos solingani ma'naviy inqilobga teng hodisa bo'ldi. Xristianlikning pravoslav va katoliklikdan keyingi uchinchi ko'rinishi protestantizm⁴⁸ Germaniyada dvoryanlar sinfining hulumron Rim papasiga qarshi harakatidan boshlandi. So'ng, u Angliya, Shotlandiya, Daniya, Shveysiya, Finlyandiya, Norvegiya, Gollandiya, Chexiya, Vengriya, Shveysariya va qisman Germaniyada xristianlikning katolik tizimidan ajralib ketishiga sabab bo'ldi. Tahllillarimizga ko'ra, **"protestantizm ta'limotining tarixiy xizmati** shundan iboratki, u ruhoniy hokimiyatning dunyoviy hokimiyatdan ustunligiga, katolik cherkovi, xususan Rim papasining peshvollik roliga putur yetkazdi, shaxsiy e'tiqodni dindorlikdan yuqori qo'ydi, insonni feodal illatlardan ozod qilib, xususiy mulk hissini uyg'otdi"⁴⁹.

Olimlar va adiblarning vatanparvarligi

Endi navbat keldi, qit'aning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim-u adiblarning vatanparvarlik tashabbuslari (g'oyalari, ta'limotlari) haqida hikoya qilamiz. Ingliz olimi Jon Lokk (1632–1704) 1688–1689 yillarda o'zining siyosiy kompromiss to'g'risidagi yaxshi ta'limotini yaratdi. Olim xususiy mulkka ega bo'lish inson oilasining yashashi uchun zarur ehtiyojni ta'minlaydi, u moddiy narsalarga ega bo'lganda, individual rivojlanishga e'tibor beradi, degan xulosaga keladi.

XVII asrda **Gollandiya va Angliya** milliy sanoatni ancha rivojlantirib, Yevropada industrilashtirish davriga poydevor qo'ydilar. Industrilashtirish aslida, modernizatsiya – yangilanish, zamonaviylashtirishning ilk talabi edi. Ko'p o'tmay, Fransiya, keyinroq German davlatlari Prussiya, Avstro-Vengriya an'anaviylikdan zamonaviy jamiyat qurishga o'tdilar.

⁴⁷ Reformare– lotincha "shaklini o'zgartirmoq", "tuzatmoq" ma'nosini beradi.

⁴⁸ Protestants – lotincha "norozilik bildiruvchi", "oshkora isbot qiluvchi" degani

⁴⁹ Omonov B.A. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 80.

Modernizatsiyaga doir qarashlar g'arb jamiyatida hali shakllanmaganidan, ular oldida ilmiy va amaliy izlanish olib borish, ilg'or davlatlarning tajribasini o'rganish masalasi turardi. Bu borada fransuz ma'rifatchilarining qo'shni davlatlar tajribasini o'rganishga intilishini ajoyib harakat, deb baholaymiz (*ular tajribasini bugungi O'zbekiston fidoyi olimlari, adiblari ham qo'llashiga imkoniyat mavjud – B.O.*). Fransuzlar iqtisodiy, siyosiy sohada peshqadam Angliya va Gollandiyadan modernizatsiya yangiliklarini o'zlashtirdilar.

Bir necha misollar keltiramiz. 1722 yilda fransuz adibi **F. Volter** (1694-1778) Gollandiyaga shu maqsadda ikkinchi marta borganida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishdan ta'sirlanib, quyidagilarni yozdi: "Dunyoning yirik savdo portlari joylashgan shaharni sinchiklab ko'zdan kechirdim. Portda mingdan oshiq kemalar turibdi. Amsterdarning besh yuz ming aholisi orasidan birorta bekorchi, kambag'al, olifta yoki bironta kalondimog' odamni ko'rmadim. Biz piyoda, xizmatkor yordamisiz, oddiy xalq ichida yurgan pensioneriy (*shunday lavozim egasi–B.O.*)larni uchratdik. U yerda devor ustiga chiqib, shahzodani poylashmaydi. Mamlakatda mehnatkashlik va kamtarlik hukmron".

F. Volter Angliya hayoti bilan tanishish niyatida 1726 yilgi safarida dunyoga mashhur "Falsafiy maktublar" yoki "Ingliz millati haqida maktublar" asarini bitadi. Bu gal adib milliy iqtisod qaysi yo'ldan ketayotganini tahlil qilayotib: "Angliya shahar ahlini boy qilgan savdo ularni ozod qilishga imkon bergan, ozodlik, o'z navbatida, savdoni kengaytirgan, shuning o'zi davlatni ulug'vor qilgan. Angliyaliklar savdo-sotiq yordamida dengiz kuchlarini o'z amriga bo'ysundirgan"⁵⁰, deb yozgan edi.

Fransuz faylasufi **Sharl de Monteskyo** (1689-1755) ham Yevropaning o'tmishi va hozirgi hayotini maxsus tadqiq qilgan edi. "Qonunlar ruhi haqida" asarida ta'kidlaganidek,

⁵⁰ Travin D., Marganiya O. Yevropeyskaya modernizatsiya: V 2 kn. Kn. 1 /. –M.: ACT, 2004. – S. 151-153

“Inglizlar dunyoning boshqa xalqlariga qaraganda, buyuk din, savdo-sotiq va ozodlikni ardoqlashgani evaziga buyuk millatga aylanishgan!”. Olim ilmiy tadqiqotiga yana manbalar to'plash uchun butun Yevropani kezib chiqadi. Angliya parlamentining qariyb 12 soatga cho'zilgan yig'ilishida hukumat bilan muxolifat o'rtasidagi munozaraga guvoh bo'ladi. Bu g'aroyib safar Monteskyoda hokimiyatning bo'linishi haqidagi nazariyaning yaratilishiga turtki beradi. U qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlari faqat qonun asosidagina hokimiyatni saqlab turishi mumkin, degan xulosaga keladi.

Lokk, Volter, Monteskyolardan so'ng, siyosiy fikrlar rivojini J. Russo (1712–1778), E.Berk (1729–1797), J.Medison (1751–1836) kabi olimlar yangi g'oyalari bilan boyitdilar. Shunday qilib, bir asr mobaynida keng quloch yoygan **ma'rifatchilik harakati** fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy hayotini demokratik tartibotlar asosida qurishga olib keldi. Bizningcha, har bir kichik davlat, jumladan, O'zbekiston ham ana shu boy tajribani o'rganish va hayotga tadbiiq etishga haqli, deb hisoblaymiz.

Biroq XVII-XVIII asrlarda Yevropa davlatlarida **mada-niyatlarning xilma-xilligi** birqator muammolarni o'rtaga qo'ygandi. **Birinchi**dan, davlatlarda turli siyosiy modellar (konstitutsion monarxiya, prezidentlik, parlament respublikasi); **ikkinchi**dan, parlament saylovini o'tkazishning har xil mexanizmi (majoritar, proporsional, aralash); **uchinchi**dan, davlat birligini ta'minlashda yondashuvlar (unitar davlat, federatsiya) turli-tumanligi siyosiy modernizatsiya jarayoniga jiddiy ta'sir o'tkazdi. Chindan ham, Yevropa ko'plab muammolarning yechimiga javob topadigan yagona g'oyaga ehtiyoj sezardi. Shunda atoqli nemis olimi **Maks Veber** (1864–1920) zamonaviy axloqiy nazariyalarni tahlil qilib, protestant etikasi ruhi asosida kapitalizm rivojlanishi konsepsiyasini ishlab chiqishga muvaffaq bo'ldi. U “Protestantcha etika va kapitalizmning ruhi” (1905) asarida o'zining g'oyalarini ilgari surib,

markscha ta'limotga qarshi chiqdi. Ko'plab dinlarning "xo'jalik etika"sini qiyosiy tanqidiy tahlil qilarkan, "kapitalizm das-tavval G'arbda rivojlanishi mumkin", degan xulosaga keldi. Olim dinlar ichki mohiyatini o'rganib, **din sanoat kapitali-zmi rivoji va ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'lishini yaxshi tushundi**, g'arbliklarni boylikka egalikni Xudoning ne'mati, deb bilishga da'vat qildi.

Yirik ingliz olimi **Arnold Toynbi** (1889-1975) 1934-1961 yillarda 12 jildlik "Tarixni bilish" asarida yuqoridagi evolyusion jarayonlar, Sharq va G'arbning bir-birini boyit-gan umumiy jihatlarini ochib bergandi. "Bu monumental asarda Toynbi ko'p faktik materiallar asosida 26 ta jamiyat va 21 ta sivilizatsiyaning vujudga kelishi, ravnaq topishi va yemirilishi jarayonini mohirona tadqiq qildi". Albatta, O'rta Osiyo sivilizatsiyasi gurkirashi va inqirozi sabablariga ham e'tiborini qaratdi. Toynbining xizmati birinchisi, keyingi av-lodlarga bebaho tarixiy asarini yozib qoldirgani, ikkinchisi, sivilizatsiyalarning sinishi, tanazzul bosqichlariga jamiyat-dagi ichki portlash olib kelishini, uchinchisi, sivilizatsiyalarni rivojlantiruvchi kuch ijodiy elita ekanligini isbotlagani bo'ldi. Tarixiy epopeyada Gabsburg monarxiyasi davrida imperator Iosif II ning qayta qurish, XIX asr boshida pruss iqtisodiy islo-hotlari, Rossiyada krepostnoylik huquqining bekor qilinishi, Yaponiyada Meydzi inqilobi, Eronda "Oq inqilob" kuchli elita-ning tashabbusi, tashkilotchiligi va kuch-qudrati tufayli sodir bo'lgani mohirona tarzda ochib berildi.

Modernizatsiyaning to'rtta bosqichi

Uzoq yillik izlanishlardan keyin Yevropa qit'asida moder-nizatsion islohotlarning shakllanishi to'rtta bosqichini tahlil qilib, quyidagi xulosaga kelindi⁵¹:

Modernizatsiyaning birinchi to'liqini, qit'ada XVIII asr-

⁵¹ Omonov B. Jamiyatni modernizatsiyalashning konseptual asoslari. – T.: Aloqachi, 2019. – B. 84.

ning ikkinchi yarmidagi "ma'rifatparvarlik absolyutizmi" davriga to'g'ri keladi. Fransuz ma'rifatchilari inson aqli va ongining mamlakat rivojidadagi roliga yuksak baho bergani tufayli madaniyatning barcha jabhalarida yuksalish sodir bo'lgan edi.

Ikkinchi to'lqini, XIX asrning ikkinchi choragida hukumat konstitutsionalizmi islohotlari bo'lib o'tdi. U Bavariya, Saksoniya, kamroq darajada Prussiyada ustuvor yo'nalishlarda rivojlanib, tugal shaklni hosil qildi. Ammo Rossiyada dekabrchilar qo'zg'olonidan (1925) keyin jarayon vaqtincha to'xtab qolib, davlat keyingi rivojlanishdan orqaga chekindi.

Uchinchi to'lqini, ma'rifatparvarlikdan keyin shakllanishga ulgurgan "paternalizm"⁵² qarashlari bilan bog'liq ravishda kechdi. Italiyada dastlab ishlatilgan atama kattaning kichikka, qarindoshning qarindoshga, ustozning shogirdga va yaqinlarga nisbatan g'amxo'rliqi asosidagi faoliyatning ajoyib ko'rinishi edi. Keyin bu qarashlar qit'aga tarqalib, ish beruvchilarning o'z hamyurtlariga ijtimoiy munosabatlarda xilma-xil moddiy-ma'naviy rag'batlantirish vositasiga aylandi. Aslida, u ish beruvchilar bilan ishchi-xizmatchilar o'rtasida tuzilgan konsensus bo'lib, ijtimoiy tengsizlik va adolatsizlikka qarshi bosh ko'tarmaslikka, Vatan ravnaqi uchun birga ishlashga chaqiriq hisoblangan.

To'rtinchi to'lqini, XX asr o'rtalariga kelib, yagona umumiy bozorni shakllantirish va erkin savdoga qaytish g'oyasida mujassamlashgan edi. Ikkinchi jahon urushidan so'ng, Yevropadagi ahdlashuvchi mamlakatlar nafaqat o'rtadagi bojlarni qisqartirib bekor qildilar, balki suvereniteti bir qismini o'z xohishlari bilan saylov organiga saylanadigan vakillariga topshirdilar. Mintaqa davlatlari integratsiyalashuvi mohiyati shunda namoyon bo'ldi.

AQSh korchalonlari Yevropadagi shiddatli rivojlanishni kuzatar ekan, o'z gegemonligidan foydalanib, jahonning liberallashuvida "Pax Americana"ni amalga oshirish uchun juda

⁵² Paternalizm – lotincha "otaga qarashli" degani.

qulay fursat kelganini anglab yetdi. Shu maqsadda 1944 yilda Nyu-Gempshir shtatidagi Bretton-Vud shahrida konferensiya tashkil qilinib, Xalqaro valyuta-moliya institutlari: Xalqaro valyuta fondi, Jahon bankini tuzishga hamda Tarif va savdo to'g'risidagi (1947) Bosh kelishuvga erishdi. Tarixiy konferensiya **Jon Meynard Keyns** (1883-1946) iqtisodiy doktrinasi bilan boshlandi. London qirollik jamiyati, Britaniya lordlar Palatasi parlamenti a'zosi bo'lgan Keyns Davlatlararo xalqaro moliyaviy boshqarish institutlarini tuzish va xalqaro moliya tizimini qayta tashkil qilish g'oyasini o'rtaga tashlagan shaxs sifatida tarixga kirdi. Gapning ochig'i, 1944 yilda tashkil topgan xalqaro tashkilotlar hozirga qadar G'arb gegemonligining moliyaviy ustunligi missiyasini qoyilmaqom bajarib kelmoqda.

Haqiqatan ham, G'arb davlatlari ko'p asrlik kolonial siyosati XIX asrning ikkinchi yarmida inqirozga yuz tutganidan so'ng, qit'ada siyosiy modernizatsiyalash jarayoni jadallashgandek bo'ldi. Kolonializm yemirilishi Yevropaning zaiflashishiga emas, balki iqtisodiy yuksalishiga turtki berdi, desak yanglishmaymiz. O'sha vaqtlarda dunyoning turli burchaklaridan Yevropaga ko'chib o'tgan muhojirlarning soni ko'paydi. Hindiston, Pokiston, Bangladesh, Jazoidan muhojirlarning to'xtovsiz nolegal oqimi Angliya, Fransiya, Gollandiya, Belgiya va Skandinaviya mamlakatlari (Daniya, Shvesiya, Finlandiya) ga oqib kelaverdi. O'z navbatida, Yevropa ham bundan iqtisodiy manfaati yo'lida foydalandi. Sobiq koloniyalarning xomashyo resurslarini ekspluatatsiya qilish, neft-gazni qazib olish sanoatini milliylashtirish natijasida bu mahsulotlarning narxi keskin oshib ketdi. Ammo muhojirlarning arzon mehnati evaziga G'arbiy Yevropada tabiiy resurslarini o'zlashtirish jarayoni tezlashdi, qishloq xo'jaligi ham rivojlandi.

YAPONIYA RIVOJLANISHI TARIXIGA BIR NAZAR⁵³



So'nggi yillarda Sharqiy Osiyo iqtisodiy mo'jizalari to'g'risida ko'plab maqolalar yozilmoqda, ilmiy doira vakillarining tadqiqotlari olib borilmoqda. Xususan, amerikalik adib va jurnalist Jeyms Fallous "dunyoda yangi Sharqiy Osiyo iqtisodiy va siyosiy tizimi"ning vujudga kelishi haqida yozsa, Robert Ueyd "dunyo modeli haqida bizning odatiy tushunchamizga sig'magan fenomen kuzatilgani"ni qayd etadi. Ekspertlar ta'kidicha, Osiyo iqtisodiy strategiyasi hukumat intervensiyasi (ko'rinuvchi qo'l) va bozor kuchlari (ko'rinmas qo'l) kombinatsiyasini uyg'unlikda ushlashi bilan shuhrat qozongan. G'arbdan farqli o'laroq, Yaponiya jamiyatida ishlab chiqilgan ijtimoiy safarbarlik dasturi ham olimlarda qiziqish uyg'otadi.

Yaponiyada so'nggi yuz yilda jamiyat hayotining barcha sohalarida iqtisodiyot, siyosat, ilm-fan va madaniyatning modernizatsiyasi, baynalmilallashuvi bilan bog'liq ob'ektiv

⁵³ <http://uza.uz/oz/society/yaponiya-islo-otlari-tarixidan>
-18-12-2019

tarixiy an'anani aks ettirgan chuqur globallashuv jarayoni kechdi. An'anaviy unsurlar va g'arb innovatsiyasini birlashtirgan yangi mamlakat qiyofasi shakllanishiga esa Meydzi (Meydzi isin) restavratsiyasi (1868) asos soldi. Ikki yuz yillik yakkalanib yashagandan keyin G'arb bilan haqiqiy muloqotga kirishildi.

Yaponlar xarakteridagi yangilanishga yuqori darajada moslashish qobiliyati – boshqa sivilizatsiyalar, birinchi navbatda, Hindiston va Xitoy sivilizatsiyalari elementlarini yaxshi o'zlashtirgani, ularni o'z milliy qadriyatlarining tarkibiy qisimga aylantirgani ham rivojlanishga ta'sir ko'rsatdi. Muamrolarni kelishuv yo'li bilan hal qilishda ular odatda yaratuvchilik va buzg'unchilik g'oyasidan oltin me'yorni bilishadi. Bunday yondashuv yaponlarning olamni idrok etishdagi muhim tamoyili bo'lgan uyg'unlashtirish tushunchasiga asoslanadi. Meydzing yangilanishi va inqilobi 1868-1889 yillarda amalga oshdi, bu orqada qolgan Yaponiyaning siyosiy, harbiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarining majmuasi bo'lib, samuray boshqaruv tizimidan imperator Musuxito va uning hukumatlari orqali to'g'ridan-to'g'ri boshqaruvga o'tish edi⁵⁴. Mashhur imperator Musuxito (yaponcha kvezi tanno: 1852-1912) 1867 yil 3 fevraldan to o'limigacha Yaponiyaning 122-imperatori bo'lgan.

Meydzi davrida mamlakatning "qayta tiklanishidan" maqsad konservativ kuchlar va yangilanish tarafdorlari o'rtasida kelishuvga erishish edi. O'shanda hokimiyatga olib kelingan savdo-sanoat kapitali vakillari, boy zodagonlarning kattagina qisimiyangi davrtalablarigamoslashish uchun ancha tayyor edi. 1860 yillarda Yaponiya iqtisodiy jihatdan juda xarob holatda bo'lgan. Yapon pragmatizmi an'anaviy qadriyatlarni boy bermasdan, ehtimoliy halokatlarni chetlab o'tgan holda, innovatsiyani qabul qilish imkoniyatini berdi. Biroq G'arb qarashlarini qabul qilish "Yapon ruhiyati – G'arb texnikasi" (vakon

⁵⁴ https://ru.wikipedia.org/wiki/Restavratsiya_Meydzi

– yosay) formulasi ostida kechdi, bunda Vakon – an’anaviy madaniyat, yaponlarning ma’naviy qadriyatlaridan voz kechmasdan, dunyoni idrok etish, Yosay–universal Yevropa sivilizatsiyasini o’rganish ma’nosini bildiradi. Hukumat g’arbiy ilm-fan va texnika yutuqlarini o’zlashtirdi, ammo yurt mustaqilligi va imtiyozlarini saqlab qoldi. Yevropa innovatsiyasini o’zlashtirish ortida an’anaviy tizimning yemirilish ehtimoli bor edi. Yaponlar “varvarlarning eng zo’r texnikasini o’rganish va shu bilan varvarlarni quvib chiqarish” shiorini olg’a surdilar. Bunday ustamonlarcha yo’l tutilishiga, albatta, qoyil qolishimiz lozim.

Meydzi restavratsiyasi xususiyati shuki, u hukumat tepasiga siyosiy zaif burjuaziya sinfini emas, balki boy mulkdorlarni boshlab keldi, ular esa taraqqiyotni belgilab berdilar. Modernizatsiya, yangilanish yuqori elita va davlat tomonidan birga amalga oshirildi!

Islohotlarni tizimga solishda S.Sudzuki (1579-1655) va B. Isidaning (1685-1744) xizmatlari buyuk. Sobiq samuray, hukumat amaldori bo’lgan Sudzuki savdogar faqat daromad olish uchun tijorat bilan shug’ullansa, muvaffaqiyat qozonmaydi, u xaridor va davlat ehtiyojidan kelib ishlamasa, iqbol unga kulib boqmaydi, mehnat qilish qanoatga tengdir, deydi. U millatning mehnatga munosabati iymon va e’tiqod yo’liga aylanishini ta’kidlaydi. Xullas, S. Sudzuning dzen-budaviylikka asoslangan ijtimoiy etikasida barcha jamiyatlar uchun kishilarning ma’naviy, diniy-iqtisodiy ehtiyojini qondiradigan yaponcha axloq ustuvorlik qiladi.

Faylasuf va iqtisodchi B. Isida samuray S.Sudzuning izdoshi bo’lgan. Ilmiy qarashlarini u Yaponiyada hozirga qadar hukmronlik qilayotgan iqtisodiy falsafa darajasiga ko’tardi.. Isida falsafasi ko’proq pragmatik xarakterga ega. Isidaning ta’kidlashicha, inson o’z xulq-atvori va o’zi rioya qilgan axloqiy normalar uchun mas’ul bo’lishi kerak. Inson tabiati, xarakteri hayotida yo’lboshchi, ya’ni yapon vijdonli.

vazmin va tartibli bo'lsagina, ruhiy maqomi yuksalish holatiga ko'chadi⁵⁵.

Hozirgi zamon yapon boshqaruv uslubi "kattalik" tamoyiliga asoslangan. Ishga yollangan xodimlar azaldan ma'lum ijtimoiy guruhlarga bo'linadi va har bir kompaniya jamoaviy bo'linma tomonidan boshqariladi. Olimlarning fikricha, hozirgi kunda ham yapon firmalarida boshqaruvchi yuqori o'rin tutmaydi. Ikki tomonlama mehnat bitimini imzolash kam uchraydi, buning uchun odatda bir og'iz so'zning o'zi kifoya qiladi.

Isida ishlagan etika qoidasi bo'yicha, tadbirkor va tijoratchi siyosat bilan shug'ullanmasligi lozim. Bugungi yapon biznesmenlarining siyosat bilan shug'ullanishga xohishi yo'qligi taxminan 260 yil avval yaratilgan Isida falsafasidan kelib chiqadi. Sudzuki va Isida yaratgan kuchli konsepsiya hozirgi zamon yapon tadbirkorlarining ruhiyatini tushunishda bizga qo'l keladi. Misol uchun, ko'pchilik ishchilar daromad ketidan quvish kompaniyani inqirozga olib kelishini yaxshi tushunadi va sifatga e'tibor beradi. Asosiy maqsadi ko'p foyda olishga qaratilgan yondashuv yaponlarning milliy xarakteriga yotdir.

Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatda boshqaruv tizimi va iqtisodiy model o'zgardi. "Japan Inkorporeytid" – davlat, biznes, kasaba uyushmasiga o'xshagan milliy korporatsiyalar yapon mahsuloti raqobatbardoshligi uchun yaxshi poydevor tayyorladi. Yaponlar "g'aroyib taqlidchi" sifatida g'arb ishlab chiqarishi texnologiyalarini sanoatga oson qo'llashga o'tdilar. Milliy mahsulotni himoya qiladigan davlat proteksionizmi kuchaydi. 1945 yildagi mag'lubiyat xalqni jipslashishga undadi. Bu irodali xalq so'nggi yarim asrda bosqinlar, urushlar, zilzilalar, yong'inlar, to'fonlar, bombardimonlar, atom va energetik inqirozlarni boshidan o'tkazdi. Ikkinchi jahon urushidagi mag'lubiyatdan keyin mamlakat

⁵⁵ Yeremin V.N. Istoriya Yaponii. Uchebnoe posobie. T.2. – M.: IV RAN, 1998. –S. 301-344.

tushkunlikka tushmadi. Bunda Sudzuki va Isidaning Xitoy faylasufi Konfutsiynikiga o'xshab ketadigan zamonaviy menejerlik ta'limoti, shubhasiz, muhim o'rin tutdi.

Korxonalarda konsensus tushunchasi yetakchilik qildi. Samaradorligini isbotlagan bu konsepsiya yapon menejmentining barcha jabhalari uchun asos bo'lib qoldi. XX asrning 50-60-yillarida davlat, biznes tuzilmalar va kasaba uyushmalarining munosabati yuqori pog'onaga ko'tarildi. "Japan Inkorporeytid" kabi milliy korporatsiyalar soni ko'paydi, yaponlar G'arb ixtirolarini sanoat korxonalarida bemalol qo'llay boshladi. Ayniqsa, AQSh andozasi asosida ishlovchi "aniq va o'z vaqtida" ("tochno vovremya") tezkor ishlab chiqarish usuli yirik zavodlarga shon-shuhrat keltirdi. Hozirgi kunda bu tizim Asaka avtomobil zavodimizda ham qo'llaniladi. Mazkur texnologik usulning afzalligi shundaki, mahsulot konveyerdan chiqqungacha bo'lgan jarayonlarni bosh muhandis, sex boshlig'i yoki usta emas, balki ishchining o'zi bexato bajara oladi...

Shunday qilib, Yaponiya 2000 yillarda iqtisodiyotda ilg'or G'arb mamlakatlarini ortda qoldirib, ayrim tarmoqlarda AQSh bilan raqobatlashadigan davlatga aylandi. Mamlakatning chet ellardagi kapital qo'yilmasi 1 trillion dollardan oshib ketdi. Jahonning 100 ta eng yirik bankidan 29 tasi yaponlarniki hisoblanadi.

Yaponiya modernizatsiyasi ustunligi: mamlakatda mehnat unumdorligi o'sishining bosh manbai – ta'limga e'tibor kuchliligi, xalqining qiyin vaziyatga moslashuvchanligi, aniq maqsad yo'lida kurashuvchanligidir. Eng muhimi, yapon ruhiyati, iqtisodiy mo'jizalari G'arb ishbilarmonlari uchun hamon siriligicha qolmoqda.

XITOIY ISLOHOTLARIDA MUTAFAK- KIRLAR TASHABBUSI⁵⁶



Xitoy modernizatsiyasi tarixi uzoq asrlarga borib taqaladi. Qadimgi davlatda miloddan avvalgi uchinchi ming yillikda kishilar o'rtasidagi munosabatlar "li" normalari asosida boshqarilgan. Xulq-atvor normalari tizimi bo'lgan "li"da axloqiy munosabatlar odamlarning jinsi, qarindoshlik darajasi, avlodi, yoshi, ijtimoiy maqomiga qarab belgilangan. An'anaviy jamiyatda tabaqaviy bo'linishdan tashqari, qarindosh-urug'chilik tengsizligi hukm surardi. Xitoy sulolasi kodeksida qarindosh-urug'chilikning qirq bitta turi ko'rsatilgan. Bunday tizim qadimgi davlatchilik shakllanishidan oldin vujudga kelgan. Ammo boshqa xalqlar, masalan, turkiylardan farqli ravishda, xitoyliklar feodal illatlardan asta-sekin qutulib oldilar.

Milliy taraqqiyotga to'siq bo'ladigan eski tuzum illatlari, xususan, urug'-aymoqchilikdan ozod bo'lish uchun har bir davlat jumladan, O'zbekiston ham kuchli etik qoidala-

⁵⁶ <http://uza.uz/oz/world/khitoy-islo-otlari-tarikhi-shoshma-shoshar-tashabbuslar-yurt-20-01-2020>

rini ishlab chiqishi va amaliyotga kiritishi lozim. Jamiyatda hukm surayotgan "feodal" illatlar bartaraf etilmasa, eskilik va yangilik tarafdorlari o'rtasidagi kurash kuchayib boraveradi...

Buyuk mutafakkir **Konfutsiy (mil. av. 551-479 y.)**ning xizmati shundaki, u davlat boshqaruviga "li" qoidalarini tatbiq etib, ijtimoiy tabaqalanish asoslarini yangiladi. Milodning III-VIII asrlariga kelib, huquq tizimi ham konfutsiyalashishi tufayli "li" huquqiy normalarga ko'chdi va qoidani buzuvchilar jinoiy javobgarlikka tortildi. Millat ota-bobolarining an'anasiga sodiq qoldi.

Qonun normalari bilan diniy tasavvur uyg'un holda qo'shilgan Konfutsiy axloqiy-siyosiy mafkurasi xalqning mentaliteti, geniga singdirib borildi. "Agar jamiyat qonunlar bilan boshqarilib, tartibot jazolash yo'li bilan ta'minlansa, odamlar jazolanishdan qochadi, or-nomusni his qilmaydi; **"li"** ma'naviy-axloqiy tizimimiz orqali boshqarilib, qadriyatlar shakllantirib borilsa, fuqarolar or-nomusni his qiladi, halol va sof-dil odamga aylanadi", deydi Konfutsiy.

Ana shu mustahkam etik tizim bugungi kunga qadar Xitoy jamiyatida ahillik va adolatni ta'minlab kelmoqda.

Janubi-sharqiy Osiyo modeli targ'ibotchisi, Singapur islohotlari asoschisi bo'lgan **Li Kuan Yu (1923-2015)**: "Xitoyliklar oldin qayta qurishni amalga oshiradi, so'ng ochiqlikka o'tadi, deb islohotlar mohiyatiga baho beradi. -Ular buni ketma-ketlikda amalga oshiradi. Ruslarning mazkur qoidani buzishi eng katta xatosidir"⁵⁷.

Haqiqatan ham, 1980-yillar o'rtalarida sobiq ittifoq rahbari Mixail Gorbachevning xalqning iqtisodiy-siyosiy tayyorgarligisiz boshlagan "oshkora"lik siyosati ulkan hududda boshboshdoqlik va egasizlikni boshlab bergan edi.

⁵⁷ Li Kuan Yu. Intervyu gazete "Spiegel" // "Spiegel", №32. 08.08.2005.

Iclohotlar evolyutsiyasi

Xitoy modernizatsiyasi murakkab kechgan. XX asr boshida inqilobchi-demokrat **Sun Yatsen (1866–1925)** avtoritar siyosiy tizimni demokratik tizimga o'zgartirish uchun oraliq bosqichlardan o'tmoqchi bo'lganida, islohotlar to'xtab qoldi.

Xitoy Xalq Respublikasi asoschisi **Mao Szedun (1893–1976)** tashabbusi bilan 1960–70-yillarda amalga oshirilgan "Katta sakrash" va "Madaniy inqilob" kampaniyalari ham shoshma-shosharlik bilan o'tkazilib, yurt boshiga og'ir kul-fatlar yog'dirdi. Ammo "yo'qsillar otasi" 33 yillik rahbarlik faoliyatida (1943–1976) G'arb imperiyalarining hamlalariga chap berib, mamlakat yaxlitligini saqlab qoldi. Mamlakat tepasiga ishning ko'zini biladigan arbob **Den Syaopin (1904–1997)** kelganidan keyin haqiqiy islohotlar boshlanib ketdi. Qizil shiorlar, balandparvoz chaqiriqlar bilan xalqni to'ydirib bo'lmasligini anglagan lider iqtisodiyotni erkinlashtirdi, sotsialistik jamiyat tizimiga kapitalistik bozor munosabatlari olib kirdi. Xususiy mulk davlat va jamoat mulki deb e'lon qilindi, xorij sarmoyadorlariga bir qator imtiyozlar berildi. "Ochiq eshiklar" siyosati olib borildi. Den Syaopin rahbarligi davrida rahbariyat bosh maqsadi "sotsializmni ag'darish emas, balki uni takomillashtirish va yangilash bo'ldi", desak xato bo'lmaydi. Totalitar tizimni mukammal ishlaydigan demokratik tizimga almashtirish uslubini topa bildi u.

Den Syaopin siyosiy modernizatsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirdi! Kommunistik partiya Bosh kotibi, XRR Davlat kengashi raisi o'rinbosari (1956–1966), KP Harbiy kengashi raisi lavozimlarida uzoq yillar ishlab, obro'-e'tibor qozongan Den Syaopin 1956 yil sentabrda Xitoy KP VIII s'ezdida so'zlagan nutqida jamiyatni demokratlashtirish, partiya organlari va hokimiyatning ma'muriy organlari vakolatlarini taqsimlash, "boshqaruvchilar – boshqariluvchilar" tizimini buzish, "dohiylik" kasalidan qutulish kabi tashabbus-

lar bilan maydonga chiqdi. Biroq fikrlari inobatga olinmadi va 50-yillar o'rtalarida kutilgan islohot 22 yilga kechikdi - Den Syaopin va xitoy xalqi taqdirida u "achchiq" yigirma yilga aylandi. Hatto 1966-1969 yillardagi "madaniy inqilob" vaqtida Den va uning maslakdoshlari qatag'on qurboniga aylanishdi. 1973 yilda oqla-nib chiqqanidan keyin 1976 yil sentabrida Mao vafot etdi va u hokimiyatni to'la qo'liga oldi. 1978 yilda "madaniy inqilob"ga qarshi "Pekin bahori" aksiyasi o'tkazildi.

Xitoy dunyoga eshiklarini ochdi. Den Syaopin 1979 yil yanvar-fevralda Oq uyda AQSh prezidenti Jimmi Karter bilan uchrashdi va Vetnamga qarshi mo'ljallangan harbiy operatsiyalarini ma'lum qildi. Den tashqi siyosati tufayli Xitoyning G'arb bilan aloqasi sezilarli darajada yaxshilandi.

Yaponiya-Xitoy munosabatlari ham yangi pog'onaga ko'tarildi, u rivojlanayotgan kuchli mamlakatning tajribasi kelgusi iqtisodiy o'zgarishlarda Xitoy uchun dars bo'lib xizmat qilishi mumkin. Buyuk Britaniya va XXR bilan 1984 yil 19 dekabrda kelishuv imzolangan, Gonkong 1997 yildan Xitoyga qaytariladigan bo'ldi. Den 50 yilgacha Britaniyaning 99 yillik boshqaruvi ostida yashagan Gonkongning siyosiy va iqtisodiy tizimini o'zgartirmaslikka so'z berdi. Portugaliya bilan ham shunday bitim imzolani, **Makao yana Xitoyga qaytarildi.** Den **"Bir mamlakat - ikki tizim" prinsipini e'lon qilib, Tayvanni Xitoyga qaytarish bo'yicha muzokaralarni olib bordi.**

Ammo shunga qaramay, Den Syaopin SSSR bilan aloqalarini yaxshilash uchun deyarli hech narsa qilmadi. Bizningcha, siyosiy qarashlar va yondashuvlarning xilma-xilligi jiddiy qarorlarni qabul qilishga yo'l bermagan.

Xullas, Syaopin mamlakat ichida demokratik islohotlarni qishloq xo'jaligi sohasidan, maocha "Xalq kommuna"lari tizimini bekor qilishdan boshladi. Kapitalizm yo'li tanlanib, iqtisodiyotda bozor mexanizmlari qo'llanildi va xorij in-

vestitsiyalari kirib kelaverdi. 1978 yil 13 dekabrda bayonot demokratiya sari tashlangan yirik qadam bo'ldi. Tarixda "Tyananmen qushxonasi" nomini olgan fikrlari ushular edi: "Xalqimizga o'z fikrini aytishga ruxsat beraylik! Agar mavjud tartibotdan norozi odamlar demokratiyadan foydalanib, tartibsizlikni keltirib chiqarmoqchi bo'lsa, bu qo'rqinchli emas, chunki qarshi choralarni qo'llaymiz, ommaning ko'pchilik qismini to'g'rilik bilan xatolikning farqiga borishga ishontira olamiz"⁵⁸.

Syaopin modeli



Davlat rahbari Den Syaopin xitoycha demokratiyada **to'rtta asosiy tamoyilni** – markazlashuv, qonun ustuvorligi, qattiq tartib-intizom, partiya rahbarligidan chetga chiqmaslikni ilgari surdi. Bu masalada xatoga yo'l qo'yish demokratiyaning bekorchi safsatalariga, ultrademokratizm tarqalishiga, jamiyatda anarxiyaga, siyosiy barqarorlik buzilishiga, millat yaxlitligi barbod bo'lishiga olib keladi, dedi u. Bu davr siyosatini tadqiq qilgan o'zbek olimi va jamoat arbobi S. Safoev mamlakatda o'sha paytda modernizatsiyaning "uch bosqichli" strategiyasi ishlab chiqilganini aytadi. "Birinchi bosqichda YaIMni 1980 yilga nisbatan ikki baravar ko'paytirish, aholini oziq-ovqat va eng zarur mahsulotlar bilan ta'minlashni hal qilish, ikkinchi bosqichda YaIMni 2000 yilgacha ikki baravar oshirish va turmush darajasini "kichik farovonliklar"⁵⁹ darajasiga yetkazish, uchinchi bosqichda XXI asr o'rtalarigacha modernizatsiya jarayonlarini yakunlash, "kichik farovonlik" jamiyatidan mo-

⁵⁸ Den Syaopin. Stroitelstvo sotsializma s kitayskoy spesifikoy. –M.: 1997. – S.36.

⁵⁹ Kichik farovonliklar – sof xitoycha tushuncha bo'lib, boy bo'lmasa ham har qalay, o'ziga to'q yashash imkonini beradigan to'qchilik darajasini bildiradi.

dernizatsiya qilingan jamiyatga (2020) o'tish ko'zda tutildi"⁶⁰.

Yuqorida ko'zda tutilgan vazifalarning anchaginasini mamlakatda amalga oshirildi. Yigirma yildayoq Xitoy o'nlab g'arb davlatlarini quvib o'tib, iqtisodiy o'sish va YaIM miqdori jihatidan dunyoda ikkinchi o'rinni egalladi. Bu haqiqiy inqilob edi! Ammo 2008 yildan boshlab butun Yevropani qamrab olgan jahon moliyaviy inqirozi, 2020 yilda dunyoda qo'qqisdan boshlangan tojvirus (koronaviurs) kasalligi va pandemiya mamlakat iqtisodiyotiga, shubhasiz, salbiy ta'sirini o'tkazdi. Xitoyda YaIM o'sishini qiyoslasak, u 1980 yilda 305.3 mlrd. dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2021 yil kutiladigan natija 16,64 trln. dollarga yetadi⁶¹.

Biz o'rganadigan muhim omil shuki, Xitoy G'arbga nisbatan siyosat va axloq bobida "yumshoq og'ish"ni istamaydi. Ta'lim-tarbiya va mafkurani davlatning izmiga to'liq bo'ysundirgan! 1980-yillarda qabul qilingan "**Beshta sevaman**" iborasi: "**mamlakatni sevish**", "**xalqni sevish**", "**mehnatni sevish**", "**ilmni sevish**", "**sotsializmni sevish**" shiorlari davlat siyosati darajasiga ko'tarildi⁶².

Syaopin qishloq aholisini boy qilishni epladi: aholining 80 foizi yashaydigan qishloqlarda oila pudrati tizimini joriy etdi. Dehqon xo'jaliklariga jamoa yeri 15 yilga ijaraga berildi va u 30 yilgacha uzaytirildi, mahsulotning bir qismini olib qolgan yer egasi bozor narxida sotish huquqini qo'lga kiritdi. Natijada dehqonlarning daromadi ko'paydi, Xitoy g'allani chetdan sotib oluvchidan eksport qiluvchi davlatga aylandi.

So'ng shunday tajriba shaharlarda qo'llanildi. 1984 yili sanoatda bozor iqtisodi tamoyili tatbiq etildi. Markaziy hu-

⁶⁰ Safoev S. Markaziy Osiyodagi geosiyosat. – T.: JIDU, 2005. – B. 113.

⁶¹ <http://global-finances.ru/vvp-kitaya-po-godam/> VVP Kitaya po godam: 1980-2021.

⁶² Marianne Bastid. Education, Youth and Social perspectives in the early 1980s / China in the 1980 – and beyond. Studies in Asian topics. №. 9. – Copenhagen, 1986. – P. 15-17.

kumat va mahalliy ma'muriyatga bo'ysunadigan davlat sektori korxonalariga ishlab chiqarishni kengaytirishi va bozor kon'yukturasiga moslashishiga to'la erkinlik berildi. Mahalliy hokimiyatlar nazorati kamaydi, davlat sektori ulushi pasayib, ular o'rnini xususiy sektor egalladi...

Syaopinning oqilona siyosati jamiyat a'zolari hayotida, turmush tarzida ijobiy siljishga olib keldi. Buni kuzatib turgan kapitalistik davlatlar mamlakatga turli demokratik chaqiriqlar bilan bosim o'tkazar edi. "Burjua liberalizmi"ni tanqid qilish yuzasidan kompaniya avj oldirildi. 1986 yilning sentabr oyida XKP MK ning 12-chaqiriq oltinchi plenumida Syaopin shunday fikrlarni ilgari surdi: "Chet eldagi burjuaziya olimlari bizdan erkinlashtirishni talab qilish bahonasida inson huquqlari buzilayotgan emish, deb jar solishadi. Ular milliy qadriyatlarimizga G'arbliklar g'oyasini qarshi qo'yib, jamiyatimizni tubdan o'zgartirishga urinishadi. Bilingki, biz hech narsaga e'tibor bermaymiz: ob'ektiv vaziyatdan kelib chiqib, o'zimizning muammolarni tezda yechaveramiz!".

Tahlillardan ma'lum bo'lishicha, "jamiyatda liberalizm, erkinlik masalasida Syaopin o'ta ehtiyotkorlik pozitsiyasini egallagan, demokratik islohotlarni safdosh do'stlari Xu Yaoban va Chjao Sziyanlar amalga oshirgan. Davlat rahbarining ehtiyotkorligi sababi shuki, u siyosiy xato qilishni istamagan. **"Daryoni kechib o'tishda oyoq tagidagi toshlarni ham paypaslab yurish kerak", degan fikrlar Syaopinga taalluqli edi.** Den ham kommunist, ammo pragmatik inson bo'lib, qanday bo'lmasin, Xitoyni rivojlantirishga intilar, **"hamonki mushuk sichqonlarni ovlar ekan, uning qora yoki oqligi muhim emas"** degan aqidaga amal qilardi⁶³.

Mana, natija kutilganidan ham ziyoda bo'ldi. Qirq yil oldin u uchinchi dunyo mamlakatlaridan biri edi. Hozirda esa Xitoy jahondagi ikkinchi mamlakatdir.

⁶³ Maxatxir M. Malayziya mo'jizasi muallifi o'z sirlarini ochdi. www.info-press.uz 2013 yil 19 iyun

Xitoy istiqboli

Jahon banki ta'kidicha, 2014 yilga kelib, Xitoy yalpi ichki mahsulotni (YaIM) xaridor sotib olishi ko'lamini 17,6 trillion dollarga yetkazilib, AQShni ortda qoldirdi (17,4 trillion dollar). 2019 yilda YaIM 6,5 foizga oshdi (pandemiya tufayli 2020 yilda ozgina pasaydi). Keyingi 20 yilda YaIM 11 marta oshdi va bu ko'rsatkichda u Italiya (2000), Fransiya (2002), Buyuk Britaniya (2006), Germaniya (2007), Yaponiya (2010) ni quvib o'tishga ulgurdi⁶⁴.

Aholi turmushida iqtisodiy yuksalish, moddiy farovonlik kuzatiladi. Iqtisodiyotda ilm-fan, innovatsiyaning o'rni yanada oshmoqda. Masalan, ixtirolarga berilgan patentlar soni bo'yicha u jahonda birinchi o'ringa chiqdi. So'nggi o'n yilda 20 million avtomobil ishlab chiqarib, ushbu ko'rsatkich bo'yicha Yaponiya va AQShdan o'zib ketdi. **Bugungi kunda Xitoy sanoat ishlab chiqarishi butun dunyo sanoatining deyarli 20 foizini tashkil etadi.** Avtomobilsozlik va kompyuterlarning chiqarilishi sanoatda asosiy o'rinni egallaydi. Bundan tashqari, iste'molchilarning soni va ishlab chiqarish ko'lamini o'sishiga erishilib, jahon eksporti deyarli 50 foizi Xitoyning hissasiga to'g'ri kelmoqda. Metall va to'qimachilik eksporti yildan yilga o'smoqda. Mamlakatda temir yo'l tarmog'i uzunligi 91000 km. ga yetib, bu borada faqat AQShdan kamroqdir. Fuqarolar asosan temir yo'l orqali sayohat qilishadi, uning teng yarmi elektrlashtirilgan. Oltin zaxirasi 2021 yil 1 yanvarda 1948 tonnaga yetgan⁶⁵. Demak, qo'shnimiz Xitoydan o'rganadigan jihatlar juda ko'p.

Ilmiy tahlilimizga suyanib aytish lozimki, mamlakatda islohotlarning samarali kechishi quyidagi omillarga borib taqaladi: **birinchidan**, iqtisodiy modernizatsiyalash uchun barqaror shart-sharoit yaratildi; **ikkinchidan**, siyosiy islo-

⁶⁴ <http://global-finances.ru/vvp-kitaya-po-godam/> ВВП Китая по годам: 1980-2021.

⁶⁵ <https://visasam.ru/emigration/economy/ekonomika-kitaya>. Shuvalov N. Ekonomika Kitaya. 10.02.2021

hotlarni o'tkazishda milliy qadriyat, urf-odat va xususiyatlar hisobga olinadi; **uchinchidan**, xalq fenomenal darajada mehnatkash va tinib tinchimaydi; **to'rtinchidan**, ishchi kuchi nihoyatda arzon turadi; **beshinchidan**, sotsializm yo'lidani "og'ish" G'arbda iliq kutib olinib, qo'llab-quvvatlandi; **oltinchidan**, xorijdagi 75 million muhojir (Gonkong, Tayvandan tashqari) mamlakatga yiliga 75 milliard dollardan ziyod mablag'ni tushiradi.

O'zbekiston-Xitoy aloqalari

Tarixiy imkoniyatlar haqida so'z borar ekan, miloddan avvalgi 138 yilda hududimizga xitoylik diplomat Chjan Szyan kelganligi va Buyuk Ipak yo'liga asos solganligini esga olish kifoya qiladi. Endilikda xitoyliklarning "**Bir makon, bir yo'l**" nomli global tashabbusi ishga tushib, qit'alarni birlashtiruvchi magistral yo'llar qayta tiklanmoqda. Ularning maqsadi miloddan oldin boshlanib to XVI asrgacha ishlab turgan Buyuk ipak yo'li tarmog'ini yana tiklashdan iborat. "Bir makon, bir yo'l" bo'yicha Xitoy – Markaziy Osiyo gaz tarmog'i, Angren-Pop temir yo'l tunneli, "Peng-Sheng" sanoat parki, Angren IES kabi yirik loyihalar amalga oshiriladi. Bu o'zbek-xitoy iqtisodiyotiga sezilarli foyda keltiradi. Ayni paytda, Angren shina zavodi, Navoiy viloyatida polivinilxlorid ishlab chiqaruvchi majmuasi, Sharg'un ko'mir koni hamda boshqa inshootlar qurilmoqda. 2017 yil oxirida Xitoy-Qirg'iziston-O'zbekiston yo'nalishida avtomobil yo'li ochilgandan keyin yuk tashish uchun ketadigan vaqt qisqardi.

O'zbekiston –Buyuk Ipak yo'lidagi eng muhim bo'g'inlardan biri. U "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini birinchilardan bo'lib qo'llab-quvvatlagan davlat bo'ldi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoevning 2017 yil may oyida Xitoyga tashrifi doirasida XRX Raisi Si szinpin bilan samimiy uchrashuv bo'lib o'tdi. Davlat tashrifi yakuniga ko'ra, **mislsiz katta miqdor – 23 milliard dollarlik kelishuvlarga erishildi.** O'zbek to-

moni ularni bajarish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqdi hamda uzviy muloqot o'rnatildi, tegishli maslahatlashuvlar o'tkazildi. O'zbek mutaxassislarining Xitoyga ishchi safarlari uyushtirilib, maxsus iqtisodiy zonalarni tashkil qilish tajribasi o'rganib qaytildi. O'rta va kichik GESlar qurilishida ham siljishlar kuzatilmoqda.

Ikki davlat rahbarlarining o'zaro tashriflari va uchrashuvlari an'anaga aylandi. Jumladan O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I. Karimov 1992, 1994, 1999, 2005, 2011, 2012 yillarda, Prezident Sh. Mirziyoev 2017 yilda Xitoyga tashrif buyurdi. Ular Shanxay hamkorlik tashkiloti yig'ilishi va boshqa yirik xalqaro tadbirlarda ham uchrashdilar. XXR raislaridan Szyan Szemin (1996 yil), Xu Szintau (2004, 2010 yillar), Si Szinpin (2013 yil, 2016 yil (ShHT Toshkent sammiti) O'zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. XXR Raisi Si Szinpin 2016 yil 20 iyunda O'zbekiston bilan bo'lgan munosabatlarga to'xtalib "Xitoy bilan O'zbekiston manfaatlari va taqdiri mushtarak, quvonch va tashvishni birgalikda baham ko'radigan teng huquqli hamda o'zaro manfaatdor sheriklardir", dedi.

O'zbekiston-Xitoy munosabatlari 2001 yil iyunda tashkil etilgan Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasida ham samarali rivojlanib bormoqda. Mamlakatimiz ShHTni tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, birinchi navbatda, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, bosqinchi ayirmachilik va narkobiznes kabi mintaqaviy, dunyoviy xavfsizlikka tahdid soladigan xavf-xatarlarga qarshi kurashishda ochiq, o'zaro foydali sheriklik va ko'p tomonlama hamkorlikka qaratilgan mexanizm deb biladi.⁶⁶

⁶⁶ <http://uzchinassn.com/ru/news/uzbekistan-v-2021-godu-osvoit-investicii-v-razmere-25108-trln-sumov/>

JANUBI-SHARQIY OSIYO FENOMENI SIRI⁶⁷

Biz O'zAda e'lon qilingan oldingi badialarimizda Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Yevropa davlatlarining o'ziga xos islohotlar tarixini qisqacha yoritgan edik. Endi 1990-yillar o'rtalarida dunyoda iqtisodiy mo'jizalar yaratgan Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari (Indoneziya, Malayziya, Singapur, Tailand, Tayvan, Janubiy Koreya – jami 11 davlat) fenomenining noan'ana-viy modeli xususiyatlariga to'xtalamiz. Ushbu davlatlarning boshqalardan farqli jihati shuki, bozor mexanizmi ruli "qattiq siyosiy qo'llar"da – davlatning qo'lida turibdi.

Tahlilimizni **Malayziya** davlatidan boshlaymiz. 1981-2003 yillarda Malayziyaning bosh vaziri lavozimida ishlagan Maxatxir Muhammad qoloq agrar mamlakatni "Osiyo yo'lbarzlari" darajasiga yetkazgan kuchli arbob edi. U g'arbiy qadriyatlarga zid o'laroq, "osiyocha qadriyatlar" tashviqotchisi, xalqaro qo'shilmalik harakatining rahbari bo'lgan. **"Kishilarning farovonligi hukumatning tashabbuskorligiga bog'liqdir,**–deb hisoblaydi u. –Davlat tarafidan kichik biznesga yaratilgan yengilliklar tufayli, Malayziyada mahalliy va xorijiy investorlar o'zlarini qayta ishlash sanoatini barpo etishdi".

M. Muhammadning fikricha, davlat rahbari modernizasiyalashda yetakchi rolni o'ynaydi, uning mamlakat taraqqiyotini belgilashdagi nodir qobiliyati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Lider bu ishga jon-jahdi bilan berilishi, milliy taraqqiyot yo'lini hayotga tatbiq etishga shaxsan rahbarlik qilishi, boshqaruvda, siyosatda, moliya va savdo sohalarida

⁶⁷<https://uza.uz/uz/posts/zhanubi-shar-iy-osiye-davlatlari-islo-otlari-tazhribasi-05-05-2020>

yuqori malakaga ega bo'lishi kerak. Sobiq bosh vazir Xitoy tajribasini yaxshi tahlil qiladi. "Mao ajoyib harbiy qo'mondan edi, biroq mamlakatni boshqarish urush olib borishdan iborat qiladi. U olg'a surgan kommunistik mafkura taraqqiyotga yo'naltirilgan emas edi. Natija shu bo'ldiki, Xitoy rivojlanishda ortda qola boshladi. Maoning vorisi Deng Syaopin butunlay boshqa odam edi. U Xitoyni rivojlantirishga intilgan, "hamonki mushuk sichqonlarni ovlar ekan, uning qora yoki oqiligi muhim emas" deb hisoblar edi"⁶⁸.



"Osiyo fenomeni"da jamladan, O'zbekiston ijtimoiy-siyosiy hayotida ham diniy e'tiqod, milliy urf-odat, an'analar yetakchilik qiladi. Kerajlik ekspertlarning ta'kidlashicha, "davat – jamiyat – inson" konstruksiyasida "osiyocha konsepsiya"

G'arb mamlakatlari tushunchasiga unchalik mos tushmaydi. Masalan, osiyoliklar "inson huquqlari, bu – jamoaviylik" deb biladi va jamiyat manfaatleri himoyasini hamma narsadan yuqori qo'yadi. Jamoaviylik jadal iqtisodiy rivojlanishga erishish, jinoyatchilik va ishsizlikni past darajada ushlab turish imkonini bermoqda. Nazarimizda, Janubi-sharqiy Osiyo xalqlarining bosh yutug'i tarixiy-madaniy, tarixiy-etnologik bilim, yozuv va an'analarni to'liq saqlab qolganligi bilan o'lchanadi. Osiyo davlatlari islohotlari ilk bosqichlarida (1980-1990 yillar) iqtisodiy-ijtimoiy dasturlarni ro'yobga chiqarishda avtoritar boshqaruv kuchlilik qilgan. Albatta, bunday yondashuv milliy mentalitet va murakkab sharoit taqozosiga ko'ra, amaliyotda o'zini ancha oqlagan.

"Osiyo qadriyatleri"ning G'arb qadriyatlaridan farqi nima-

⁶⁸ www.info-press.uz 2013 yil 19 iyun. Mazaxir M. "Malayziya mo'jizasi" muallifi o'z sirlarini ochdi.

da, degan savol ko'pchilikni qiynaydi. Biz ham ushbu masalaning tagiga yetishga harakat qildik. Uzoq yillik tahlilimizga suyanib, quyidagi fikrlarni bildiramiz: xitoyliklarda jamiyat va davlat huquqlari inson huquqlaridan ustunlik qiladi, oila mustahkam bo'lishini xohlaydi, hukumat jamiyatga axloqiy qoidalarni asrashga imkon beradi, barcha sohalarda erkinlik bo'lishi "g'oya"ni yoqtirishmaydi, ota-onalar farzandlariga qattiqqo'l bo'ladi, kapitalizm shart-sharoitiga oson moslashadi, hukumatdan ijtimoiy yordamni kutmaydi va o'zi intiladi, ta'limni yuksak qadrlaydi. Mana shu javoblarda xalqning metindek xarakteri, orzu-intilishi mujassamlashgandek...

1990 yillardan jahonda "iqtisodiy sakrash"ni amalga oshirgan **Singapur, Malayziya, Xitoy, Yaponiya, Janubiy Koreya, Tailand davlatlari milliy rivojlanishi ildizida, baribir, davlatning bosh islohotchilik siyosati yotibdi.** Ularning taraqqiyot modeli afzalligi: birinchidan, davlatning iqtisodiyot sohalariga doimiy ravishda rahnamolik qilishi; ikkinchidan, ustuvor tarmoqlarga yuksak texnika, texnologiyalarni qo'llash uchun imtiyozli kredit, soliq preferensiyalari berilishi; uchinchidan, mintaqadagi hukumatlar importga to'siq qo'yib, proteksionizmni qo'llashi bilan xarakterlanadi.

Yevropa va Osiyo davlatlarining rivojlanish yo'llarida ham farqlar mavjud: G'arb makro-daraja (moliya, pul tizimi, tashqi savdo), Sharq davlatlari mikro-daraja (narxlar va korxonalarni isloh qilish, nodavlat sektorini qo'llash, kichik biznesni rivojlantirish) mexanizmiga ko'proq tayanadi.

Yangilanayotgan O'zbekiston taraqqiyot modelining yangi mexanizmlarini takomillashtirishda mazkur davlatlarning boy tajribasi o'rganilsa, foydadan xoli bo'lmaydi. Janubi-sharqiy Osiyo davlatlari iqtisodiy yutuqlari tagzaminida milliy ruhiyat va ilg'or texnologiyalarning baravar qo'llaniladi. Malayziya hukumati qoshidagi Milliy komitetga yoshlarni "ommaviy madaniyat"ning halokatli ta'siridan himoya etish chora-tadbirlarni o'tkazish yuklanadi. "Yapon ruhiyati va

g'arb texnologiyasi" g'oyasi tarixda allaqachon o'zini oqlab, Yaponiyani uchinchi peshqadam davlat qatoriga qo'shdi. Yaponlar yuqori texnologiya cho'qqisi bo'lgan elektronika va robototexnika bilan ko'proq shug'ullanadi. Mamlakatdagi 99 foiz kompaniyalar kichik va o'rta biznes sohasida faoliyat olib boradi. Bundan ham qizig'i, Singapurda pora olishdan bosh tortgan chinovniklarga mukofotlar topshiriladi. Yaqinda Li Kuan Yu (Singapur) iqtisodiy modernizatsiyasiga doir o'zbek olimining matbuotimizda e'lon qilingan tahliliy maqolasida bu haqida qiziq ma'lumotlar keltiriladi⁶⁹. Yaponiyada davlat sektori xodimlarining vijdonliligi baholab borilishi mexanizmi ham o'rganishga loyiq hodisa. Yana aytadigan bo'lsak, "Konfutsiycha kapitalizm", "Suxartocha siyosat" (Indoneziya), Maxatxira (Hindiston) g'oyalari mazmun-mohiyati, "intellektual miya hujumi" (Malayziya) – insonning ichki quvvatini oshiradigan tadqiqotlar tahlili ham olimlarni kutib yotibdi.



⁶⁹ Shodiev T. Kto avtor "vaksini chestnosti" v Singapore? A v Uzbekistane? Narodnoe slovo, 04.02.2020.

ASL MUDDAOMNI AYTSAM

(So'ngso'z)

Assalom aziz o'quvchim! Siz hozirgina o'qishni tugallagan zamondosh mulohazalari sof publitsistik pafos, tarixga sayohat, o'tmish va bugunni muqoyasa qilish, achchiq sa-boqlar chiqarish niyatida yozilgan edi. Hozirgi globallashuv sharoitida badiiyat, ma'naviyat rivoji tahlika ostida qolgan damlarda publitsistning rost so'zi, oddiy mushohadalari xalqimizning yuragiga malham so'zlari bo'lib jaranglaydi, samimiy suhbatlar qurishga, o'zini qiynagan, o'yg'a toldirgan voqea-hodisalarni muhokama qilishga hamda chora-tadbiri-ni birga izlashga undaydi... Ammo bugungi kunda davr publitsist va adibdan jo'n talqinlarni emas, balki jiddiy, hozirjavob, hammani birday o'ylantirgan muammolarni jamiyat manfaa-tidan kelib chiqib, xolis tahlil qilishni va yechimlarni topishni talab qilmoqda.

Siz tanishgan **badialarda bosh mavzu Uchinchi Renes-sans zaminidagi Triada: Qalbni anglashi, Aqliy mehnatga o'rganish, E'tiqodini tarbiyalash masalasi asoslangan.** Bu zamonamiz qahramoni – shaxsni, hokimiyatning bosh man-bai bo'lgan xalqni siyosiy islohotlar jarayoniga tayyorlash de-gani.

O'zbek jamiyatini korrupsiya balosi qiynamoqda, sababi unga qarshi kurashishning usul va mexanizmlari o'ylab topil-gan sari korrupsiya bilan mashg'ul tizimlar va guruhlar har qanday xatti-harakatni nazar-pisand qilmay, battar avjiga chiqmoqda. Bunday nomunosib qadamlar odamlarda siyo-siy tuzumga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarmoqda. Nimadir qilish kerak, ammo qanday qilib va qaysi yo'llardan boramiz? Bizningcha, XVI asrda Usmonli turklar saltanati-da g'arb siyosatdonlarining ayyorona siyosati tufayli siyosiy

tizimga kiritilgan tamagirlik illati imperiya va xonliklarni ichidan buzdi, bu hol hozir ham ichki klanlar o'rtasidagi pinhona urushning asosiy quroliga aylanib ulgurdi. "Millat va korrupsiya" badiasida ana shu murakkab muammoga taalluqli "bo'shliq" nuqtalari ochilgan: "Huquq-tartibot organlarining ularga qarshi turish borasida o'ta "ojizligi", "zaifligi", hatto xayrixohligi holatlari ishimizga xalaqit berib, buning oqibatida xalq va davlatning yer osti hamda yer usti boyligini o'zlashtirish evaziga chet ellarda dang'illama villalarga egalik qilish holati ko'payib boradi". Bu, ayni haqiqat emasmi?

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, Renessans (uyg'onish) maktab ostonasidan boshlanadi! Ne qismatki, uzoq vaqtlar davomida O'zbekiston ta'lim tizimini son-sanoqsiz tajribalar maydoniga aylantirdik. Oldin sharq, keyin islom, istilodan so'ng rus, istiqolning ilk yillarida turk, ilmiy tadqiqot tizimida bolonya (ispan), yaqinda oliy ta'limda kredit-modul (ispan) tajribalarini o'tkazmoqdamiz. Axir, ta'lim-tarbiya tizimimiz jahonga yuzlab alloma-yu zamonlarni yetishtirgan-ku! Nega ajoyib tajribamizni omuxtalashtirib, zamonga moslab, milliy ta'lim tizimini yarata olmaymiz?! Yaratishga qurbimiz yetadi, biroq atrofimizda "yo'l ko'rsatuvchi", afsuslar bo'lsinkim, to'g'ri yo'llardan adashtiruvchi "mafkurachi" og'alarimiz ko'paygan...

Xo'sh, Yevropa, Markaziy Osiyo, Janubi-sharqiy Osiyo ("yo'lbarlar") davlatlari qanday qilib ildam taraqqiyotga erishdi? Nega ular AQShdan, yetakchi mamlakatlarning tajribasini o'rganishdan uyalishmadi? Yaponiya o'zining ashaddiy dushmani, 1945 yilda Nagasaki, Xirosimani bombardimon qilib, kulini ko'kka sovurgan, ne-ne odamlarni majruh qilgan Amerikadan nega zamonaviy tizimlarni boshqarishni o'zlashtirib oldi?! **Taraqqiy qilish uchun!** Biz nega yapon, xitoy, singapur, malayziya, koreys millatidan o'rnak olmaymiz? Axir, Toshkentdagi universitet axborot texnologiyasi va dasturlashda Bangalor (Hindiston) universitetidan andoza olishni maqsad qilmaganmidi? Nega kutilgan natija bo'lmadi? De-

Ilmiy-ommabop nashr

Baxtiyor Omonov

**FAROVON
JAMIYAT
QURISH
YO'LIDA**

(Zamondosh mulohazalari)

“Universitet” nashriyoti. Toshkent, 2022.

Nashriyot litsenziyasi 10.05.2011 y. AI №187.

Muharrirlar	Dilshod Karim, Asliddin Suyun
Rassom	Uyg'un Solih
Texnik muharrir	Yusuf Muzaffar
Musahhih	Flora Razzoqova
Sahifalovchi	Ro'zman Alimov

Bosishga ruxsat etildi 14.12.2021y. Bichimi 84x108, 1/32.
Ofset qog'oz. Cambria garniturası. Shartli bosma tabog'i 10.
Adadi 1000 nusxa. Shartnoma raqami № 1.
Bosmaxona buyurtma raqami № 7.

«Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi»
bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar, Foziltepa ko'chasi, 22-b uy.